

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI

**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**



**“FANDAGI YANGILIKLAR, FANNI O‘QITISHNING
DOLZARB MASALALARI”**

O‘QUV MODULI BO‘YICHA

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

*(Umumta‘lim maktablarining davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchilari
uchun)*

SAMARQAND-2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI

“TASDIQLAYMAN”

Milliy markaz direktori:

_____ A.Ibragimov

“ ___ ” _____ 2023 yil

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANI
O‘QITUVCHILARINI ISHLABCHIQRISHDAN
AJRALGAN HOLDA TA’LIM OLISH SHAKLIDAGI
UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH KURSI UCHUN

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

Malaka toifa yo‘nalishi: Davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchilari

Tinglovchilar kontingenti: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining Davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchilari

Samarqand - 2023

O'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining tayanch o'quv reja va namunaviy o'quv dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 236-sonli buyrug'i asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: J.Oripov – Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi.

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasining 2023-yil "___" _____ "___"-sonli yig'ilish qarorlari bilan ma'qullangan va tasdiqlash uchun Hududiy markaz Ilmiy-metodik kengashi muhokamasiga tavsiya etilgan.

O'quv va ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari: _____ D.Rasulova

Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida mudiri: _____ G.Tagayev

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Samarqand viloyati pedagogika markazi Ilmiy-metodik kengashining 2023-yil "___" _____ da o'tkazilgan navbatdan tashqari ___-sonli yig'ilishi qarori bilan ma'qullangan va tasdiqlash uchun tavsiya etilgan.

I

ISHCHI DASTUR



Ushbu namunaviy o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108 Farmoni va "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son hamda "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son, Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarorlari hamda Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi "Davlat ta'lim talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi 121-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, pedagog kadrlarning malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan xalq ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida xalq ta'limi muassasalari pedagog kadrlari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi Davlat siyosati, mas'uliyat va moslashuvchanlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari, o'zini-o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanishlarni o'z ichiga olib, ular bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mazmuni umumiy o'rta ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari asosida shakllantirilgan bo'lib, pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatiga doir zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o'quv dasturi quyidagi modullardan iborat:

1. Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish
2. AKT va mediasavodxonlik
3. O'zini-o'zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari
4. Pedagog mas'uliyati va moslashuvchanligi
5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari
6. Ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari
7. Fandagi yangiliklar va fanni o'qitishning dolzarb masalalari
8. O'quvchil ar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari

Kursning maqsadi va vazifalari

Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchil arining malakasini oshirish kursining maqsadi-ta'lim tarbiya jarayoning samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash, mustaqil amaliy faoliyatni qo'llash, malaka talablari asosida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tinglovchilarga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslarini muntazam o'rgatish;
- Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda ilg'or ta'lim-tarbiya texnologiyalari va xorijiy tajribalarni o'rganish;
- Davlat va huquq asoslari o'qituvchil arinitexnik va kreativ fikrlash, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchil arining ravishda kasb tanlashga tayyorlash

ishlarini amalga oshirish;

- Davlat va huquq asoslari fan o'qituvchilarini xorijiy tilni o'rganishga yo'naltirish;
- o'quv jarayoni fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish;

Kurs yakunida tinglovchil arning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

Malaka oshirish kursi o'quv rejasining "Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish", "AKT va media savodxonlik", "O'zini-o'zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari", "Pedagog mas'uliyati va moslashuvchanligi", "Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari", "Fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari", "O'quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari" modullari bo'yicha tinglovchil arning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar umumiy o'rta ta'lim maktablari informatika va axborot texnologiya fani o'qituvchil arining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talabari bilan belgilanadi.

Kurs hajmi

"Umumiy o'rta ta'lim maktablari Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchil arini uzluksiz kasbiy rivojlantirish" kursining bir yillik hajmi 36 soatni tashkil etadi. Kursning ishchi o'quv dasturi tarkibiga kiruvchi har bir o'quv modulini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan va qo'shimcha (agar mavjud bo'lsa) nazorat topshiriqlarini bajargan tinglovchining barcha kredit ballari jamlanadi va unga kursni muvaffaqiyatli tugatganligi haqida hujjat beriladi.

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANI O'QITUVCHIL ARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH KURSI ISHCHI O'QUV REJASIDAGI O'QUV MODULLARINING MAZMUNI

1. Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish

T/r	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklama hajmi	
		Jami	Amaliy
1.	Boshqalar fikrini hurmat qilish. O'zgalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarish qo'yish) muloqot maneralari	2	2
Jami:		2	2

1-mavzu. Boshqalar fikrini hurmat qilish. O'zgalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarish qo'yish) muloqot maneralari (amaliy mashg'ulot)

O'quvchilarning sinfdagi faoliyatini qo'llab-quvvatlashning verbal va noverbal usullari: fikr bildirish, tuzatishlar kiritish, olqishlash, savollar berish.

Boshqalar fikrini hurmat qilishning pedagogik muloqotdagi o'rni. O'zgalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarish qo'yish) muloqot maneralari va ulardan samarali foydalanish.

O'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan (qo'llab-quvvatlash, konstruktiv, ruhlantiruvchi) muloqot maneralari. O'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetentligi.

Ta'lim jarayoni sifatini oshirish va o'quvchilarning o'quv ehtiyojlarini qondirishda o'z hamkasblari bilan AKTning turli vositalari yordamida muloqotni o'rnatish va hamkorlik qilish.

O'qituvchil arning global tarmoqdagi turli pedagogik hamjamiyatlari va ulardan ta'lim sifatini oshirishda foydalanish. PR (jamoatchil ik bilan aloqalar)ni tashkil etish usullari. Ota-onalar bilan o'zaro munosabatlar. Boshqalarning huquqlari va hissiyotlarini hurmat qilishga qaratilgan muloqot maneralari.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik.

№	Modul mavzulari	Jami o'quv yuklamasi	Ma'ruza	Amaliy
1.	Ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish xavfsizligi, mas'uliyati va axloqiy normalari. "Kundalik" avtomatlashtirilgan ta'lim axborot tizimi.	2	2	
2.	Ommaviy axborot vositalaridagi media kontentni tushunish, media savodxonlik elementlarini o'zida mujassam etgan holda ularni o'quvchilarda shakllantirish metodikasi	2		2
Jami :		4	2	2

MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish xavfsizligi, mas'uliyati va axloqiy normalari. "Kundalik" avtomatlashtirilgan ta'lim axborot tizimi. (2 soat ma'ruza)

AKTdan foydalangan holda o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ta'lim strategiyalari.

Ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish xavfsizligi, mas'uliyati va axloqiy normalari. "Kundalik" avtomatlashtirilgan ta'lim axborot tizimi.

Ta'lim mazmuniga mos bo'lgan AKTni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning turli strategiya va yondashuvlari. Ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan axborot resurslari. Raqamli texnologiyalar. "Online-maktab", "Online-to'garak", "Online-repitor" resurslaridan fanini o'qitish jarayonida samarali foydalanish.

2-mavzu: Ommaviy axborot vositalaridagi media kontentni tushunish, media savodxonlik elementlarini o'zida mujassam etgan holda ularni o'quvchilarda shakllantirish metodikasi. (2 soat amaliy)

Ommaviy axborot vositalaridagi media kontentni tushunish, media savodxonlik elementlarini o'zida mujassam etgan holda ularni o'quvchilarda shakllantirish metodikasi. Turli vositalar orqali turli shakldagi axborotlarni tahlil qilish, baholash, boshqarish va yangi ma'lumotlarni yaratish. Pedagogik dasturiy vositalar (FastStone Capture, Camtasia Studio, Bandicam AutoPlay Media Studio, ISpring Suite, Hot Potatoes, Crossword Forge va boshq.)dan foydalanib media kontentlarni yaratish.

3. O'zini-o'zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari

T/r	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklama hajmi	mashg'ulotlar	
			(soatlarda)	
		Jami	Ma'ruza	Amaliy
1.	O'qituvchining individual ta'lim traektoriyasi va butun hayot davomida ta'lim olish	4	2	2
Jami:		4	2	2

NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. O'qituvchining individual ta'lim traektoriyasi va butun hayot davomida ta'lim olish (2 soat ma'ruza va 2 soat amaliy mashg'uloti).

Butun hayot davomida ta'lim olish g'oyasi (lifelong learning). Kasbiy ehtiyojlarni amalga oshirish va kasbiy mahoratni rivojlantirish yo'llari, usul va vositalari. Uzluksiz malaka oshirishni amalga oshirishda elektron ta'lim (e-learning), individual ta'lim trayektoriyasi (personal learning space) va muhiti (personal learning environment). Uzluksiz kasbiy rivojlantirish platformasi va undan foydalanish. Pedagog imiji va muloqot madaniyati (Self-menejment).

4. Pedagog mas'uliyati va moslashuvchanligi

T/r	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklama hajmi	
		Jami	Amaliy
1.	Pedagog mas'uliyati va moslashuvchanlik jarayon sifatida. Shaxslararo munosabatlarda moslashuvchanlikning ahamiyati.	2	2
Jami:		2	2

1-mavzu. Pedagog mas'uliyati va moslashuvchanlik jarayon sifatida. Shaxslararo munosabatlarda moslashuvchanlikning ahamiyati (2 soat amaliy mashg'ulot)

Mas'uliyat va moslashuvchanlik haqida tushuncha. Pedagogning o'quvchilar va ularning bilimi, hayoti va sog'lig'i uchun javobgarligi. O'zgarishlarga moslashuvchanlikning modellari va tiplari. O'zgarishlarga moslashuvchanlik psixologiyasi. Ta'lim jarayonida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga va yangilanish jarayonlariga tez va oson moslasha olish.

Ta'limdagi yangi yondashuv va strategiyalarni qabul qila olish, ularni egallash va o'z kasbiy amaliyotiga joriy eta olish. Pedagogik jamoa va uning ijtimoiy- psixologik xususiyatlari. Pedagogik jamoalarda kuzatiladigan muammolar, pedagogik jamoani muvaffaqiyatli boshqarishda xodimlarning o'zaro munosabatlari. Pedagogik jamoada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit va uning asosiy indikatorlari. Jamoadagi psixologik holatni aniqlashda diagnostik psixologik trening. STEAM-ta'limi va boshqa ta'lim mazuni.

5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari

T/r	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklama hajmi	
		Jami	Amaliy
1.	Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning psixologik jihatlari.	2	2
Jami:		2	2

1-mavzu: Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchil arga ta'lim-tarbiya berishning psixologik jihatlari. (amaliy mashg'ulot)

Inklyuziya va inklyuziv ta'lim tushunchasi. O'quvchilarni jismoniy, intellektual, ijtimoiy, emotsional, tili va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar birga o'qitishni tashkil qilish. Bunda yuzaga keladigan muammolar va ularni samarali hal etish usullari. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga oid me'yoriy hujjatlar. Imkoniyati cheklangan o'quvchil arni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan bir qatorda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashning turli strategiyalari.

6. Ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari:

T/r	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklama hajmi	
		Jami	Amaliy
1.	Pedagog-o'qituvchilarning ta'limning normativ-	2	2

	huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatida samarali foydalanishga o'rgatish.		
Jami:		2	2

1-mavzu: Pedagog-o'qituvchil arning ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatida samarali foydalanishga o'rgatish (2-soat amaliy)

Qonunchilik normalarini bilish hamda ularga rioya qilish. Mamlakatda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlardan xabardor bo'lish. Ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatida samarali foydalana olish. O'z kasbiy faoliyatiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish.

Bola huquqlari to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va ularga rioya qilishni tashkil etish.

7. Fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari moduli bo'yicha soatlar taqsimoti

T/r	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklama hajmi	mashg'ulotlar	
			(soatlarda)	
		Jami	Ma'ruza	Amaliy
1	Davlat va huquq asoslari fandagi yangiliklar, ilmiy izlanishlar, ilmiy-tadqiqot materiallaridan fanni o'qitishda foydalanish.	2	2	
2	Davlat va huquq asoslari fandan yangi tahrirdagi DTS, modernizatsiya qilingan o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari va ularning tahlili.	2		2
3	Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda ilg'or pedagogik tajribalar va ularni amalda qo'llash. Darslarda interfaol metodlardan foydalanish.	2		2
4	Ayrim murakkab mavzularni o'qitish samaradorligini oshirish omillari.	2		2
5	Davlat va huquq asoslari fani bo'yicha dars mashg'ulotlarini tayyorlash, kuzatish va tahlil qilish	4	2	2
6	Davlat va huquq asoslari fanni o'qitishda elektron darsliklardan foydalanish.	2		2
7	Fan metod birlashmalari ishini samarali tashkil etish, mustaqil malaka oshirish va bilim olishning tashkiliy, uslubiy asoslari.	2		2
8	Davlat va huquq asoslari fanidan ilg'or ish tajribalarini ommalashtirishning zamonaviy texnologiyalari.	2		2
Jami:		18	4	14

NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Davlat va huquq asoslari fandagi yangiliklar, ilmiy izlanishlar, ilmiy-tadqiqot materiallaridan fanni o'qitishda foydalanish. (2 soat ma'ruza mashg'ulot).

Fandagi yangiliklar. Fanning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha dolzarb muammolar, yangiliklar, ilmiy izlanishlar, dissertatsiyalar, ilmiy, ilmiy-metodik maqolalar, anjumanlar materiallaridan fanni o'qitishda foydalanish.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishga oid kompetensiyaviy yondoshuvlar.

2-mavzu. Davlat va huquq asoslari fandan yangi tahrirdagi DTS, modernizatsiya qilingan o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari va ularning tahlili (2 soat amaliy mashg'ulot).

Umumta'lim maktablarida Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishning maqsad va vazifalari. Fanga oid xususiy kompetensiyalar. Davlat va huquq asoslari fanidan yaratilgan o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ularning tahlili. Davlat va huquq asoslari ta'limiga oid sinflar kesimida yaratilgan o'quv adabiyotlar va ulardan dars jarayonida foydalanish metodikasi. Davlat va huquq asoslari ta'limiga oid yangi nashr qilingan ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili. Davlat va huquq asoslari fani bo'yicha oxirgi yillarda yaratilgan ilmiy adabiyotlar va ulardan dars jarayonida foydalanish.

Davlat va huquq asoslari fanidan yaratilgan o'quv va uslubiy qo'llanmalar, mashq daftarlari va ularning tahlili. Fanga oid sinflar kesimida yaratilgan o'quv adabiyotlar va ulardan dars jarayonida foydalanish metodikasi. Raqamli darsliklar haqida ma'lumotlar berish.

3-mavzu. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda ilg'or pedagogik tajribalar va ularni amalda qo'llash. Darslarda interfaol metodlardan foydalanish (2 soat amaliy mashg'ulot).

Fanni o'qitish bo'yicha ilg'or pedagogik tajribalar va ularni dars mashg'ulotlarida amalda qo'llash. Davlat va huquq asoslari darslarda interfaol metodlardan foydalanish. Mavzularga doir keys mashg'ulotlarini ishlab chiqish.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish. Davlat va huquq asoslari darslarida Kvest texnologiyasidan foydalanish. O'quvchilarning huquqiy ongini shakllantirishda talim texnologiyalaridan samarali foydalanish.

4-mavzu. Ayrim murakkab mavzularni o'qitish samaradorligini oshirish omillari. (2 soat amaliy mashg'ulot).

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishning tashkiliy shakllari. Dars, uning turlari va tuzilishi. Davlat va huquq asoslari o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar. Davlat va huquq asoslari fanidan didaktik materiallar tayyorlash. Dars-o'quv va tarbiyaviy ishning asosiy tashkiliy shakli. An'anaviy va noan'anaviy darslar. Davlat va huquq asoslari darslari mavzularining uzviyligi va didaktik jihozlanishi. Dars rejasi va uning tarkibiy qismlari. Zamonaviy Davlat va huquq asoslari darsi, unga qo'yiladigan talablar.

Muammoga asoslangan ta'lim texnologiyalaridan murakkab mavzularni yoritishda qo'llash. Murakkab mavzularni yoritishda musiqiy xarita va illiyustratsiya materiallaridan foydalanish.

5-mavzu. Davlat va huquq asoslari fani bo'yicha dars mashg'ulotlarni tayyorlash, kuzatish va tahlil qilish. (2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot).

Fan bo'yicha ma'ruza, seminar, amaliyot, trening, ochiq mashg'ulot va boshqa mashg'ulotlarni tayyorlash, kuzatish va tahlil qilish. Davlat va huquq asoslari darslarida o'quvchilarning arning mustaqil ta'limini tashkil etish. Davlat va huquq asoslari darslarida ma'ruza va seminar mashg'ulotlaridan foydalanish. Dars mashg'ulotlarini kuzatish va tahlil qilish mezonlari.

6-mavzu. Davlat va huquq asoslari fanni o'qitishda elektron darsliklardan foydalanish. (2 soat amaliy mashg'ulot).

Davlat va huquq asoslari fanida axborot kommunikasiya texnologiyalardan foydalanish. Multimedia tushunchasi. Taqdimotlar yaratish, ularga qo'yiladigan talablar. Mediadarsni tashkil etish usullari. O'qitishning an'anaviy usullarini zamonaviy informasion texnologiyalar

yordamida takomillashtirish. Elektron darslik tushunchasi. Davlat va huquq asoslari fanidan yaratilgan elektron darsliklar va dars jarayonida ulardan foydalanish.

7-mavzu. Fan metod birlashmalari ishini samarali tashkil etish, mustaqil malaka oshirish va bilim olishning tashkiliy, uslubiy asoslari. (2 soat amaliy mashg'ulot).

Fan metod birlashmalari ishini samarali tashkil etish shakl va usullari. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 45-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risi" dagi 372-sonli buyrug'i.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish, shu jumladan mustaqil malaka oshirish va bilim olishning tashkiliy, uslubiy asoslari. Xalq ta'limi tizimida metodik xizmat turlari va manblari haqida. Metod birlashmalarning vazifalari va ish mazmuni. Umumta'lim maktablarida ijtimoiy fanlar bo'yicha metod birlashma ishining sifatini ko'tarish yo'llari.

Xalqaro ta'lim platformalarida malaka oshirish kurslarida ishtirok etish, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tanishib borish va kasbiy faoliyatida foydalanish.

8-mavzu. Davlat va huquq asoslari fanidan ilg'or ish tajribalarini ommalashtirishning zamonaviy texnologiyalari. (2 soat amaliy mashg'ulot).

Xalq ta'limi vazirligi 2022-yil 25-avgustda "O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarni ommalashtirish taribini tasdiqlash to'g'risida" gi 279-son buyrug'ida ommalashirish aniq belgilab berilgan tartiblar bo'yicha o'qituvchilarning ilg'or tajribalarini aniqlash, tahlil qilish, o'rganish, yozish, umumlashirish, ommalashtirishning zamonaviy texnologiyalari, shakl va usullari. Fanni o'qitishda to'plangan ilg'or tajribalar.

8. O'quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari

T/r	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklama hajmi		
		Jami	Ma'ruza	Amaliy
1.	Davlat va huquq asoslari fanidan o'quvchilar kompetensiyalarini baholashning turli strategiyalari	2		2
Jami:		4		2

1-mavzu. Davlat va huquq asoslari fanidan o'quvchilar kompetensiyalarini baholashning turli strategiyalari (2-soat mashg'uloti).

Davlat va huquq asoslari fanidan o'quvchilarni o'zini baholashi, o'quvchilar boshqa o'quvchilarni baholashi va o'qituvchi tomonidan baholash yondashuvlari, ulardan samarali foydalanish. Tahlillar asosida pedagogik faoliyatiga o'zgartirishlar kiritish. Ota-onalarni o'quvchilarning o'zlashtirishi natijalari bilan tanishtirish.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmualar, ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia mahsulotlari hamda boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

II

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI



“SWOT-tahlil” metodi.

“SWOT-tahlil” metodi boshqa metodlarda bo`lgani kabi o`zining maqsad vazifalariga egadir. Mazkur metodning maqsadi, mavjud nazariy bilim va to`plangan tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash asosida muammoni hal etish yo`llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga mo`ljallangan.

S-(Strength). Kuchli tomonlari.	W-(weakness). Zaif, kuchsiz tomonlari.
O-(opportunity). Imkoniyatlar.	T-(threat). To`siqlar.

Fan asoslarini egallash, ta`lim oluvchilarni muammoli xarakterdagi mavzuni o`rganish va mazkur mavzu yuzasidan xulosaga kelish, ko`nikma va malakaga ega bo`lishida boshqa interfaol metodlar (usullar) singari “Xulosalash metodi”ning samaradorligi va ahamiyati kattadir. Mazkur metodni ta`lim tizimida qo`llashda muayyan qoida va me`zonlarga e`tibor qaratish talab etiladi. Chunki bu me`zonlarga e`tibor qaratish, ushbu interfaol metodning maqsadidan kelib chiqadi.

Xulosalash metodning maqsadi, murakkab, ko`p tarmoqli, muammoli xarakteridagi mavzularni o`rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo`yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammoni ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchil iklari, foyda va zararlari bo`yicha o`rganiladi. Bu metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g`oyalari, fikrlarini yozma va og`zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“Xulosalash” metodidan ma`ruza va seminar mashg`ulotlarida individual va juftliklarda, kichik guruhlarda foydalanish tavsiya etiladi.

Namuna:

Tahlil turlarining qiyosiy tahlili					
Tizimli tahlil		Syujetli tahlil		Vaziyatli tahlil	
Afzalligi	kamchil igi	afzalligi	kamchil igi	afzalligi	kamchil igi
Muammoni kelib chiqish sababli va kyechish jarayonini aloqadorligi jihatidan o`rganish imkoniyatiga ega	Alohida tayyorgarlikka ega bo`lishni, ko`p vaqt ajratishni talab etadi	O`z vaqtida muosabat bildirish imkoniyatini beradi	Munosabat boshqabir syujetga nisbatan qo`llanisho`ga yaroqsiz	Vaziyat ishtirokchilarning (ob`ekt va sub`ekt) vazifalarini belgilab olish imkolnini beradi	Dinamik xususiyatni belgilab olish uchun qo`llab bo`lmaydi
Xulosa: Tahlilning barcha turlari ham o`zining afzalligi va kamchil igi bilan bir biridan farqlanadi. Lekin, ular qatoridan pedagogik faoliyat doirasida qaror qabul qilish uchun tizimli tahlildan foydalanish joriy kamchil iklarni bartaraf etishga, mavjud resurslardan maqsadli foydalanishda afzalliklarga egaligi bilan ajralib turadi.					

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi¹» aniq vaziyatlarni o`rganish, tahlil qilish asosida o`qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi².

Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida foydalanish mumkin. Keys harakatlari o`z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- 1) Kim (Who);
- 2) Qachon (When);
- 3) Qayerda (Where);
- 4) Nima uchun (Why);
- 5) Qanday/Qanaqa (How);
- 6) Nima-natija (What).

“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash.
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o`quv topshirig`ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash.
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o`quv topshirig`ining yechimini izlash, hal etish yo`llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo`llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to`siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash.
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo`llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining seminar aspektlarini yoritish.

Keys. Tasavvur qiling! “Pedagog-o`quvchi” ko`rinishida pedagogik nizo vujudga keldi. Qaror qabul qilish uchun tizimli tahlilni amalga oshirish talab etilmoqda. Tahlil usullarini belgilb, yuzaga kelgan vaziyatni ta`lim-tarbiya manfaatidan kelib chiqqa holda yondashish talab etilmoqda.

Keysni bajarish bosqichlari

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilangan (individual vakichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ishlash).

“INSERT” metodi

“INSERT” metodning maqsadi, ta`lim oluvchil arda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarning o`zlashtirilishini yyengillashtirish maqsadida qo`llaniladigan metod bo`lib, ular uchun xotira mashqi vazifasini ham bajaradi.

“INSERT metodni amalga oshirish tartibi:

- o`qituvchil ar mashg`ulotni bajarishga qadar mavzuning asosiy tushunchalarining mazmuni yoritilgan mavzuga oid matnni tarqatma yoki taqdimot ko`rinishida tayyorlaydi;

¹ Keys – аниқ вазият, ходиса, «study» – ўрганмоқ, таҳлил қилмоқ.

² Бу метод 1921 йилда Гарвард университетида амалий вазиятлардан иктисодий бошқарув фанларини ўрганишда фойдаланилган.

- yangi mavzuning mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchil arga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchil ar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda ular quyidagi maxsus belgilardan foydalanishlari mumkin:

Belgilar:	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – bu menga tanish ma'lumot			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak			
“+” – bu ma'lumot men uchun yangilik			
“_ ” – bu fikr yoki ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchil ar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar professor-o'qituvchi yoki trener tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi. Ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

“Yalpi fikriy hujum” metodi

“Yalpi fikriy hujum” metodini J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20, 40 va 60) nafar ta'lim oluvchil ardan iborat guruhlarda qo'llash mumkin. Ushbu metod ta'lim oluvchil ar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar ta'lim oluvchil arni o'z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqda guruh a'zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

III

MODULNI O'QITISH UCHUN NAZARIY MA'LUMOTLAR



1-mavzu: DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANDAGI YANGILIKLAR, ILMIY IZLANISHLAR, ILMIY-TADQIQOT MATERIALLARIDAN FANNI O'QITISHDA FOYDALANISH (2 SOAT).

Reja:

1.1. Fandagi yangiliklar.

1.2. Fanning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha dolzarb muammolar, ilmiy izlanishlar, dissertatsiya va ilmiy-metodik maqolalar, anjumanlar materiallaridan fanni o'qitishda foydalanish.

1.3. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishga oid kompetensiyaviy yondoshuvlar.

Tayanch iboralar: ilmiy-nazariy asoslari, dolzarb muammolar, ilmiy ishlar, dissertatsiya, ilmiy-metodik maqolalar, anjumanlar.

1.1. Fandagi yangiliklar.

Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchil ariga zaruriy bilimlar berish, olingan bilimni hayotga tatbiq etish mahoratini egallash, o'z ustida ishlash, izlanish, ko'nikma va malakalarini qo'llay olishlari uchun fan doirasidagi yangiliklar, ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy maqolalar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, davlat va huquq asoslari fanini o'rganish orqali mamlakatimizdagi barcha sohalaridagi o'zarishlarni tub mohiyatini tushunish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Zero, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda huquqshunoslik fani sohasida ham yangilanish jarayonlari kechmoqda. Ayniqsa, Davlat va huquq asoslari fanning ilmiy-nazariy asoslari va fanning dolzarb muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar, dissertatsiyalar hamda ilmiy-metodik maqolalar yozilmoqda, anjumanlar tashkil etilmoqda.

Bunday o'zarishlar fuqarolarimizning huquqiy savodxonlik va bilimlarni amaliy hayotda qo'llay olishga va huquqiy ta'limning yuksaltirishga xizmat qiladi.

Davlat va huquq asoslari fanidagi yangiliklar bevosiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni bilan bog'liq. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan ekanligi mazkur farmonda belgilab berilgan.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning quyidagilar:

fuqarolar ongida "**Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!**" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash;

maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish;

yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish;

aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni kuchaytirish;

ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish;

yuridik ta'limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish belgilab berilgan.

"Yuksak huquqiy madaniyat-mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan konseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni

yuksaltirishda “shaxs-oila-mahalla-ta’lim muassasasi-tashkilot-jamiyat” prinsipi bo’yicha tizimli va uzviy tashkil etish asosiy vazifa etib belgilandi.

Mazkur farmonda, oilada huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish maqsadida, bolalar uchun maxsus huquqiy portal yaratish, ushbu huquqiy portaldagi Konstitutsiyani o’rgatishga doir materiallarni tarqatish hamda yoshlar va ota-onalar o’rtasida nikoh yoshi, aliment to’lash shartlari, qarindoshlar o’rtasidagi nikoh va uning huquqiy oqibatlari to’g’risida muntazam ravishda huquqiy targ’ibot tadbirlari qamrab oladi.

Ta’lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadida, “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganish” va “Inson huquqlarini o’rganish” maxsus o’quv kurslarini barcha ta’lim turlari bo’yicha tizimli o’rgatish nuqtai nazaridan qayta ko’rib chiqish va o’rgatilishini tashkil qilish, maxsus o’quv kurslari yakuni bo’yicha o’quvchi va talabalar orasida sinovlar tashkil qilish, bolalar va o’quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan Konstitutsiyani va inson huquqlarini o’rganish bo’yicha ko’rgazmali qo’llanmalarni tayyorlash va chop etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Eng muhimi farmonda yangi avlod huquqiy darsliklari va o’quv qo’llanmalari tizimini yaratish. Farzandlarimizga o’z huquqlarini himoya qilishning amaliy mexanizmlarini o’rgatishga qaratilgan “Street law” loyihasini keng joriy qilish, umumta’lim maktablari boshlang’ich sinf o’quvchilari o’rtasida “Huquq — bu to’g’rilikdir” mavzusidagi rasmlar tanlovi, umumta’lim maktablari o’quvchilari o’rtasida “Mening huquq va majburiyatlarim” respublika, professional ta’limi tizimida “Siz qonunni bilasizmi?”, oliy ta’lim muassasalarida “Huquq bilimdonlari”, shuningdek, yoshlarda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi muvofiqlik tuyg’usini shakllantirishga qaratilgan insholar ko’rik tanlovini tashkil qilish, professional ta’lim tizimida “Huquq bilimdonlari” yoshlar huquqiy klublarini tashkil etish, aniq rejalar asosida “ochiq darslar” va o’quv mashg’ulotlarini o’tkazilish kabilar asosiy vazifalari sifatida belgilab berildi.

1.2. Fanning ilmiy-nazariy asoslari bo’yicha dolzarb muammolar, ilmiy izlanishlar, dissertatsiya va ilmiy-metodik maqolalar, anjumanlar materiallaridan fanni o’qitishda foydalanish.

Davlat va huquq asoslari fani nafaqat mamlakatimizda, balki jahon hamjamiyatida yuz berayotgan yangilanish va yuksalishlar ta’sirida rivojlanmoqda.

Davlat va huquq asoslari fani ham fan sifatida zamonaviy davlatchil ik va huquqiy amaliyot ta’sirida rivojlanib, yangilanib va boyib bormoqda. Shu o’rinda «fan» iborasi xususida to’xtalib o’tish joiz. Fan – bu ilmning muayyan soha bo’yicha tizimli bilimlar berishga ixtisoslashtirilgan yo’nalishi hisoblanadi. Aniq aytganda, fan – tizimlashtirilgan bilimlar yig’indisi bo’lib, u ilmning nazariya, qonuniyat, tushunchalar (kategoriyalar) kabi turkumlarida ifodalanadi.

Davlat va huquq asoslari fanning predmetini ushbu fan o’rganadigan – davlatning jamiyat bilan bo’ladigan serqirra va murakkab aloqalari, davlat va huquqning jamiyat siyosiy tizimidagi o’rni, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga oid ijtimoiy masalalar tashkil etadi.

Fanning ob’yekti deganda, muayyan fan doirasida bilishning vosita va usullari yordamida ilmiy o’rganish qamroviga olinadigan voqea va hodisalar tushuniladi.

Davlat va huquq fanning ilmiy-nazariy asoslarini o’rgatishda dolzarb muammolarning yechimlarini topishda muhim ahamiyat kasb etuvchi bir qator ilmiy izlanishlar, dissertatsiya materiallaridan misollar keltiramiz. Chunki, bunday ilmiy tadqiqot materiallari fanni o’qitishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga fanni o’qitishda faqatgina darslikka qaram bo’lib qolishni oldini oladi.

So’nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish va jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to’squinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchil iklarni bartaraf etish, xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, huquqiy ta’lim va

tarbiya borasidagi ishlar tizimli, uzviy olib borishga, huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonida oila, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki etishiga, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashish, aholining huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samaradorligiga hamda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan ishlar hamda qonun ustuvorligini ta'minlashga salbiy ta'sirini bartaraf etishda ilmiy-metodik maqolalar, anjumanlar materiallaridan fanni o'qitishda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

1.3. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishga oid kompetensiyaviy yondoshuvlar.

Ta'limda kompetensiyaviy yondoshuvning vujudga kelishi davlat va huquq faniga oid materiallarni analiz qilinsa, uning rivojlanish tarixini shartli ravishda to'rtta davrga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich (1960-1970-yillar). Bu davrda ilk bor kompetensiya va kompetentlik tushunchalari ilmiy adabiyotlarga kirib kela boshladi. D.Xaymas tomonidan kommunikativ kompetentlik tushunchasi kiritildi.

Ikkinchi bosqich (1970-1990-yillar) boshqarishda kasbiy mahorat, rahbarlik qilishda, menejmentda, muloqot qilishni o'rganishda kompetensiya (kompetentlik) tushunchalarining mazmuni ishlan chiqila boshladi. J.Raven 1984-yildagi Zamonaviy jamiyatda kompetentlik nomli asarida kompetentlikka ta'rif berdi.

Uchinchi bosqich XX asrning 90-yillaridan boshlanadi. Bu davrda kompetentlikni ilmiy kategoriya sifatida ta'limda nisbatan qo'llash bo'yicha tadqiqot ishlari bajarildi. 1993-1996-yillarda YUNESKO materiallari va hujjatlarida ta'limda kutiladigan natija sifatida bir qancha kompetensiyalar ajratib olina boshladi.

To'rtinchi bosqich kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish bog'liqdir. 2006-yil 18-dekabrda Yevropa parlamenti va Kengashi uzluksiz ta'lim uchun o'z ona tilida muloqot qila olish, chet tilida muloqot qila olish, Matematik kompetentlik hamda fan va texnika sohasidagi asosiy kompetensiyalar, raqamli kompetentlik, o'qishni o'rganish, ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyasi, tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuyg'usi, madaniyatdan xabardor bo'lish va uni ifodalash tayanch kompetensiyalarini tavsiya etdi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni alohida shakllantirishni emas, balki ularni kompleks ravishda egallashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, o'qitish metodlari ham o'zgaradi.

Kompetensiya –fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

Kompetentlilik – (*lotincha: competens – layoqatli, qobiliyati bor*). Kompetentlilik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni hosil qiladi.

Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi. Jumladan:

Huquqiy onga ega bo'lish kompetensiyasi. Bunda o'quvchi:

- Konstitutsiya, davlat, huquq, burch, majburiyat, fuqaro, inson, qonun, axloq, odob kabi huquqiy tushunchalarning mazmunini bila oladi;
- huquq va huquqqa zidlik haqida ma'lumot bera oladi;
- axloq va huquq qoidalarini biladi;
- bola huquqlari, voyaga yetmaganlik, mehnat huquqi, oila huquqi, fuqarolik huquqi kabi tushunchalarning mazmunini bila oladi.
- Jamiyat, davlat va huquqning paydo bo'lishi, huquqbuzarlik va ularning belgilari haqida ma'lumot bera oladi;
- inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va burchlarini biladi;
- hokimiyat va uning bo'linish prinsiplari, belgilari, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat va uning asoslarini tushuntira oladi;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolik, mehnat, ma'muriy va jinoyat qonunchil igida belgilangan voyaga yetmaganlarga oid huquqlarni va cheklovlarni biladi;
- O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchil igida belgilangan voyaga yetmaganlarning huquqlarini biladi;
- huquq sohalari haqida ma'lumotga ega bo'ladi;
- huquqiy voqea va hodisalarni idrok qiladi, tushunadi, tushuntirib bera oladi;
- kundalik faoliyatida vujudga keladigan turli vaziyatlarni huquqiy jihatdan to'g'ri baholab, maqbul qaror qabul qila oladi.
- huquq manbalarini biladi;
- voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asoslarini tushuntira oladi;
- huquqiy voqea va hodisalarni idrok qiladi, tushunadi, tushuntirib beradi.
- jamiyat, davlat, huquq, huquq sohalari, normativ-huquqiy hujjatlar mohiyati va belgilarini tushuntira oladi;
- xalqaro umume'tirof etilgan konventsiyalarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bera oladi;
- davlat organlari va muassasalariga murojaat qilish tartibi va qoidalarini biladi;
- tanlagan kasbining huquqiy asoslari haqida ma'lumot bera oladi;
- o'z kasbiga oid normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlashni biladi.

Huquqiy madaniyatli bo'lish kompetensiyasi shakllangan o'qituvchi:

- axloq va huquq qoidalariga amal qiladi;
- fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquqlarini hurmat qiladi;
- huquqiy ko'nikma hosil qiladi;
- huquqiy masalalar yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda kichik maishiy bitimlarni tuza oladi.
- voyaga yetmaganlarga oid qonunchilikda belgilangan me'yorlarga rioya etadi;
- o'z xatti-harakatlarini huquq talablariga moslashtiradi;
- qonunchilikda belgilangan tartibda o'z huquq va manfaatlarini himoya qila oladi;
- korrupsiyaga qarshi toqatsizlikni namoyon eta oladi.
- huquqiy qoidalarni bajaradi, huquqiy munosabatlarda ishtirok etadi;
- huquq manbalaridan foydalana oladi;
- o'z huquq va manfaatlarini qonuniy himoya qila oladi;
- huquqiy voqea va hodisalarga oid to'g'ri xulosa chiqara oladi;
- korrupsiyaning jamiyat ha'etida salbiy oqibat ekanligi to'g'risidagi tushunchalarni biladi, unga qarshi kurashishga oid huquqiy normalar asosida korrupsiyaga qarshi kurashishni his qila olish ko'nikmasiga ega bo'ladi;
- jamiyat va davlat hayotidagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etadi;

▪ huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda to'g'ri qaror qabul qila oladi.

Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

• milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

• o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarning malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

• kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

• ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

• davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Nazorat savollari

1. Davlat va huquq asoslari fani va uning takomillashuvi borasida qanday yangiliklarni bilasiz?

2. Davlat va huquq asoslari fanining ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha ilmiy izlanishlar, dissertatsiya materiallaridan fanni o'qitishda foydalanishning ahamiyatini tushuntirib?

3. Davlat va huquq asoslari fanining ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha qanday ilmiy izlanishlar, dissertatsiyalarni bilasiz?

4. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda nimalarga e'tibor qaratish lozim deb o'ylaysiz?

5. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda ma'ruza mashg'ulotlarni tashkil etishda nimalarga e'tibor qaratish?

6. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda trening mashg'ulotlari qanday tashkil etiladi?

7. Davlat va huquq asoslari fanining ilmiy-nazariy asoslariga oid qanday ilmiy maqolalarni bilasiz?

8. Davlat va huquq asoslari fanining ilmiy-nazariy asoslariga oid qanday ilmiy anjumanlarni bilasiz?

9. Davlat va huquq asoslari fanining ilmiy-nazariy asoslariga oid qanday ilmiy anjumanlarda qatnashgansizmi?

10. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda ilmiy-metodik maqolalar, anjumanlar materiallaridan foydalanishning ahamiyatini tushuntirib bering?

2-mavzu. Davlat va huquq asoslari fani bo'yicha dars mashg'ulotlarni tayyorlash, kuzatish va tahlil qilish (2 soat ma'ruza).

Reja:

2.1. Fan bo'yicha ma'ruza, seminar, amaliyot, trening tashkil etish.

2.2. Fan bo'yicha ochiq mashg'ulot va boshqa mashg'ulotlarni tayyorlash, kuzatish va tahlil qilish.

2.3. Davlat va huquq asoslari darslarida o'quvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etish.

Tayanch iboralar: ma'ruza, seminar, amaliyot, trening, ochiq mashg'ulot, kuzatish, tahlil qilish.

2.1. Fan bo'yicha ma'ruza, seminar, amaliyot, trening, ochiq mashg'ulot va boshqa mashg'ulotlarni tayyorlash, kuzatish va tahlil qilish.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitish orqali o'quvchilarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish nazarda tutilar ekan o'qitishning samaradorligini ta'minlashda ma'ruza, seminar, amaliyot, trening, ochiq mashg'ulotlarni tayyorlash, kuzatish va tahlil qilish kabi usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur o'qitish usullari va mashg'ulotlar o'zining rang-barangligi bilan bir-biridan farqlanib turadi. Bu esa o'quvchilarni dars mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Davlat va huquq asoslari darslarida o'quvchilarni yangi mavzuning o'quv maqsadlari, vazifalari, ma'ruza davomida kichik guruhlarining mashg'ulot davomida bajariladigan ishlar bilan tanishtirishi, o'quv maqsadlarini o'quvchilar zimmasiga yuklashi talab etiladi. Yangi mavzuning mazmunidagi asosiy g'oya, qonunlar, qonuniyatlar ko'rgazma vositalar yordamida keng qamrovli yoritilishi, mavzu bo'yicha tushuncha, ko'nikma va malakalar o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish bosqichlariga amal qilingan holda shakllantirilishi lozim. Mavzu bayonida ilmiylik, tushunarlik, tizimlilik, keng qamrovlilik, nazariya va amaliyot birligi, ta'lim-tarbiya uzviyligi kabi o'qitish prinsiplariga amal qilish, mavzu mazmunini mahalliy hamda qo'shimcha materiallar bilan kengaytirishni amalga oshirishga e'tibor qaratish nazarda tutiladi. Mavzu bayonining samaradorligini reproduktiv (og'zaki, ko'rgazmali, amaliy) hamda faol (muammoli, mantiqiy, ijodiy izlanishli, didaktik o'yinli) metod va vositalar (ko'rgazmali qurollar, laboratoriya jihozlari, tarqatma, didaktik materiallar, o'quv-texnik va kompyuter vositalari)dan uyg'un foydalanish talab etiladi.

Ma'ruza o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini, dars o'tishning asosiy shakllaridan biridir. Ma'ruza bilimni so'z bilan ifodalash, og'zaki bayon qilish ko'zda tutilgan, majmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, umumlashtirishning murakkabligi bilan ajralib turadi. Ma'ruza (arabcha, leksiya (lot. lectio) - o'qish) o'quv materiali, biror masala, mavzu kabilarning mantiqiy izchil, ma'lum bir tizimga solingan bayonidir.

Ma'ruzaga ikki nuqtai nazardan yondashish mumkin:

1) o'quv jarayonining tashkiliy shakli sifatida;

2) bilimni so'z bilan ifodalash, og'zaki bayon qilish metodi sifatida.

Ma'ruza boshqa og'zaki, so'z orqali ifodalanadigan metodlardan:

a) nisbatan qat'iy belgilangan tarkibi;

b) o'quv materialini mantiqiy izchil likda bayon qilish;

d) tasniflash, tariff berish, obrazli isbotlash;

e) beriladigan axborotning serobligi;

g) materialni yoritib berishning tizimlilik bilan ajralib turadi.

Ma'ruza o'quvchi-talabalar bilan muloqotda bo'lishning alohida shakli va uni boshqa hech qanday o'quv shakli bilan almashtirib bo'lmaydi. Ma'ruzaning oldiga qo'yiladigan maqsad har xil bo'lib, bu maqsad maksimal darajada amalga oshishi uchun, uning funksiyalariga ahamiyat berish kerak.

Ma'ruza o'qitishning quyidagi qator funksiyalarini bajaradi:

1. Professional ta'lim berish va dunyoqarashni shakllanirish.

2. O'quvchi-talabalar diqqatini asosiy maqsadga yo'naltirish. Ma'ruzada o'quvchi-talabalarning diqqat-e'tibori o'quv materiallarini asosiy mazmuni, qonun-qoidalari, ularning

nazariy va kelgusidagi amaliyotda, mutaxassislik faoliyatida qanday o'rin tutishi va ahamiyatiga, uni o'zlashtirish metodlariga qaratiladi.

3. Idrok, tafakkurni rivojlantiruvchi-tinglovchil arda bilmaganini bilishga qiziqish uyg'otadi. Mantiqiy fikrlash va o'z fikrini asoslashga o'rgatadi.

4. Bilim berish, o'rganayotgan fan bo'yicha axborot olish, olgan axboroti asosida xulosa chiqarish, umumlashtirishga o'rgatish.

5. Metodologik - ma'ruza jarayonida tadqiqot metodlari taqqoslanadi, qiyoslanadi, ilmiy izlanish tamoyilari aniqlanadi.

6. Talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish. Ularni axloqiy-ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi, mehnatga munosabati, ijtimoiy-psixologik xislatlarini shakllantirish.

Ma'ruza darsini uch bosqichga bo'lish mumkin:

1. Kirish. Avvalgi ma'ruzada nimalar o'rganilgan, uning natijasi nimalar bilan bog'liq, bugungi darsga qanday maqsad qo'yilyapti? Avvalo dars ilgari mavzu bilan bog'lanadi. Keyin yangi mavzu e'lon qilinadi. Ma'ruza rejasi, mustaqil o'qish uchun zarur asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati tavsiya etiladi.

Mavzuni o'rganishdagi asosiy termin, tushunchalar, mustaqil ravishda bajariladigan ishlar, topshiriqlar beriladi.

2. Asosiy bosqich. Bu bosqich ma'ruza rejasiga ko'ra tanlangan dars o'tish metodlarini qo'llagan holda o'tkaziladi. Tinglovchil arga mo'ljallangan axborotlar yetkaziladi.

3. Yakuniy bosqich. Ma'ruzaga yakun yasaladi, qisqacha xulosa chiqariladi. Talabalar diqqati uchun mazkur mavzudagi eng asosiy tushuncha, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, hodisalar ta'kidlanadi. Qo'yilgan maqsadga qay darajada erishildi, bu tahlil qilib, baholanadi. Bugungi ma'ruzada bajarilgan ish kelgusi faoliyatda qanday muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatiladi.

Seminar: (lot. seminarium - ko'chatxona; maktab) oliy yoki o'rta maxsus maktab talaba (o'quvchi)larining muayyan nazariy kursni qanchalik o'zlashtirganliklarini aniqlash usuli, mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan o'quv amaliyotining muhim turlaridan biri. Talaba tomonidan bajarilgan referat, ma'ruza muhokamasidan iborat. Seminar mavzuni ilmiy tadqiq etgan o'qituvchi yoki tegishli mutaxassislar rahbarligida amalga oshiriladi. O'quv predmeti xarakteri, mashg'ulot maqsadi, o'quv yurti yo'nalishiga ko'ra ayrim o'ziga xosliklar bilan universitet, institutda keng tarqalgan. Ba'zan ma'ruzaga bog'liq bo'lmagan holda, muayyan mavzudagi mustaqil ta'lim shakli sifatida ham o'tkaziladi. Ta'limning bu shakli darslar, bahs-munozara tarzida uyushtiriladigan Yunoniston va qadimiy Rim maktablarida vujudga kelgan. XVII asrdan boshlab G'arbiy Yevropa universitetlarida gumanitar yo'nalishda o'qiydigan talabalarining asl manbalar bilan ishlash usuli ta'limning asosiy shakli sifatida qo'llaniladi. Bu xil mashg'ulotlarning 3 turi mavjud:

1. Kursni chuqurlashtirib o'rgatishga yo'naltirilgan ;

2. Kurs doirasida asosiy va muhim hisoblangan mavzularni o'rganishga qaratilgan;

3. Ilmiy izlanishga yo'naltirilgan, ma'ruza mavzusiga aloqador bo'lmagan seminar.

Seminar o'tkazishning asosiy shartlaridan biri barcha ishtirokchil ar uchun mavzu yoki mutaxassislikka bog'liq adabiyotlar, manbalar, arxiv materiallari va qo'lyozmalardan foydalanishda birdek imkoniyat yaratilishidir .

Umumta'lim maktablarida Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda ma'ruza mashg'ulotlarida o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashda amaliy mashg'ulotlar ham olib boriladi. Amaliy mashg'ulot o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, nazariya va amaliyot birligi vazifasini bajaruvchi mashg'ulot shakli sanaladi.

Amaliy mashg'ulot atamasi pedagogikaga oid adabiyotlarda keng ma'noda mashq, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini umumlashtiradi. Amaliy mashg'ulotlarning ma'ruzadan farqlanadigan asosiy belgilaridan biri o'quvchil arning birgalikdagi o'quv maqsadlariga erishish harakatlarida ko'zga tashlanadi. Ular vazifalariga ko'ra ham farqlanadi. Agar ma'ruzada mavzu nazariy jihatdan bayon qilinsa, amaliy mashg'ulotlarda bilimlar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi va aniqlashtiriladi.

Amaliy mashg'ulotlar o'quvchil ar bilimni mustahkamlash, amaliyotga qo'llash va nazorat qilishga xizmat qiladi.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etishda quyidagi masalalar:

- mavzuga oid muammoli vaziyatning vujudga keltirilishi va bugungi kunning dolzarb muammolariga bog'langanligi;

- nazariya va amaliyot, ta'lim-tarbiyaning uzviyligiga amal qilinish;

- mavzuning mazmuniga bog'liq holda o'quvchil ar ongiga huquqiy tamoyillarni singdirilish;

- amaliy mashg'ulotlarda o'quv topshiriqlarini shakllantirishda o'quvchil ar tomonidan avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalaridan foydalanishga zamin yaratish;

- amaliy mashg'ulotlari tarkibida fanlararo, boblararo, mavzulararo bog'lanishga asoslangan o'quv topshiriqlarining mavjudligi va ulardan maqsadga muvofiq o'z o'rnida foydalanish yo'llarini belgilash;

- amaliy mashg'ulotlarini bajarishda asos bo'ladigan tushunchalarni mustahkamlash maqsadida ko'nikmalarni tarkib toptirish bo'yicha topshiriqlardan o'z o'rnida foydalanilish;

- o'quvchil arning bilish faoliyatini tashkil etilish shakli (individual, kichik guruhlar)ni tanlash va shu asosda o'quvchil arning bilish faoliyatini boshqarish yo'llarini loyihalash;

- amaliy mashg'ulotlarning mazmuniga bog'liq holda Keys-stadi topshiriqlarini tuzish va o'z vaqtida foydalanish;

- o'quvchil arning amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajarishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish kabilar o'qituvchining diqqat markazida turmog'i lozim.

Trening – (ingliz tilidan training-train – o'qitmoq, tarbiyalamoq) interfaol mashg'ulotlarni amalga oshirishning asosiy shakli bo'lib, u o'rganilishi lozim bo'lgan nazariy g'oya va fikrlarni amaliy ish, mashqlar davomida o'zlashtirish, muloqot almashish imkonini beruvchi tashkiliy tadbir hisoblanadi. Trening bu nafaqat ta'lim oluvchil arda shaxslararo o'zaro hamkorlikning samarali ko'nikmasini shakllantirishga balki, mutaxassis kasbiy kompetentligining umumiy darajasini oshirishga yo'naltiriladi. Trening mobaynida o'qituvchil ar nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan birga, ularda bilish, emotsional va xulq-atvor ko'nikmalari rivojlanib boradi. Tahsil oluvchi faoliyatiga mo'ljallangan ta'lim shakli bo'lib, nazariy ma'lumotlarni amaliy mashqlar orqali o'zlashtirilishini ta'minlaydi. U ta'lim beruvchi tomonidan o'qitishni emas, balki tahsil oluvchi tomonidan mustaqil va faol o'rganishni ko'zda tutadigan treninglar o'rganilishi lozim bo'lgan nazariy g'oya va fikrlarni amaliy ish hamda mashqlar davomida o'zlashtirish imkoniyatini beradi va qatnashchil ardagi o'zaro hamkorlikni, samarali muloqot ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Trening dunyodagi kattalar ta'limining eng samarali va tezkor shaklidir. Ushbu o'qitish usulida asosiy e'tibor nazariy bilim olishga emas, balki o'qitishga, har qanday ko'nikmalarni, fikrlash usullarini yoki xatti-harakatlar modellarini yuqori sifatli qayta ishlashga qaratilgan. Albatta, inson qandaydir nazariy bilimlarni oladi, lekin ularning hajmi eng kichik bo'lib, mashg'ulotlarda asosiy urg'u amaliy mashg'ulotlarga qaratiladi - nazariy ma'lumotlar faqat bir tomonlama keladigan seminar va ma'ruzadan shunday farq qiladi. Treninglar uchun maxsus bilim yoki tayyorgarlik talab qilinmaydi. Insonga faqat har qanday o'rganish, o'zgarish va harakatga tayyorgarlik kerak.

Trening o'quv jarayonining alohida shakli bo'lib, uning xususiyati darslarning yuqori intensivligi va dars jarayonida e'lon qilingan natijaga erishishning turli usullaridan foydalanishdir. Masalan, seminar kabi trening shakli mavjud. Seminar davomida sizga juda ko'p ma'lumotlar berilishi mumkin, ammo fasilitator o'zining sizga aytganlarini amalda o'zlashtirishingizga ishonch hosil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi.

Trening bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy bilimlarni ham olishning juda mashhur usulidir. Oddiy ta'limning barcha sohalarida va hokozalarda odatiy bilim olishdan farqli o'laroq, faol o'rganishni nazarda tutadi.

Trening davomida o'quvchil arga kognitiv jarayonda faol ishtirok etish taklif etiladi: birinchi navbatda, ba'zi nazariy ma'lumotlar taqdim etiladi, so'ngra ular bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishga qaratilgan mashqlarni boshlaydilar.

Treninglar nafaqat hayotning ma'lum bir sohasi haqidagi tushunchangizni kengaytirishga, balki ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lishga ham imkon beradi.

Trening turlari

Bugungi kunda turli mavzularda tashkil etilayotgan treninglar keng tarqalgan, ammo umumiy ma'noda ular 4 turga bo'lingan:

- biznes treningi;
- shaxsiy rivojlanish;
- tarbiyaviy;
- tuzatuvchi.

Ko'pincha bu guruh treninglari bo'lib, unda 5 dan 20 gacha yoki undan ortiq kishi ishtirok etadi.

Ular zarur shart-sharoitlarga ega bo'lgan maxsus xonada o'tkaziladi: video materiallar taqdimoti uchun jihozlar, diagrammalar va jadvallarni ko'rsatish uchun taxta, ishtirokchil ar uchun joylar. Shunga qaramay, yaqinda Internetda masofaviy treninglarni topishingiz mumkin, ularda ro'yxatdan o'tish orqali bo'lajak ishtirokchil ar qatnashish istagini bildiradilar. Ba'zan ular veb-kamera va konferentsiya rejimi yordamida tashkil etiladi, lekin ko'pincha siz taqdimotchi tomonidan bir kun oldin tayyorlangan va keyin nashr etilgan oddiy videoni topishingiz mumkin.

Ushbu texnologiya o'quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchil arni baholay olishga qaratilgan.

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchil arining turli topshiriqlarini bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi ro'lida bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat yaratadi.

Treninglar an'anaviy o'quv mashg'ulotlaridan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

- ✓ bunda ta'lim oluvchil ar yoki ishtirokchil ar guruhi yoshi va bilim jihatdan bir xil bo'lmaydi;
- ✓ trening jarayonining asosiy maqsadi ishtirokchil arni o'zaro muloqotga chorlash va faollashtirishdan iborat etib belgilanadi;
- ✓ o'qitish va tarbiyalashning shakl, metod va vositalari trening maqsadidan kelib chiqib tanlanadi va individuallashtiriladi.

Yaxshi trening har doim trener va qatnashchil arning o'zaro hamkorlikdagi harakatlariga asoslanadi.

Treningni o'tkazish texnikasi. Qatnashchil ar bilan noverbal (so'zsiz, mimika, pantomimika, qarash va hokazo) aloqa o'rnatish:

- Gapirayotganingizda har bir talabani ko'z ostingizda tuting.
- Hammaga bir xil e'tibor bering, Siz guruhdagi ba'zi odamlarga xayrixoh bo'lib qolmang.
- Xonada guruhning diqqatini buzmasdan harakat qiling (tez-tez va maqsadsiz yurishlardan qoching, shuningdek, guruhga o'zingiz ko'rinmaydigan joydan turib gapiring).
- Qatnashchil arning bosh qimirlatishi, tabassumi va hatti harakatlari nimanidir aytmqochi ekanligiga hohishi borligiga e'tibor bering.
- Guruh qarshisida turing. O'qish va trening boshlanganda o'tirmang (xotirjam, shu bilan birga maqsadli va qat'iy bo'ling).

Verbal (nutqiy) aloqa o'rnatish:

✓ Savollarni shunday tuzingki, qatnashchil ar gapirsin. Bunda sizga ochiq savollar yordam beradi: «Siz bu haqda nima deysiz?», «Nimaga?», «Qanday? «Agar? va hokazo. Agar talaba «Ha», «Yo'q» deb javob bersa, «Nega shunday gapiryapsiz?» deb so'rang.

✓ O'z ovozingiz ohangiga e'tibor bering. Ayniqsa, qatnashchil ar ichidapedagogik ma'lumoti bo'lmagan kixsil ar bo'lsa, u holda asta-sekin va aniq gapiring.

✓ Qatnashchil arni o'zingizdan ko'proq gapirishga undang. O'zingiz va qatnashchil arning so'zga chiqish vaqtlarini hisobga olib boring.

✓ Hamma savollarga faqat o'zingiz javob bermang. Qatnashchil ar bir-birining savollariga javob berishi mumkinligini unutmang. Bu sizning zaxirangizni ko'paytiradi. "Kimdir bu savolga javob bera oladimi?" deb so'rang.

✓ Qatnashchil arning fikrini o'z so'zingiz bilan takrorlab, bir oz o'zgartiribifoda qiling. Bu Sizga gapiruvchini tushunishingizni etarli darajada nazorat qilishga imkoniyat beradi va muhokama savollarini tushunishni kuchaytiradi.

✓ Bahs umumlashtirilgan natijalari mohiyatini har bir ishtirokchi to'g'ri tushunganiga va to'g'ri yo'nalishda ketayotganligiga amin bo'ling. Bu qarama-qarsxil iklarni ko'rish va xulosa chiqarish uchun qulay fursatdir.

✓ Shaxsiy tajribangiz mazkur bahsga mos kelsa, qatnashchil ar fikrlarini mustahkamlang. "Bu menga o'tgan yilgi voqeani eslatadi" - deyishingiz mumkin.

Muayyan fan bo'yicha professor-o'qituvchil ar va mutaxassislar ishtirokida turli shaklida o'tkaziladigan darslar **ochiq darslar deb ataladi**. Ochiq darslarni o'tkazishdan maqsad professor-o'qituvchil arni tegishli fan, texnika va texnologiyalar sohalari bo'yicha jahonda erisxil gan yutuq va yangiliklardan xabardor bo'lishlariga erishish va ular asosida zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalangan holda darslarni tayyorlash, o'tkazish va shu tariqa ta'lim sifatini oshirish hamda tayyorlanayotgan kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlashdan iboratdir.

Ochiq darslarning maqsadi, darsni ilmiy asosida tashkil etish ta'lim mazmunini ta'minlashda yuqori bilim saviyasiga erishishni namoyish qilish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda ilg'or shakl va uslublardan real foydalanishni tashkil etish didaktik va ko'rgazma vositalaridan optimal foydalanish tizimini yaratishdan iboratdir.

Ochiq darsning asosiy maqsadi o'qituvchining dars o'tishdagi ilg'or tajriba va uslublarining samaradorligini ko'rsatish va uni ommalashtirishdir.

Ochiq darslarni o'tkazish vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ✓ o'quvchil arga fandagi so'nggi yutuq va yangiliklarni yetkazish;
- ✓ ta'lim sifatini boshqarishda fan, ishlab chiqarish va jamoatchil ik ishtirokini ta'minlash;
- ✓ ilmiy-uslubiy jihatdan yetuk dars materiallarini targ'ibot etish;
- ✓ yosh pedagog kadrlarning kasb-mahoratini oshirish;
- ✓ yuqori saviyadagi ochiq dars mualliflarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.

Ochiq darslar, odatda o'z sohasi bo'yicha taniqli yoki ilmiy daraja va unvonlarga ega bo'lgan tajribali o'qituvchil ar tomonidan o'tkaziladi.

Ochiq darsni o'tkazish to'g'risidagi taklif pedagog kadrlar tomonidan o'quv semestri boshlanishiga qadar kafedra mudiriga ma'lum qilinadi.

Ochiq darslarni odatda tajribali pedagog xodimlar, yangi metodik usullarni tavsiya qiluvchi o'qituvchi, ishni yangi boshlayotgan o'qituvchi yoki muhandis-pedagoglar ulardan mashg'ulotlar o'tkazish metodikasini o'rganib olishlari mumkin. Darsning ssenariyasi va rejaga o'qituvchi tomonidan tuziladi. Ochiq darslarning rejasini tuzishda, darslarning barcha turlarida samaradorligiga erishish o'quv jarayonini vositalariga ahamiyat berish talab qilinadi. Ochiq darslarni o'tkazish rejasi direktor yoki uning o'quv ishlab chiqarish ishlari bo'yicha o'rinbosarlari tomonidan tasdiqlanadi. Ochiq darslarning mavzusi muallif tomonidan belgilanadi va o'quv adabiyotlarida kam yoritilgan yoki uddalashtirilishi qiyin bo'lgan mavzularga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Har bir ochiq darsga puxta tayyorgarlik ko'rish kerak, bu tayyorgarlik ochiq darsning hamma elementlarini ishlab chiqarish, ish bosqichlarni, vaqtlarga bo'lish, darsni

ko'rgazmali materiallar bilan darsni samarali amalga oshirish maqsadida yangi faol mezonlaridan unumli foydalanish.

Ochiq darsga qo'yiladigan talablar:

- Ochiq dars ta'lim-tarbiya, intellektual rivojlanish, jismoniy va ruhiy barqarorlanish jarayonining tashkiliy qismlaridan biri bo'lishi kerak. Dars ssenariyasida darsning ilmiy ahamiyati ilmiy asoslanganligi, yoritilayotgan mavzuning aniqligi, ilm-fan rivojining o'rni, mavzu bo'yicha ilmiy muammolar borligi aks ettirilishi lozim;

- Darsning metodik optimalliliga o'qitishning texnikaviy vositalarning to'g'ri tanlanishiga alohida ahamiyat berish kerak.

Dars shaklidan qat'iy nazar, maqsad o'quvchini mustaqil fikrlash va mustaqil tahlil olishga yo'llash o'quv jarayonining asosiy omili ekanligini ko'zda tutish zarur:

- Ochiq dars o'qituvchining o'quv jarayonidagi ilmiy-metodik izlanish natijasi bo'lib, uning taxliliy mehnati natijasi ekanligini ko'rsatish lozim.

Ochiq darslarni tayyorlash:

O'qituvchi ochiq darsga tayyorlanishda quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

- dars vaqtini optimal rejalashtirish;

- manbalarni chuqurlashtirish;

- shu darsdagi sinf o'quvchil arining o'zlariga xos imkoniyatlarini hisobga olish (dars mavzusini tushuntirish uchun avval olgan bilimlarning ko'nikma darajasini bilish);

- dars berishning uslub va vositalarini to'g'ri tanlash;

- iqtidorli yoshlarga chuqur ta'lim va tarbiya talablariga javob berish;

- ochiq dars mavzusini tanlash, o'qituvchil arining pedagogik mahoratini, metodik ta'limini va dars o'tish vositalarini aniq ko'rsatish;

- ochiq darsga tayyorlanish davrida o'qituvchi ilmiy-metodik izlanishi, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalarning zamonaviy maktablaridan foydalanishi kerak. Bu o'qituvchil arda tahlil olishga qiziqish uyg'otib, zamonaviy yutuqlardan bexabar bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Darsning moddiy-texnikaviy ta'minoti ilgaridan tayyorlash, barcha ko'rgazma va namoiyish vositalardan foydalanish ketma-ketligini avvaldan rejalashtirish kerak.

Fan metod birlashmasi ochiq darsga tayyorlanish vaqtida, muallifga texnikaviy, metodik ash'yoviy va tahliliy yordam berishi kerak.

Ochiq darsning metodik ta'minoti

1. Darsning metodik majmuasi quyidagilardan iborat:

- fanning taqvim-mavzu rejasi;

- ma'ruza matni yoki mashg'ulotlar (laboratoriya, amaliyot, mustaqil ish va hokazo) ning rejasi;

- dars stsenariysida ko'rsatilgan didaktik, ko'rgazmali materiallari va boshqa texnikaviy vositalar;

- nazorat ishi uchun savollar to'plami;

- uy vazifasi savollari yoki masalalari to'plamlari;

- o'z-o'zini nazorat qilish savollari;

Metodik majmuaning tarkibida dars turi bilan bog'liq holda tanlanadi.

Ochiq darsning metodik maqsadi quyidagicha ta'riflanishi mumkin:

- amaliy darslarda kompyuter texnikasidan foydalanish;

- ta'lim-tarbiyaviy jarayondagi muammoli tahlilning o'rni;

- yangi mavzuni o'zlashtirishdagi texnikaviy vositalaridan foydalanishning o'rni;

- fanlararo bog'liqlik, bilimni sinovdan o'tkazish;

- o'quvchining mustaqil ishlashini tashkil qilish;

- o'quvchil arning o'zlashtirish jarayonini jadallashtirish;

- o'quvchining ko'rsatma va didaktik manbalar bilan ishlashini optimallashtirishdan iborat.

3. Darsning metodik qo'llanmasi ochiq dars muhokamasida ko'rsatilgan ijodiy takliflar

bilan boyitilgan holda qayta ishlab chiqiladi, ta'lim muassasasi metodik kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng ommalashtirishga tavsiya qilinadi.

Ochiq dars, barcha darslardek doimiy ishchi sharoitda o'tkaziladi. Ochiq darsga tashrif buyuruvchi ar, o'qituvchi va o'quvchil arga xalaqit qilmaslik uchun, o'z o'rinlarini avvalroq egallaydilar. Ochiq darsga tashrif buyurgan shaxslar dars vaqtida va o'quvchil ar oldida hech narsaga aralashmaydilar va darsga halal bermasdan o'qituvchi hamda o'quvchil arning harakatlarini o'rganib turadilar. Ochiq darsga tashrif buyurganlar muallifning oldiga qo'ygan maqsadigan qanday erishishini diqqat bilan kuzatadilar va o'z fikrlarini tashrif varaqalarida qayd qilib beradilar. Ochiq dars o'tkazilgan kuni darsni tahlil qiluvchi ar o'z fikrlarini o'zaro muhokama qilib, qaror bayonnomasini tayyorlaydilar. Ochiq darsdan so'ng 2-3 kun o'tgach, ochiq dars mavzusi bo'yicha, o'quvchil arning qoldiq bilim (ko'nikma) darajasi sinov orqali aniqlanadi.

Ochiq darsning muhokamasi va tahlili:

1. Ochiq darsning tahlili, unda qatnashgan o'quvchil arning qoldiq bilim darajasi aniqlangandan so'ng o'tkaziladi.

2. Ochiq darsning tahlili ta'lim muassasasi ma'muriyati ishtirokida o'tkaziladi.

3. Muhokamaning maqsadi-darsni to'g'ri o'tkazilganligini baholash, tanlangan uslub va vositalarning muvofiqligini aniqlash, muallifga u tanlagan ayrim uslub va vositalardan foydalanishning samaradorligini ko'rsatish.

4. Muhokama quyidagi tarkibda o'tkazilishi tavsiya qilinadi:

- darsni olib borgan o'qituvchi:

- dars tahlilida ishtirok etgan o'qituvchil ar:

- ta'lim muassasasi ma'muriyati, o'quv va metodik ishlar bo'yicha ma'sul xodimlar:

5. Muhokama ishtirokchil ari to'liq fikrga ega bo'lishi uchun, dars muallifiga birinchi so'z beriladi. Muallif darsning maqsadi va unga erishi uchun qo'llangan uslub va foydalanilgan vositalar haqida aniq ma'lumot beradi.

6. Muhokamada so'zga chiquvchil ar darsning barcha yutuq va kamchil iklarini to'liq ochib berishlari lozim. Muhokamada darsda erixil gan yutuq, qo'llanilgan uslublarning samaradorligiga, jihoz va texnikaviy vositalardan foydalanish darajasiga alohida e'tibor berilishi zarur. Muallifning kelgusidagi ishida yordam berish uchun, barcha yo'l qo'yilgan kamchil iklar va ortiqcha harakatlar aniq ko'rsatilishi kerak.

7. Muhokamada so'zga chiqqanlar, tahlil qilingan metodik majmuaning tarbiyaviy tomonini, o'quvchil arda mustaqil ishlash qobilyatlarini rivojlantirishga ta'sirini, ular orqali kelgusidagi mutaxassisga kerak bo'lgan sifatlarni shakllantirishdagi o'rin haqida fikr bilidirishlari kerak.

8. Muhokama oqilona va do'stlarcha vaziyatda fikr almashish, bahslashish sharoitida o'tishi lozim.

9. Muhokama oxirida muallifga yana so'z beriladi.

Ochiq dars natijalarini o'quv jarayoniga joriy etish:

1. Fan metod birlashmalarining taklifiga binoan ochiq dars tahlili natijasi o'quv jarayoniga joriy etilishi kerak bo'lgan ilg'or pedagogik tajriba hisoblanadi.

2. Ochiq darsning metodik majmuasini keng joriy etish uchun uning barcha manbalari (ssenariy, texnikaviy vositalar, ma'ruzalar matni va hokazo) o'qituvchil ar o'rtasida ommalashtiriladi.

3. Ochiq darsda qatnashgan o'qituvchil ar varaqada to'ldirilgan ochiq dars tahlilini o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosariga topshiradilar.

4. Ochiq dars bo'yicha metodik qo'llanmalarni tayyorlash, taklif va xulosalarning tahlili ilg'or pedagogik tajriba tatbiqlariga kiritiladi.

5. Ta'lim muassasasi pedagogik kengashida ochiq dars natijalari kengash a'zolariga etkaziladi. Pedagogik kengash qaroriga ilg'or pedagogik tajribalardan foydalanish to'g'risidagi aniq taklif va tavsiyalar kiritiladi.

6. Ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish uslublarining yangi, ilg'or shakllarini

amalda qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Ochiq darslar muhokamasini uyushtirish.

Ochiq darslarning mazmun-mohiyati va ilmiy-uslubiy saviyasi bo‘yicha muhokamasi ochiq darsdan so‘ng, o‘qituvchil ar xonasida davom ettiriladi. Ochiq darsning muhokamasi metod birlashma majlislari bayonnomasida qayd etiladi.

2.Darsni kuzatish va tahlil qilish

Har bir dars tashkiliy qismdan boshlanadi: bu davrda o‘quvchil ar sinf xonasi, ta‘lim vositalari darsga tayyorlanadi. Ayniqsa o‘quvchini psixologik jihatdan darsga tayyorlash muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchil ar avvalgi dars yoki tanaffusda bo‘lgan biror voqeya - hodisa ta‘sirida bo‘ladilar. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘quvchil arni e‘tiborini, diqqatini, xayolini, fikriy faolligini o‘z darsiga burishi lozim. Dars kuzatish va tahlil qilish orqali o‘quvchil arning umumiy tayyorgarligi, bilim olishdagi faoliyati, o‘quv faniga bo‘lgan qiziqishi, diqqat bilan ishlashi, matn, xarita, jadval, asboblilar bilan mustaqil ishlay bilishi, o‘quvchiga bo‘lgan munosabati aniqlanadi. Shu bilan birga o‘qituvchining faoliyati ham tahlil qilinadi. Chunonchi, o‘qituvchining o‘quv dasturi materiallarini bilish darajasi, yangi mavzuni tushuntirish jarayonida asosiy fikrni ajratib olishi, ilmiylik va soddalik, ko‘rgazmalilik tamoyillariga rioya qilishi, dars maqsadini to‘g‘ri qo‘yishi, dars jarayonini to‘g‘ri rejalashtirishi, darsda hamkorlikka erisha olishi, bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni nazorat etishi, o‘quvchil ar bilan yakka va jamoada ishlashni tashkil eta bilishi, dars mobaynida vaqtdan unumli foydalanishi va pedagogik muomala madaniyatini egallaganlik darajasi kabi jihatlar inobatga olinadi.

O‘qituvchil ar dars jarayonida quyidagi xato va kamchil iklarga yo‘l qo‘yadilar.

Jumladan:

- dars maqsadi bilan o‘quvchil arni tanishtirmaslik;
- interfaol metodlardan samarasiz foydalanish;
- dars jarayonida barcha o‘quvchil arning ishtirokini ta‘minlay olmaslik;
- o‘quvchil ar bilan yakka va jamoa tartibda ishlashga erisha olmaslik;
- o‘quvchil arning mustaqil ishlashini ta‘minlamaslik;
- o‘quvchil ar bajargan ishlarini vaqtida baholamaslik;
- o‘qituvchi nutqining ravon, ta‘sirchan emasligi;
- mavzuni amaliyot bilan boglab tushuntirmaslik;
- mavzuni ilmiy va amaliy nuqtai nazardan tushuntirishga e‘tibor bermaslik;
- sinf doskasi, darslik, o‘quvchi daftari, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanishning tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- o‘quvchil arga beriladigan savollarning muammoli tarzda tuzilmaganligi kabilar.

Darslar aniq maqsad asosida kuzatilishi va tahlil qilinishi lozim. Shundagina natijasi samarali bo‘ladi va o‘quv jarayoni yuzasidan aniq xulosa chiqarish imkonini beradi. Dars tahlilida izchil likning aniq bir maqsadning yo‘kdigi, darsga tasodifan qatnashish, darsni chuqur tahlil qila olmaslik, o‘qituvchiga amaliy yordam ko‘rsata olmaslik kabi jihatlar darslar sifatining va saviyasining pasayib ketishiga olib keladi.

Darslarni tahlil qilish faqatgina metodik ahamiyatga ega bo‘lmay, balki maktabda o‘quv-tarbiya jarayoniga rahbarlik va nazoratning muhim shakllaridan biridir. O‘qituvchi darsini kuzatish va tahlil qilish amaliyotining tizimli amalga oshirilishi darslarni qiyoslash va yo‘l qo‘yilgan xatolarning bartaraf etilganligini anikdash imkoniyatini beradi. O‘qituvchil arning o‘zaro dars kuzatishi tajriba almashinuv jarayoni bo‘lib, dars o‘tayotgan o‘qituvchi bor mahoratini ishga solib, yuqori ishchanlik bilan faoliyat ko‘rsatsa, tahlil qiluvchi o‘qituvchi esa taklif va mulohazalar berish orqali tajribasini boyitadi, metodik malakasini oshiradi.

Dars tahlili o‘quv mashgulotini kuzatish, o‘rganish shaklida olib boriladi. Shu o‘rinda savol tugiladi. O‘qituvchining darsi kim tomonidan kuzatilishi lozim? Qanday maqsad bilan kuzatiladi va tahlil qilinadi? O‘qituvchining darsi viloyat XTB, tuman xalq ta‘limi bo‘limi, ta‘lim muassasalari rahbarlari, xodimlari, metodistlar va o‘qituvchil ar tomonidan kuzatiladi va tahlil qilinadi.

Buning uchun, eng avvalo, darsga kirishdan maqsad nimadan iborat ekanligini anikdab

olish zarur.

3.Dars tahlilining maqsad va vazifalari

Dars quyidagi maqsadda kuzatiladi va tahlil qilinadi:

- ta'lim va tarbiya jarayoni sifatini anikdash;
- o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishga yordam berish;
- ilgor ish usullari va metodlarini o'rganish va ommalashtirish;
- o'qituvchil arning o'zaro tajriba almashishi;
- o'quvchil arning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlash;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- o'quvchil arning bilish faoliyatini o'rganish;
- o'qituvchiga amaliy va metodik yordam ko'rsatish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchil ar psixologik xususiyatlarining o'ziga xosligini e'tiborga olish;
- darsda o'quvchil arni faollashtirish va mavzuni o'zlashtirish darajasining e'tiborga olinganligi.

Dars-o'quv jarayonining juda ko'p ta'lim-tarbiya qirralarini hal qiluvchi asos hisoblanadi. Shunga ko'ra darsni kuzatuvchi va tahlil qiluvchil ardan maxsus tayyorgarlik ko'rish talab etiladi.

Darsni tahlil qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. Darsni kuzatishga tayyorgarlik.
2. Darsning borishini kuzatish.
3. O'z-o'zini tahlil qilishni ta'minlash.
4. Dars tahlili va takliflar berish.

Darsni tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

4. Darsni kuzatishdan oldingi tayyorgarlik

- darsni kuzatishdan ko'zlanayotgan maqsad va vazifalarni shakllantirish;
- kuzatiladigan darsni aniq belgilab olish;
- darsni kuzatish tuzilmasini tayyorlash;
- kerakli materiallarni tayyorlash;
- o'qituvchi bilan suhbatlashish.

Darsning maqsadlarini tahlil qilish.

- o'quv fani va mavzuning o'ziga xos tomonlari, o'quvchil ar yoshi va bilim darajasi e'tiborga olingan holda ta'lim-tarbiya maqsadining to'g'ri va asosli qo'yilganligi;
- o'quvchil arning tayyorgarligi, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha darslar tizimidagi aynan shu darsning o'rnini hisobga olgan holda maqsad qo'yilishining to'g'riligi va asoslanganligi;
- dars asosiy goyasining to'g'ri qo'yilishi va o'quvchil arga maqsadning yetkazilishi, maqsadga erishish darajasi.

Dars tuzilmasi va darsning tashkil qilinishini tahlil qilishda:

- dars tuzilmasining dars maqsadlariga mosligi;
- dars turi va strukturasi puxta o'ylanganligi;
- dars bosqichlarining mantiqiy ketma-ketligi va bir-biri bilan bogliqligi;
- dars bosqichlari uchun vaqtning to'g'ri taqsimlanganligi;
- o'qitish shakllarining to'g'ri tanlanganligi;
- dars rejasining mavjudligi va uning o'qituvchi tomonidan bajarilishini tashkil qilishi;
- dars jihozlari.

Dars mazmunini tahlil qilishda:

- dars mazmunining Davlat ta'lim standarti talablariga mosligi;
- materiallarning to'likligi, tushunarligi;
- bayon qilinayotgan materialning ilmiy darajasi;
- darsning tarbiyaviy yo'nalishi, ta'limiy ta'sir darajasi;
- darsning hayot, mehnat tarbiyasi va kasbga yo'naltirish bilan boglanishi;
- o'quvchil ar tomonidan yangi bilimlarni qabul qilishdagi qiyinchil iklarni bartaraf etish;

- yangi materialning asosiy goyasini ajratish. Yangi tushunchalarni shakllantirish. Tayanch bilimlarning muhimligini ko'rsatish.

5. Dars tahlilining xillari

Dars tahlilini quyidagi asosiy 5 turga bo'lish mumkin:

1. Ilmiy tahlil.
2. Metodik tahlil.
3. Didaktik tahlil.
4. Umumpedagogik tahlil.
5. Umumpsixologik tahlil.

Ilmiy tahlil.

Berilayotgan bilimlarning ilmiy-nazariy jihati, o'quvchi bajarayotgan mustaqil ishning maqsadga muvofiq bo'lishi jihatdan to'g'riligini aniqlash demakdir. Bunda asosan quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofikdir.

- O'qituvchining shu kungi darsga ilmiy-metodik tayyorlanganlik holati.
- O'z mutaxassisligiga oid eng yangi ilmiy-nazariy axborotlar bilan qurollanganligi.
- Dars jarayonida ilmiy qoida va ta'riflarning to'g'ri bayon etilishi hamda ilmiy atamalarning o'quvchil arga singdirib borilishi.
- Darslik materiallarining qo'shimcha adabiyot materiallari bilan boyitilishi.
- O'quvchi va o'qituvchi bajarayotgan laboratoriya, amaliy hamda mustaqil ishlarning ilmiy-nazariy jihatdan maqsadga muvofiqligi.
- O'quvchil ar mavzuni ilmiy jihatdan to'g'ri, qisqa va mukammal bayon etishini o'qituvchi tomonidan nazorat qilishi.
- Dars davomida yangi mavzuni bayon etish jarayonida ta'limning tarbiya bilan boglanishi.
- O'qituvchi va o'quvchil arning nutq madaniyati.

Metodik tahlil.

O'qituvchining dars jarayonida qo'llagan usullarining maqsadga muvofiq ekanligi ta'limning turiga va uning o'ziga xos xususiyatlariga qarab belgilanadi. O'quv materialini o'quvchil arga bayon qilish va tushuntirish jarayonida qo'llanilgan usullarining shu materialga mosligi yoki mos emasligi metodik tahlil davomida anikdanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'qituvchi darsda qo'llagan usullarning samaradorligi, rang- barangligi, namunaviyligi, uning o'tgan, yangi mavzu materialini o'quvchil arning qay darajada o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Shu boisdan har bir dars kuzatuvchi dars tahlilining bu turiga alohida e'tibor bilan qarashi kerak. Dars metodlarini tahlil qilishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofikdir:

Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchil ar faoliyatining tashkiliy shakllariga ko'ra:

- ✓ Hikoya usuli;
- ✓ ogzaki usuli;
- ✓ suhbat usuli.

1. O'quvchil arning o'zlashtirishiga ko'ra:

- ✓ o'qituvchining so'zlash usuli;
- ✓ ko'rsatmali qurollardan foydalanish usuli;
- ✓ darslik, diagramma, jadvallar bilan ishlash usuli;
- ✓ laboratoriya asboblari bilan ishlash usuli;
- ✓ texnik vositalaridan (informatika elektron hisoblash texnikasi, diafilm, radio, televizor kabidan) foydalanish usuli;
- ✓ sinf doskasidan, turli xaritalarda foydalanish usuli.

Didaktik tahlil.

Ta'lim turlari samaradorligi va uni belgilovchi qonun va qoidalarning darsda qanchalik to'g'ri hamda mukammal bajarilganligini tahlil qilish demakdir.

Darsni didaktik tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor berish o'rinli bo'ladi:

- O'qituvchi bayonining goyaviy jihatdan ta'lim-tarbiya talabiga mos bo'lganligi.

- O'qituvchi fikrining sinf o'quvchilari jamoasiga to'la tushunarli bo'lishi va bu bayonning izchil ravishda o'quvchi ongiga yetib borishi.
- Barcha o'quvchilarning o'qituvchi berayotgan materialni ongli ravishda o'zlashtirishlari.
- O'qituvchi bayonida rivojlantiruvchi va muammoli ta'limning mavjudligi.
- O'qituvchi fikrining izchil ligi.
- Dars jarayonida ko'rsatmali qurollardan, tarqatma materiallardan va texnika vositalaridan foydalanishning qanchalik maqsadga muvofiqligi.
- Ekskursiya, tajriba, laboratoriya va amaliy ishlarda maqsadga erishganligi.
- Darslik bilan ishlashning to'g'riligi.
- Misollarning ta'lim-tarbiya birligi asosida yo'nalishi.
- Darsni ma'lum bir tizimda olib borilishi.

Umumpedagogik tahlil.

Bu darsdagi hamma jihatlarning qisqa va o'zaro bog'likdigi tahlilidir.

Bunda quyidagilarni hisobga olish o'rinli bo'ladi:

O'quv yoki dars xonasining dars o'tishga tayyorgarlik holati (dars jihozlari).

O'quv xonasining sanitariya-gigiyena holati.

O'qituvchining dars mavzusi bo'yicha ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadi.

O'qituvchining mazkur darsga ilmiy-metodik va umumiy pedagogik jihatdan qanchalik tayyorlanganlik darajasi.

O'qituvchining dars etaplaridan to'g'ri foydalanganligi.

O'qituvchining o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda pedagogik jihatdan namunalilik darajasi.

O'quvchilarning bilimiga qo'yiladigan bahoning adolatli va izohli bo'lishi.

O'quvchilarning darsdagi faolligi, intizomi, mustaqil fikr yuritishi hamda mazkur fan asoslarini o'zlashtirib olganlik darajasi.

O'quvchilarning o'qituvchi darsiga munosabati va hurmat bilan qarashi.

O'qituvchining darsdagi rahbarlik roli va ish uslubi, ta'limni tarbiyaga bog'lashi.

Dars jarayonida o'lkashunoslik, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish materiallaridan foydalanishi.

O'qituvchining darsda asosiy maqsadiga erisha olganligi.

O'qituvchining ilmiy, metodik va umumpedagogik jihatdan yordamga muhtojligi kabilar.

Umumpsixologik tahlil.

Darsni umumpsixologik tahlil qilish sxemasi:

1. Darsning aniq maqsad va vazifalariga bog'liq ravishda tuzilishiga psixologik baho berish.
2. darsning mavzu, maqsad va vazifalari;
3. darsning psixologik jihatdan maqsadga muvofiqligi.
4. Darsning mazmuniga psixologik jihatdan baho berish.

- mazkur material o'quvchilarning bilim faoliyatining yoki xususiyatlariga, ularning hayotiy tajribasi va bilimlari darajasiga mos kelishi;

- o'qituvchining murakkab o'quv materialini mazkur yoshdagi o'quvchilarning idrok etishi uchun qulay, tushunarli va qiziqarli uyushtirish (bayon qilishning oddiyligi, ravonligi, qiyoslarning mavjudligi, hayot bilan bog'lash);

- o'rganilayotgan materialning tarbiyaviy ta'siri.

Darsda o'quvchilarning bilim faoliyatining namoyon bo'lishi va uni boshqarish

• Diqqatni tashkil etish.

• Idrokni tashkil etish.

• Xotirani faollashtirish - ya'ni bayon qilinayotgan ma'lumotlarni yaxshiroq eslab qolish usullaridan foydalanishi, takrorlash, masalalar yechish, muammoli vaziyatlar vujudga keltirish va ularni yechimini topish.

O'quvchilarning fikrlash faoliyatini kuchaytirish. Mavzuga doir muammoli vaziyatlar qanday

yo'llar bilan yaratildi. O'quvchil ar javoblarni izlashda faollik ko'rsatdilar? Ular qo'yilgan muammoning yechimini topish uchun qanday aniq fikrlash harakatlarini mustaqil ravishda amalga oshirdilar. O'quvchil arda ana shu ko'nikmalar hosil qilinganligi.

O'qituvchining bosqichlarida o'quvchil ar bilan munosabati. O'qituvchi muomila madaniyatining tarbiyaviy ahamiyati.

Ma'lumki, kuzatilgan darsning tahlili umumiy pedagogika va xususiy metodika talablari nuqtai nazaridan bir xil bo'lsa ham lekin har bir fanning o'z talablari bor. Biologiya darslarida o'quvchil arning amaliy tajriba o'tkazishlari, olingan bilimlarga doir muammolar, masalalar yechil ishiga ahamiyat ko'proq beriladi. Biroq hamma fan bo'yicha dars kuzatish va uni tahlil qilishdan asosiy maqsad o'quvchil arning bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishga o'qituvchil arning ma'suliyatini oshirishga qaratilmog'i lozim.

Maktabda dars kuzatish va uni tahlil qilish masalasi to'g'ri tashkil qilish o'quv-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Dars kuzatuvchi-darsga kirishdan oldin o'z oldiga aniq maqsadni qo'yishi va shu maqsad asosida fan o'qituvchisining darsini maxsus tayyorgarlik asosida kuzatish va uni to'g'ri tahlil qilib borishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maktab doirasida o'qituvchi va tarbiyachil ar o'rtasida dars kuzatish uni tahlil qilish ishini aniq obyekt, aniq mavzu va aniq maqsad yo'nalishida tuzilgan reja-grafik asosida tashkil qilish bu borada muhiti pedagogik ahamiyat kasb etadi (Mazkur reja-grafik namuna shaklida ilova qilindi. Siz unga ijodiy yondoshib o'z faoliyatingizda undan foydalanasiz degan umiddamiz). Darslarni kuzatish va tahlil qilish tartibi, qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning asosiy maqsadi o'quvchil arning bilim malakalarini yanada yaxshil ashga, darsning sifat va samaradorligini oshirishga qaratilmog'i lozim.

6.Dars tahliliga qo'yilgan talablar.

Darsga kirguncha:

- O'qituvchi faoliyati bilan tanishish
 - Dars mavzusi, dars jadvali, o'quv ishlar faoliyati bilan tanishish
 - Oxirgi marotaba qachon kimlar, nima maqsadda shu o'qituvchi darsiga kirishgani.
- Ularning tahlili, xulosalari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish
- Darsga kirish haqida fikr bildirish, xamda maqsadni belgilab olish va o'quvchini ogohlantirish

- Maqsadni tushuntirish

Dars tahliliga kirish

- Qo'ngiroq chalinishidan oldin kirib joylashib olish
- Kechikib kirish mumkin emas, ortiqcha narsa bilan kirish madaniyatsizlik hisoblanadi.
- Dars tahlilini o'qituvchining darsga qanday kirib kelishini kuzatishdan boshlash.

Dars kuzatish vaqtida

- O'qituvchini darsga kirib kelishi
- Darsga qo'yilgan maqsad asosida dars jarayonini kuzatib borish
- Kerakli yozuvlar, taklif va tavsiyalarni daftarga qayd qilib borish
- Uyali telefonda so'zlashmaslik
- Chiqib ketmaslik, o'qituvchiga tikilib qaramaslik, so'zlashmaslik

Darsdan chiqqandan so'ng

- Avval dars o'tkazgan o'qituvchini eshitish
- Kamchil iklarni taklif va tavsiya sifatida bildirish, shaxsga tegmaslik
- O'qituvchini obro'sini ko'tarish, unda keyinchalik yanada samarali mehnat qilishiga imkoniyat va hohish uygotish -maqsaddan kelib chiqib tahlil qilish.

Dars tahlilining taxminiy namunasi

1. Darsga tayyorgarlik

- a) darsning mavzusi;
- b) darsning maqsadi;
- v) darsga oid o'quv qurollari;
- g) darsga o'quvchil ar tayyorligi.

2. ***O'quvchil arning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish:***

- a) o'quvchil ar bilimni tekshirish uchun savollarning qo'yilishi;
- b) o'quvchil ar ko'nikmasini tekshirish uchun savollar qo'yilishi;
- s) o'quvchil ar malakasini tekshirish uchun savollar;
- d) qo'yilgan savollarning o'quvchil ar saviyasiga mosligi;
- e) savolarni yechishda o'quvchil ar faolligi va bu borada ko'rilgan tadbirlar;
- j) so'rash shakli (yalpi, yakka)

Yangi mavzuni o'rganish

- o'quvchil arning yangi bilimlarini o'rganishni tashkil qilish bo'yicha, o'qituvchi ish usullarini o'rganish.

- o'qituvchining yangi bilimlar mazmunini bayon qilishini baholash;
- ta'lim - tarbiyaviy;
- darsning ilmiyligi;
- fanlararo aloqalar o'rnatishi;
- o'rnatilayotgan materialning amaliy ahamiyati;
- tayanch bilimlarni ishlata olishi;
- yangi materialning bayon etish uslub va usullari;
- amaliy ishlarni tashkil etishi;
- ko'rgazmalilikdan foydalanishi;
- mustaqil ishlar tashkil etishi;
- materialning o'quvchil ar yoshiga mosligi;
- o'quvchil ar bilan yakka tartibda ishlashi;
- yaxshi va bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchil ar bilan ishlashi;
- texnika vositalaridan foydalanishi;

Darsning barcha bosqichlarida o'quvchil ar ishini baholash

- o'quvchil ar diqqati, faolligi;

- o'qituvchi savollariga javob berish tezligi;

- o'quvchining o'tirgan joyida javob berishdagi holati bilan taxta oldida javob berishni qiyoslashi;

- javobni xarita bilan boglay olishi;

Yangi materialni mustahkamlash

- dars rejasida yangi materialni mustahkamlashning o'rni;
- materialni mustahkamlash usuli (suhbat, o'quvchil arning mustaqil ishlari va hakoza)

Uyga vazifa

- darsda uy vazifasining o'rni;
- uy vazifasining o'quvchil arga tushunarli bo'lishi;
- uy vazifasini bajarishning yangi yo'llari;
- uy vazifasini bajarish uchun o'qituvchining yo'l - yo'riqlari va ko'rsatmalari;
- uyga berilgan vazifani bajarish juda ko'p vaqtni olmaydimi ?
- uy vazifasini bajarishda qanday ko'nikma va malakalar egallash

O'qituvchining pedagogik mahorati:

- O'qituvchi qiyofasi, dars berishdagi mustaqilligi, fikrining to'liqligi, bilim darajasi.
- O'zini va sinfni boshqara olishi, intizomni yo'lga ko'yish.
- O'quvchil ar bilan muomalasi, pedagogik takti;
- O'qituvchi nutqi ravonligi;

Darsga umumiy baho berish va xulosalash

- qo'yilgan maqsad va ta'lim tarbiyaviy vazifani amalga oshirishi;

- o'quvchil ar qanday yangilikka erishdilar ;
- qanday bilimlar tizimlandi ;
- darsda qo'yilgan vazifalarning (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) bajarilishi ;
- o'qituvchi faoliyati (ta'limiy va tashkiliy ta'lim maqsadi, vazifalari) usullariga javob bera oladimi ?
- o'qituvchining qaysi xislatlari ijobiy;
- o'qituvchining sizga yoqmagan tomonlari ;
- darsni tashkil etishdagi takliflar ;
- darsning umumiy bahosi.

2.4. Davlat va huquq asoslari darslarida o'quvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etish.

Mustaqil ishni bajarishdan asosiy maqsad, o'qituvchilarning rahbarligi va nazorati ostida o'quvchilarni o'quv yili davomida fanlarni uzluksiz o'rganishni tashkil etish, olingan bilim va ko'nikmalarni chuqur o'rganib mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko'rish hamda yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va ularni qabul qilishni shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ishlar referat, slayd, vaziyatli masalalar, test, internet ma'lumotlari ko'rinishlarida bajariladi. Davlat ta'lim standarti talabiga binoan bilimlarni mustaqil ravishda izlanib o'rganish vazifasi hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biridir. Shu sababli fanlarning nazariy asoslarini amaliy ko'nikma darajasida o'zlashtirib bo'lishda mustaqil ta'limning roli beqiyosdir.

O'quvchilarga mustaqil ta'limni bajarish yuzasidan fan o'qituvchil ari tomonidan metodik tavsiyalar beriladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ta'lim turlari – rang-barang va turli elektron ko'rinishlari – fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqiladi. O'quvchilar sinf xonalarida o'qituvchil arning ma'ruzasini tinglaydilar. Sinf xonasidan tashqarida o'quvchi darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifasi sifatida berilgan topshiriqlarni bajaradi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

O'quvchilarda mustaqil ta'limning tashkil etish vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- 2) kerakli ma'lumotlarni izlab topish, o'rganishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- 3) axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- 4) o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- 5) elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- 6) internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- 7) berilgan topshiriqlarning ratsional yechimini belgilash;
- 8) ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- 9) topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- 10) o'quv xonalarida mustaqil holda ilmiy axborotlarni o'qib bilish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda o'quvchil arning aqliy rivojlanishiga zamin tayyorlab, bu jarayonda tanqidiy va ijodiy fikr yuritishni shakllantirish ustuvor yonalish sanaladi.

O'quvchilarning o'quv ijodiy tayyorgarlik tizimida mutaxassislik, ixtisoslik yoki umumkasbiy o'quv fanlaridan chuqur bilim va malakalarga ega bo'lishda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining shakllanganligi asosiy rol o'ynaydi.

Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalariga ularning o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, mustaqil amaliy topshiriqlarni bajarish va bajargan mustaqil topshiriqni mas'ul o'qituvchi va guruh o'quvchilari oldida himoya qila bilish kabi bilim va malakalar kiradi.

Nazorat savollari:

1. Umumlashtiruvchi dars deganda nimani tushunasiz?
2. Darsning psixologik asoslari nima?
3. Darsning didaktik asoslari haqida gapiring.
4. Davlat va huquq asoslari fanini darsining qanday xususiyatlarini bilasiz?

- 5.Dars kuzatuvchining majburiyatlari nimadan iborat?
- 6.Darsda qanday maqsadlar qo'yiladi?
- 7.Dars bosqichlari haqida gapiring.
- 8.O'qituvchiga qanday talablar qo'yiladi?
- 9.Zamonaviy darsga qanday talablar qo'yilgan?
10. Ochiq dars o'tkazishga qanday talablar qo'yilgan?

IV

MODULNI O‘QITISH UCHUN AMALIY MASHG‘ULOTLAR



1-AMALIY MASHG‘ULOT.

va ularning tahriri (2-savol amaliy mashg‘ulot)

Reja:

2.1. Umumta‘lim maktablarida davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari. Fanga oid xususiy kompetensiyalar.

2.2 Davlat va huquq asoslari fanidan yaratilgan o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ularning tahlili.

2.3. Davlat va huquq asoslari ta‘limiga oid sinflar kesimida yaratilgan o‘quv adabiyotlar va

fanga oid yangi nashr qilingan ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili.

Amaliy mashg'ulotdan maqsadi: tinglovchil arda Davlat va huquq asoslari fondan yangi tahrirdagi DTS, modernizatsiya qilingan o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari va ularning tahlili hamda ularni rejalashtirishga oid ko'nikmalarni rivojlantirish.

AMALIY MASHG'ULOTNING BORISHI

1-bosqich. Tinglovchilar odatdagidek o'z joylariga o'tiradilar. (Imkon bo'lsa, ishtirokchil arni yarim doira shaklida o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar amaliy mashg'ulotni olib boruvchi o'qituvchi guruhga birinchi bor kirayotgangan bo'lsa o'zini tanishtiradi va tinglovchil ar bilan tanishadi). Ma'ruzachi davomatni aniqlaydi hamda mavzuni yozib, e'lon qiladi. Mavzu va maqsad o'qib eshittiriladi. (5 minut)

Ishtirokchilarni yangi mavzuga olib kirish uchun quyidagi savollar beriladi. Mavzuga doir savollar yordamida tinglovchil arning mavzu yuzasidan bilimlari o'rganiladi.

1 Umumta'lim maktablarida davlat va huquq asoslari fanini o'qitishning maqsad va vazifalarini aytib bering va fanga oid xususiy kompetensiyalarni sanab o'ting...

2. Davlat va huquq asoslari ta'limiga oid sinflar kesimida yaratilgan o'quv adabiyotlar va fanga oid yangi nashr qilingan ilmiy-metodik adabiyotlari haqida nima deya olasiz?

2-bosqich: Davlat va huquq asoslari fondan yangi tahrirdagi DTS, modernizatsiya qilingan o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari hamda ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha qanday ma'lumotlarga ega ekanliklari so'raladi.

Ishtirokchilarning orasida Davlat va huquq asoslari fondan yangi tahrirdagi DTS, modernizatsiya qilingan o'quv dasturlari, darsliklarni takomillashtirish jarayonida ishtirok etganlari borligi so'raladi?

Agarda ishtirok etgan tinglovchi bo'lsa uning tajribasi, bo'lmasa optimallashtirish jarayoni va bosqichlari to'g'risida tinglovchil arning ehtiyojlari aniqlanadi.

3-bosqich: Mavzu bo'yicha kichik ma'ruza qilinadi. Ma'ruza jarayonida ma'ruzachi quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

1.1. Umumta'lim maktablarida davlat va huquq asoslari fanini o'qitishning maqsad va vazifalari. Fanga oid xususiy kompetensiyalar.

Davlat ta'lim standartining maqsadi — umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

O'quv-metodik majmua — darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

Darslik — davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Mashq daftari — darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilarning tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.

O'qituvchi uchun metodik qo'llanma — darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri.

O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo'yiladi:

Didaktik talablar:

o'quvchi tomonidan o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash;
matnlar axborot berishga emas, balki o'quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi;

qiziqarli, lo'nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo'lishi;

ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi;

rasmlar ko'rinishidagi illyustrasiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo'lishi;

yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, formulalar, ta'riflar va shu kabilar lug'at ko'rinishida ifodalangan bo'lishi lozim.

Ilmiy-metodik talablar:

fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;

o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi;

o'quv fani mavzulari o'zbek adabiy tili qoidalariga to'liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;

milliy g'oya va O'zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli illyustrasiyalar bilan boyitilishi;

savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo'lishi;

o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi;

bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda mavhumlikka yo'l qo'yilmasligi;

kasb-hunarga yo'naltirishga oid matnlar va rasmlar, izohli lug'at, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish yuzasidan topshiriqlarni qamrab olgan bo'lishi lozim.

Pedagogik-psixologik talablar:

keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, o'quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqeya va

hodisalarning mohiyatini anglashga va amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

o'quv fani mavzularining o'quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma'lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi lozim.

Estetik talablar:

imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo'lishi;

matnlar o'quvchiga ma'lum ijobiy hissiy ta'sirlarni o'tkazishi va o'quv faniga qiziqish uyg'otishi;

bo'lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibli ta'minlanishi;

rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

Gigiyenik talablar:

matn va illyustrasiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo'lishi.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda huquqiy manbalardan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish orqali huquqiy bilimlarini oshirishga, huquqiy savodxonlikni yuksaltirishga alohida e'tibor qaratiladi. O'quv fanini o'rganishda o'quvchilar huquq manbalaridan foydalana olish, o'z huquq va manfaatlarini qonuniy himoya qilish, huquqiy voqea va hodisalarga oid to'g'ri xulosa chiqarish, konstitutsiyaviy burch va majburiyatlarni bilishga hamda ularga rioya qilishga o'rgatishdan iborat.

Davlat va huquq asoslari va huquqshunoslik fanlarini o'qitishning maqsadi:

davlat va huquq asoslari fani o'quvchilarga huquqiy bilimlar berish orqali ularda huquqiy ong va huquqiy tafakkurni shakllantirish;

o'quvchilarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ularda tayanch va fanga oid kompetentsiyalarni shakllantirishdan iborat;

o'quvchilarda tayanch huquqshunoslik faniga oid umumiy kompetentsiyalarni shakllantirishdan iboratdir.

Davlat va huquq asoslari va huquqshunoslik fanlarini o'qitishning asosiy vazifalari:

O'quvchilarga konstitutsiyaviy burch, majburiyatlarni bilish va ularga rioya qilish ko'nikmasini hosil qilish;

O'quvchilarga o'z xatti-harakatlarini belgilangan me'yorlar doirasida tartibga solish va boshqara olishni tarbiyalashdan iborat.

Kundalik hayotda huquqiy voqea va hodisalarni idrok qilish orqali vujudga keladigan vaziyatlarni huquqiy jihatdan to'g'ri baholay olish va ma'qul qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiriladi.

Umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan boshqa fanlar kabi Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi ham quyidagi o'quv me'yoriy hujjatlarga tayanib darsga tayyorgarlik ko'rishi kerak:

1. Fanning DTS,
2. o'quv reja,
3. fanning o'quv dasturi,
4. o'qituvchining yillik taqvim-mavzuiy rejasi,
5. baholash tartibi,
6. kunlik dars rejasi,
7. dars ishlanmasi.

Fanning DTS o'quvchilarga umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi. DTS ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Umumiy o'rta ta'lim tizimida fanning DTS ta'lim

sub'yekti ehtiyojlariga mos holda tuzilganligi, o'quv dasturlarining mazmuni Respublikamiz taraqqiyoti fan texnika rivojlanishi bilan bog'liqligi, ta'lim jarayonining shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bo'yicha maqsad va vazifalarni to'la aks ettirishi bilan muhim ta'limiy ahamiyatga ega hamda o'quvchil arda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirishi bilan boshqa xorijiy davlatlar ta'lim standartlaridan farq qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida davlat va huquq asoslari va huquqshunoslik fanini o'rganish bosqichlari

Ta'lim bosqichlari	Bitiruvchilar	Standart darajasi	Daraja nomlanishi
Umumiy o'rta ta'lim	Umumta'lim maktablarining 8-sinf bitiruvchilari	A1	Davlat va huquq asoslari fanini o'rganishning boshlang'ich darajasi
	Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	A2	Davlat va huquq asoslari fanini o'rganishning tayanch darajasi
	Davlat va huquq asoslari fani chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	A2+	avlat va huquq asoslari fanini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
Umumiy o'rta ta'lim	Davlat va huquq asoslari fani chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari	B1	Huquqshunoslik fanini o'rganishning umumiy darajasi

1.3. Umumta'lim maktablari o'quvchil ariga Davlat va huquq asoslari fanidan talablar (A1, A2, A2+, B1).

Davlat va huquq asoslari faniga oid kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

A1

Konstitutsiya, davlat, huquq, burch, majburiyat, fuqaro, inson, qonun, axloq, odob kabi huquqiy tushunchalarning mazmunini bila oladi;

huquq va huquqqa zidlik haqida ma'lumot bera oladi;

axloq va huquq qoidalarini biladi;

bola huquqlari, voyaga yetmaganlik, mehnat huquqi, oila huquqi, fuqarolik huquqi kabi tushunchalarning mazmunini bila oladi.

A2

Jamiyat, davlat va huquqning paydo bo'lishi, huquqbuzarlik va ularning belgilari haqida ma'lumot bera oladi;

inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va burchlarini biladi;

hokimiyat va uning bo'linish printsiplari, belgilari, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat va uning asoslarini tushuntira oladi;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik, mehnat, ma'muriy va jinoyat qonunchil igida belgilangan voyaga yetmaganlarga oid huquqlarni va cheklovlarni biladi;

O'zbekiston Respublikasining protsessual qonunchil igida belgilangan voyaga yetmaganlarning huquqlarini biladi;

huquq sohalari haqida ma'lumotga ega bo'ladi;

huquqiy voqea va hodisalarni idrok qiladi, tushunadi, tushuntirib bera oladi;

kundalik faoliyatida vujudga keladigan turli vaziyatlarni huquqiy jihatdan to'g'ri baholab, maqbul qaror qabul qila oladi.

A2+

huquq manbalarini biladi;

voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asoslarini tushuntira oladi;

huquqiy voqea va hodisalarni idrok qiladi, tushunadi, tushuntirib beradi.

B1

jamiyat, davlat, huquq, huquq sohalari, normativ-huquqiy hujjatlar mohiyati va belgilarini tushuntira oladi;

xalqaro umume'tirof etilgan konvensiyalarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bera oladi;

davlat organlari va muassasalariga murojaat qilish tartibi va qoidalarini biladi;

tanlagan kasbining huquqiy asoslari haqida ma'lumot bera oladi;

o'z kasbiga oid normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlashni biladi.

2. Huquqiy madaniyatli bo'lish kompetensiyasi

A1

axloq va huquq qoidalariga amal qiladi;

fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquqlarini hurmat qiladi;

huquqiy ko'nikma hosil qiladi;

huquqiy masalalar yuzasidan qonunchil ikda belgilangan tartibda kichik maishiy bitimlarni tuza oladi.

A2

voyaga yetmaganlarga oid qonunchil ikda belgilangan me'yorlarga rioya etadi;

o'quvchilarning ongi va tafakkurida inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq, burch va majburiyatlariga rioya qilish refleksi shakllanadi (kundalik faoliyatiga aylanadi);

o'z xatti-harakatlarini huquq talablariga moslashtiradi;

qonunchilikda belgilangan tartibda o'z huquq va manfaatlarini himoya qila oladi;

korrupsiyaga qarshi toqatsizlikni namoyon eta oladi.

A2+

huquqiy qoidalarni bajaradi, huquqiy munosabatlarda ishtirok etadi;

huquqiy voqea va hodisalarga munosabat bildirishda huquqiy madaniyatini namoyon eta oladi.

B1

fuqarolik burchlari va majburiyatlarini anglaydi, ularga rioya qiladi;

huquq manbalaridan foydalana oladi;

o'z huquq va manfaatlarini qonuniy himoya qila oladi;

huquqiy voqea va hodisalarga oid to'g'ri xulosa chiqara oladi;

korrupsiyaning jamiyat hayotida salbiy oqibat ekanligi to'g'risidagi tushunchalarni biladi, unga qarshi kurashishga oid huquqiy normalar asosida korrupsiyaga qarshi kurashishni his qila olish ko'nikmasiga ega bo'ladi;

jamiyat va davlat hayotidagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etadi;

huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda to'g'ri qaror qabul qila oladi.

1.2 Davlat va huquq asoslari fanidan yaratilgan o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ularning tahlili.

Bugungi kunda yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hozirgi davrning ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadi albatta yoshlarning huquqiy ongi va bilimini qay darajada ekanligiga bog'liqdir. Mamlakatimiz aholisining 65 foizdan ortig'ni yoshlar tashkil etishini inobatga olsak ularning katta kuch va salohiyatga ega ekaniga guvoh bo'lamiz.

Siz uchun "Davlat va huquq asoslari fanidan (8-sinflar uchun o'quv uslubiy qo'llanma) qo'llanmasida yoshlarning huquqiy ongi va bilimini oshirishga alohida e'tibor qaratildi hamda Davlat va huquq asoslari fanidan dras beradigan fan o'qituvchilari va iqtidorli o'quvchi yoshlar

uchun mo'ljallangan bo'lib, 8-sinf darsligining har bir mavzusi yuzasidan mavzulashgan savollar va javoblar asosida tuzilganligi o'quvchilarni mavzuga oid bo'lgan savollarga javob topishlari orqali mavzuni mukammal o'zlashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, "Mijozlarning bank hisob varag'lariga masofaviy xizmatlar ko'rsatish" mavzusidagi qo'llanma ham Davlat va huquq asoslari fanlarini o'qitishda bank va bankda hisob kitob qilishning masofaviy shakllari haqida foydali maslahatlar bera oladi. Mazkur qo'llanma bugungi axborot va texnika asrida muhim ahamiyat kasb etadi.

R.J. Ruziyev, V.R. Topildiyev "Fuqarolik huquqi" umumiy qism bo'yicha tayyorlangan o'quv qo'llanmada fuqarolik huquqi tushunchasi, predmeti, tizimi va manbalari, fuqarolik huquqining sub'yektlari va ob'yektlari, fuqarolik huquqida bitimlar tushunchasi, vakillik va ishonchnoma, muddatlar va da'vo muddatlari, mulk huquqi tushunchasi, mulk huquqining mazmuni, mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo'lish asoslari, mulk huquqining asosiy tamoyillari, mulk shakllari, ashyoviy huquq tushunchasi va turlari, xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi, boshqalarning mol-mulkidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi, xususiy va ommaviy mulk huquqi, mulk huquqini himoya qilish, majburiyat huquqi tushunchasi, tizimni, vujudga kelishi, majburiyat sub'yektlari va ob'yektlari, majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullari, majburiyatlarni bekor bo'lishi, shartnoma tushunchasi shartnomalarining turlari va ulami tuzish, uni bekor qilish bilan bog'liq masalalar yoritib berilgan. O'quv qo'llanmadan yuridik oliy o'quv yurtlarining talabalari, aspirantlari, tadqiqotchilari va shu soha bilan qiziquvchilarni foydalanishlari mumkin.

Yuqorida keltirilgan o'quv va uslubiy qo'llanmalarga qo'shimcha ravishda R.A. Tuzmuhamedov va R.T. Xakimovlar tomonidan yaratilgan "Xalqaro huquq asoslari" o'quv qo'llanmasini keltirishimiz mumkin. Mazkur o'quv qo'llanmada xalqaro huquqga oid ba'zi asosiy institutlar va sohalarning qisqacha bayonidan iborat. Mualliflar kitobda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi o'tgan davrdagi xalqaro munosabatlar amaliyotini ham hisobga olishga xarakat qilganlar. O'quv qo'llanma zamonaviy xalqaro huquq masalalari bilan qiziqadiganlarga foyda keltirishdan holi emas.

1.3. Davlat va huquq asoslari ta'limiga oid sinflar kesimida yaratilgan o'quv adabiyotlar va fanga oid yangi nashr qilingan ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili.

Davlat va huquq nazariyasi darsligi davlat va huquq sohasidagi hozirgi zamon ilmiy konsepsiyalarini inobatga olgan xolda tayyorlandi. U davlat va huquqni talqin etishdagi an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda yangi muammolar hamda nuqtai nazarlarni ham qamrab olgan. Shuningdek, unda O'zbekistonda shakllanayotgan demokratik davlatchilik va huquqiy tizim xususiyatlariga oid nazariy xulosalar o'z ifodasini topgan. Davlat va huquqning mohiyati, mexanizmi, funksiyalari va islohotlar davridagi roli jonli tarzda bayon etilgan.

O'zbekcha-ruscha-inglizcha yuridik atamalar lug'ati oliy ta'lim muassasalari talabalar, kursantlar, professor-o'qituvchilarni uchun yuridik mavzulardagi adabiyotlarni o'qish, tushunish va tarjima qilish uchun zarur bo'lgan atamalarni o'z ichiga olgan.

Lug'at ilmiy xodimlar, tarjimonlar, o'qituvchilar, akademik litsey, oliy o'quv yurtlari talabalari, doktorant va mustaqil izlanuvchilar hamda ingliz tiliga qiziquvchi mustaqil o'rganuvchilarni va keng kitobxonlarni ommasi uchun mo'ljallangan.

U. Tadjinxanov, A.Saidov tomonidan yozilgan "Huquqiy madaniyat nazariyasi" 1-tom. Ushbu tomida darslikning umumiy qismida huquqiy madaniyat nazariyasi fanining predmeta, metodlari, asosiy tushunchalari va tuzilishi bayon etiladi. Shuningdek unda uzbek milliy davlatchiligi, huquqiy davlat va huquq asoslari fani doirasida tajribalari, huquqiy madaniyati rivojlanishining asosiy tamoyillari, O'zbekiston Konstitutsiyasining huquqiy madaniyat tayanchi ekanligi respublika tashqi siyosati madaniyati asoslari yoritib beriladi.

O.Karimova "Huquqshunoslik" akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik kitobidan ham umumta'lim maktablarida davlat va huquq asoslari fanlarini o'qitishda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu darslikdagi mavzularda berilgan ma'lumotlar o'quvchilarni uchun foydali va maktabda huquq fanidan olgan bilimlarini yanada chuqurlashtiradi.

Umumiy o'рта ta'lim muassasalarida Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda muhim omil bo'ladigan Ziyodulla Muqimovning "O'zbekiston davlati va huquqi", davlat va huquq asoslari fanini" Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darsligidir. Mazkur darslik qadimgi davrlardan eng yangi Davlat va huquq asoslari fanini davrigacha O'zbekistonda davlat va huquq Davlat va huquq asoslari fanini o'rganishga bag'ishlanib, unda o'quv kursining dasturiga muvofiq hozirgi O'zbekiston xududida davlat va huquqning vujudga kelishi, o'ziga xos xususiyatlari, qadimgi davrdagi huquq, huquqning yuridik va o'rganish manbalari, ularning asosiy belgilari, Movarounnahr fqih (huquq) maktabi, uning yirik vakillari meros qoldirgan asosiy asarlarning huquqiy mazmuni ochib berilgan. O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatgan davlatlarning tashkil topishning ijtimoiy-siyosiy tuzumining o'ziga xos xususiyatlari Davlat va huquq asoslari fani huquqiy jihatdan yoritib berilgan.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishning asosiy darsligi sinflar kesimida yaratilgan va yangi nashr qilingan 8-sinf "O'zbekiston davlati va huquqi asoslari", 9-sinf "Konstitutsiyaviy huquq asoslari" hamda 10 va 11-sinflar uchun "O'zbekiston davlati va huquqi asoslari" darsliklarining mazmun va mohiyati tayyorlangan taqdimot materiallari orqali ochib beriladi.

4-bosqich: Amaliy mashg'ulotni olib boruvchi o'qituvchi tomonidan ishtirokchilarga quyidagi savollar beriladi.

Davlat va huquq asoslari fandan yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standartini modernizatsiya qilingan o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari va ularning amaliyotga samarali joriy etishda o'qituvchining vazifalari nimalardan iborat?

O'z tajribasidan kelib chiqqan holda tinglovchilarning fikrlarini umumlashtiradi, ular tomonidan ilgari surilgan yangi g'oyalar bo'lsa alohida to'xtalib o'tadi.(5-minut).

5-bosqich: Tinglovchilarni guruhlariga ajratadi, har bir guruhga alohida mavzuga tegishli tushunchalarni taqsimlaydi, mazkur tushunchalarning mazmun va mohiyati hamda maktab ta'limida bu boradagi yutuq va muammolarni amaliy tajribadan kelib chiqqan holda yoritishni vazifa qilib topshradi.

1. Kompetensiya ...

2. Kompetentlilik ...

3. Umumta'lim maktablari o'quvchilari Davlat va huquq asoslari fanidan A1, A2, A2+, B1 darajalada qanday talablarga javob beradi?

Kichik guruhlar topshiriqni bajarib, navbat bilan taqdimot qiladilar. O'qituvchi guruhlarining taqdimotidan kelib chiqqan holda tajribalarni amaliyotga samarali joriy etish bo'yicha tegishli tavsiyalarni ishlab chiqadi (tavsiyalar doska, vatman qog'ozga yozilishi yoki kompyuter orqali ekranda aks ettirilishi maqsadga muvofiq).

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Umumta'lim maktablarida davlat va huquq asoslari fanini o'qitishning maqsad nima?
2. Umumta'lim maktablarida davlat va huquq asoslari fanini o'qitishning vazifalari nima?
3. Davlat va huquq asoslari faniga oid qanday xususiy kompetensiyalarini bilasiz?
4. Davlat va huquq asoslari fanidan yaratilgan o'quv va uslubiy qo'llanmalaridan fanni o'qitishda foydalanishning ahamiyati qandayligini aytib bering?
5. Davlat va huquq asoslari fanidan yaratilgan qanday o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratilganligini aytib bering?
6. Davlat va huquq asoslari ta'limiga oid sinflar kesimida yaratilgan qanday o'quv adabiyotlarini bilasiz?
7. Davlat va huquq asoslari ta'limiga oid yangi nashr qilingan ilmiy-metodik adabiyotlarning bir-biridan farqlab bering?

2-AMALIY MASHG'ULOT

AMALIY MASHG‘ULOT MAVZUSI: Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda ilg‘or pedagogik tajribalar va ularni amalda qo‘llash. Darslarda interfaol metodlardan foydalanish (2 soat amaliy mashg‘ulot).

Reja:

- 2.1. Fanni o‘qitish bo‘yicha ilg‘or pedagogik tajribalar va ularni dars mashg‘ulotlarida amalda qo‘llash.
- 2.2. Rivojlangan xorij davlatlarida tarbiya fanining o‘qitilish tajribalari.
- 2.3. Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish.
- 2.4. Mavzularga doir keys mashg‘ulotlarini ishlab chiqish.

Tayanch tushunchalar: *Tuyutor, edvayzer, rivojlangan davlatlarda huquqiy ta‘limi, Blended learning, finlandiya ta‘limi, jahon tajribasi, Xalqaro, Rivojlantiruvchi ta‘lim, Interfaol ta‘lim jarayoni, Aqliy hujum.*

Amaliy mashg‘ulotdan maqsad: tinglovchil arni Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda ilg‘or pedagogik tajribalar va ularni amaliyotga joriy etish hamda dars jarayonlarida interfaol usullarni qo‘llashga oid ko‘nikmalarni rivojlantirish.

AMALIY MASHG‘ULOTNING BORISHI

1-bosqich. O‘qituvchi darsni boshlanishida tinglovchil arni 1,2,3,4 va 5 raqamlarini sanash orqali guruhlarga bo‘ladi.

2-bosqich. Mavzusiga oid asosiy (*Petra konsepsiyasi, Tuyutor, edvayzer, fasiliator, moderator, AQSH, Fransiya, Germaniya va Yaponiya mamlakatlarining modellaridir, rivojlangan davlatlarda huquqiy ta‘limi, Blended learning, finlandiya ta‘limi, jahon tajribasi, Xalqaro, Rivojlantiruvchi ta‘lim, Interfaol ta‘lim jarayoni, Aqliy hujum*) kabi kalit so‘zlarni eslash hamda kichik guruhda muhokama qilish. Bunda hamma guruh eslagan tushunchalarini va g‘oyalarni qog‘ozlarga yozadi va guruh ichida muhokama qiladi.

3-bosqich.

(1-ish): Kichik guruhlarda mavzuni musmtahkamlash. Bunda o‘qituvchi mavzuni oldindan 4 kichik mavzuga ajratib chiqadi.

1-QISM

2.1. Fanni o‘qitish bo‘yicha ilg‘or pedagogik tajribalar va ularni dars mashg‘ulotlarida amalda qo‘llash.

“PETRA” konsepsiyasida poydevor kvalifikatsiyalar rivojlanish darajasining 4 pog‘onasi farqlanadi:

Reproduksiya pog‘onasi o‘quvchi yangi mazmunlarini o‘rganib oladi masalan taqlid qilish orqali va o‘rgangan narsasini amaliyot o‘qituvchisi boshchil igida bevosita qo‘llay oladi.

Reorganizatsiya pog‘onasida o‘quvchi asosiy ko‘nikma va bilimlarni o‘zlashtirib oldi. Shuningdek, muayyan topshiriqlarga nisbatan uzoqroq vaqt o‘tganidan keyin ham qo‘llay oladi.

Mavjud bilimlarni boshqa vaziyatda qo‘llash pog‘onasida o‘quvchi o‘rgangan bilimlarini kerak bo‘lsa biroz o‘zgartirib ishlatadi hamda ularni yangi vaziyatlarda qo‘llay oladi.

Muammoni hal qilish pog‘onasida o‘quvchi shunday topshiriqlarni bajaradiki, bu topshiriqlarda u eski va yangi bilimlarini bir biriga qo‘shib ishlatadi. Shuningdek u sabab va oqibat orasidagi o‘zaro aloqalarini aniqlay oladi sistematik ravishda rivojlantira oladi baholashni hamda tanlashni biladi yangi va ijodiy yechimlarni topa oladi. Bu 4 pog‘ona poydevor kvalifikatsiyalarni rejalashtirish paytidayoq inobatga olinadi. Amaliyot o‘qituvchisi o‘zining «Nazorat varag‘i»ga shunday indikatorlarini kiritadi.

Bugun biz ta‘lim sohasida moderator, trener, tyutor, fasiliator, mentor, kouch, konsultant, lektor, ekspert, innovator, kommunikator, o‘qituvchi, menejer, spekter, assistant, kotib, texnolog, metodist va kordinatorlar vazifalariga ko‘ra quyidagicha nomlanadilar:

TYUTOR - (Tutorem-lotincha) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Baʼzi hollarda maʼruza oʻqituvchisi bilan talaba orasidagi bogʻlovchi rolini ham bajaradi. Bunda maʼruzachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

EDVAYZER (advisor)-fransuzcha “avisen” - “oʻylamoq”) talabalarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyixalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

FASILITATOR - (ingliz tilida “fasilitator” lotincha facilis–engil, qulay)-guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yoʻnaltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

MODERATOR - qabul qilingan qoidalarga amal qilish tekshiradi, talabalarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faolyatini faollashtirishga yordam beradi. Maʼlumotni, seminar, trening va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi. Bizning taʼlimda ushbu faoliyatlarning hammasini oʻqituvchi bajaradi va pedagog yoki oʻqituvchi deb yuritiladi.

TRENER- oʻquvchil arning koʻnikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar oʻtkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan oʻtgan mutaxassis.

MENTOR - ustoz, oʻrgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).

KONSULTANT - maslahat berish, tushuntirish, qoʻshimcha maʼlumot berish.

LEKTOR - nazariy maʼlumotlar bilan tanishtiruvchi.

EKSPERT - kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.

INNOVATOR - yangiliklarni taʼlim mazmuni va mashgʻulotlar jarayoniga joriy qilish.

KOMMUNIKATOR - oʻzaro muloqotlarning sifati va samaradorligini oshirish, takomillashtirish.

OʻQITUVCHI- mashgʻulot mavzusi boʻyicha koʻzda tutilgan mazmunni tushuntirish, oʻquv jarayoniga rahbarlik.

MENEJER - tashkiliy-pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etish.

SPEKTER - kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.

ASSISTENT - mashgʻulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qoʻllashga tayyorlash, mashgʻulot ishtirokchil ariga yordam koʻrsatib turish.

KOTIB - zarur maʼlumotlarni yozib borish, tegshli xujjatlarni rasmiylashtirish, oʻrnatilgan tartibda saqlash.

TEXNOLOG - pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni taʼminlash bilan bogʻliq masalalarni hal etib boradi.

METHODIST - taʼlim-tarbiya metodlari boʻyicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.

KORDINATOR - loyihalar, dasturlarni ishlab chiqishga rahbarlik, ularni amalga oshirishni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etish.

OʻQUVCHIL AR - taʼlim oluvchilar.

Blended learning (aralash oʻqitish)

Oʻquvchi oʻzining aniq sharoitlari va imkoniyatlariga eng koʻp mos keladigan oʻquv jarayonini ongli ravishda tanlab olishi foydadan xoli emas. Bu ish darsning muhim tomonlarini tanlashdagi tavakkalchil ikka bilim koʻnikma va malakalarni oʻzlashtirish jarayonini boshqarishga qandaydir tasodifiy yondashishga yoʻl qoʻymaydi. Oʻquv amaliyoti va pedagogik tafakkurni takomillashtirish yoʻllarini izlaydi. Bu sohada turli xil koʻrik-tanlovlar, respublika miqyosida oʻtkazilayotgan pedagogik ishlarda ilgʻor oʻqituvchil arning fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir. Turli-tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim.

1. Har bir dars maʼlum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan boʻlmogʻi lozim.

2. Har bir dars mustahkam gʻoyaviy-siyosiy yoʻnalishga ega boʻlmogʻi lozim.

3. Har bir dars turmush bilan amaliyot bilan bogʻlangan boʻlmogʻi lozim.

4. Har bir dars xilma-xil usul uslub va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmog'i lozim.

5. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab undan unumli foydalanmoq lozim.

6. Har bir dars o'qituvchi va o'qituvchil arning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim.

7. Darsda o'quv materialarining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

8. Dars mashg'ulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi o'quvchining individual xususiyatlari ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.

9. Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan foydalanmoq imkoniyatini izlamog'i lozim.

Oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimini isloh qilishning jahonda tan olingan, tajribada isbotlangan 4 ta modeli mavjud.

Bular AQSH, Fransiya, Germaniya va Yaponiya mamlakatlarining modellaridir. Ular, garchi, umumiy qoida va yo'nalishlar bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lsada, lekin mavjud mamlakatlarning hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy holati, milliy xususiyatlari hamda fuqarolarning yashash sharoitidan kelib chiqib, farq qiladi. AQSH fuqarolari Konstitutsiyani, Amerika davlatchil igining asoslari va demokratik tamoyillarni muqaddas deb biladilar va bu tuyg'uni yoshlar ongiga singdirish haqida tinimsiz qayg'uradilar.

Yoshlarda erkin yashashga ishtiyoq, mustaqillikni qadrlash tuyg'usi shakllantiriladi. Har bir amerikalik bolaligidanoq kimgadir va nimagadir orqa qilishga emas, balki o'z kuchiga tayanishga o'rgatiladi. Har bir amerikalikda kelajakka ishonch uyg'otiladi. Bunday tarbiya natijasida faqat o'z kuchiga ishonish, ruhiy ozodlik va mustaqil fikrlash kabi xislatlar amerikaliklarning qon-qoniga singib ketgan.

Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimi: Amerikada o'rta ta'lim 12 yil bo'lib boshlang'ich o'rta va quyi maktablarga bo'linadi. Aksariyat qismi davlat maktablaridan iborat va ularda o'quvchil arning 88 foizi o'qiydi. Qo'shma shtatlarda yalpi ichki mahsulotning 7.5 foizi har yili ta'limga sarflanadi, 12 foiz o'quvchil ar xususiy maktablarga boradi.

2-QISM

2.2. Rivojlangan xorij davlatlarida davlat va huquq asoslari fanini o'qitish tajribalari.

Xozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi.

Yaponiya ta'limida "iqtidorli o'quvchi" tushunchasi yo'q. Chunki, har bir o'quvchi alohida iqtidor sohibidir.

Yaponiya ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari mavjud.

Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni o'z xulqining yomon jihatlarini, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o'rgatishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga tasir etadi.

Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori bo'lgan yagona davlat.

Majburiy ta'lim muhiti. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. Muhtoj oilalarning bolalariga moddiy yordam ko'rsatiladi.

Yuqori o'rta maktab 10-11-12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlari mavjud.

Yuqori bosqich o'rta maktablarda butun o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus sinovlarga jalb etiladi. Universitetlariga yuqori va o'rta maktabning yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o'quvchilari qabul qilinadi. Universitetlarga qabul qilinish 2

bosqichga bo‘linadi: 1-bosqich turar joyda o‘tkaziladi, buning uchun yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, huquq fanini bo‘yicha test sinovlaridan o‘tkaziladi.

Yaponiyada oliy ta‘lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta‘limi bilan uzviy bog‘liqdir. Yaponiyada bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas‘uliyati ayniqsa kattadir. Ular farzandlarining aqlli, dono va mehnatsevar bo‘lib o‘sislari uchun oila sulolasi va davlat oldida o‘zlarini ma‘sul deb hisoblaydi.

Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko‘plab metodik qo‘llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televideniya orqali ko‘plab pedagogik maslahatlar berib boriladi.

Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo‘lib, parta ustida kitob javoni, yoritkich, soat, qalam, qog‘oz, mikrokalkulyator va boshqa zaruruy ashyolar, shuningdek kerak bo‘lib qolgan taqdirda otanalarini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o‘rnatilgan.

Yaponiya o‘rta maktablarining saviyasi AQSH o‘rta maktablari saviyasidan bir muncha yuqori turadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki yaponiyada ta‘lim tizimi ham shaklan ham mazmunan yuksak uyg‘unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o‘rgansa arziydigan jihatlari ko‘p. E‘tiborli yana bir tomoni – Yaponiyada faqat milliy an‘analar bilan cheklanib qolmay jahondagi AQSH, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg‘or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o‘zlashtirilgan.

Bunday tajribalar Respublikamiz ta‘lim tizimini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarishda qo‘l kelishi shubhasiz.

Qiziq tomoni shundaki, yapon ta‘lim muassasalarida nafaqat ta‘limga, balki tarbiyaga ham alohida e‘tibor qaratiladi, ularda atrofdagilarning eng yaxshisi va eng yomoni tushunchasi mavjud emas.

Yaponiya – kun chiqar mamlakat aholisi farzandlarining tarbiyasiga o‘ta jiddiy qarashadi. Bu yerda har bir yoshga nisbatan ma‘lum bir munosabatda bo‘linadi va ayrim tarbiya usullari qo‘llaniladi. Mashhur yapon ruhshunosi Masara Ibukining fikriga ko‘ra, bolaga asosiy tarbiyani 3 yoshgacha berish lozim. Aynan 3 yoshga qadar farzandingizdagi yashirin iqtidorni yuzaga chiqarish mumkin.

Yaponiyaliklar 5 yoshgacha bo‘lgan kichkintoyga qiroldak muomala qilishadi. Ular istaganlaricha o‘ynashlari, miyasiga kelgan ishni qilishlari mumkin. Hattoki bolalar bog‘chalarida bolakaylar flomaster bilan devorga to‘ygunlaricha chizishlari uchun maxsus xonalar mavjud.

5 yoshdan 15 yoshga qadar kichik yaponiyaliklarni tartib-intizomga va kattalar gapini ikki qilmaslikka o‘rgatishadi. Tarbiyaga bunday yondashuv asrdan-asrga o‘tib kelayotgani va Yaponiya jamiyatining ajralmas bo‘lagi bo‘lganligi bois bolalar buni me‘yordagi holat sifatida qabul qilishadi.

Maktabning o‘quv dasturiga esa, albatta, kuzatuv darslari kiritilgan. Unda o‘quvchilar tabiat qo‘yniga chiqib, tirik tabiatni kuzatish, his etish, eshitish, asrashni o‘rganishadi. Bu o‘z navbatida fuqarolarni yoshligidanoq Yaponiya tabiatini asrab-avaylashga o‘rgatadi.

15 yoshdan so‘ng esa o‘smirlarga teng huquqli fuqaro sifatida qaraladi.

Aytish joizki, Yaponiya bugungi kunda yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilikning kamligi va insonlarning hayot farovonligining yuqoriligi bilan dunyoda yetakchidir. Albatta, bunda tarbiyaning roli juda ham kattadir.

Yaponiya ta‘limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o‘z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g‘arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo‘ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta‘lim tizimini tubdan o‘zgartirish kerakligini angladi.

Boshlang‘ich maktab ta‘limning ilk 6 yilini qamrab oladi va uning asosiy qismi hisoblanadi. Yaponiyada maktabga 6 yoshdan boriladi. Yaponiyada boshlang‘ich ta‘lim majburiy va bepul bo‘lib, mashg‘ulotlar aprel oyida boshlanadi. O‘quv yili 3ta chorak-trimestrga bo‘linadi. 1-chorak-6 apreldan-20 iyulgacha davom etadi, keyin yozgi ta‘til boshlanadi. 1-

sentyabrdan 2-simestr boshlanadi va 26 dekabrgacha davom etadi. 26-dekabrdan 7-yanvargacha qishli ta'vil bo'ladi. Oxirgi 3-simestr 7-yanvardan 25-martgacha davom etadi. 25-martdan 6-aprelgacha bahorgi ta'vil bo'ladi. Shu paytda ta'lim oluvchilar sinfdan sinfga ko'chadi.

Yaponiya oliy ta'lim muassasalariga katta o'rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni tugatgan o'quvchil ar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet bo'lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipal, 331 tasi xususiy, Itoifadagi universitetlarda har bir o'qituvchiga 8 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to'g'ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi: buning uchun yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, Davlat va huquq asoslari fanini bo'yicha test sinovlaridan o'tadilar.

Xitoy Xalq Respublikasi ta'lim tizimi ham tajriba o'rganishga loyiq o'ziga xos jihatlariga ega. Xitoy kadimdan sharqdagi yirik davlatlardan biri bo'lgan. So'nggi yillarda Xitoy iqtisodiyot, bank sohalarida, sport va ilm-fanda yetakchil ik qilmoqda. Bularning barchasi fuqarolarning tinimsiz o'z ustida ishlashi va o'zining jismoniy, intellektual hamda ilmiy salohiyatini namoyish etishga intilish mevasidir.

Maktablar xususiy va davlat ta'lim dargohiga ajratilgan. Xususiy maktablarda tahsil olish oyiga minglab dollarga aylanishi mumkin. Asosiy e'tibor chet tillarini o'rganishga qaratiladi. Shu sababli yuqori toifali maktab o'quvchil ari beshinchi sinfidayoq ingliz tilida erkin so'zlasha oladi. Shuningdek, Shanxayda maxsus davlat dasturi asosida chet ellik o'qituvchil ar oddiy davlat maktablarida dars berishadi.

O'qishni istamaydigan kambag'al oila farzandlarini ko'pincha umumta'lim maktablaridan olib ketishadi va kung-fu maktablariga yuborishadi. Ular u yerda ertalabdan kechgacha mashq qilishadi. Agarda omad kulib boqsa, boshlang'ich ta'limni ham o'rganishadi: ular judaqiyin bo'lgan xitoy tilida yoza olishi, o'qishi kerak bo'ladi. Bunday ta'lim maskanlarida ustozlar shogirdlarni ayamay kaltaklashadi. Biroq evaziga ota-onalar tartibli va kung-fu murabbiyi darajasiga yetgan farzandni qarshi olishadi. Qayerda tahsil olishdan qat'i nazar, ular uchta asosiy sifatni o'zlashtirishga harakat qilishadi: mehnat qila olish, tartibga rioya qilishi va yoshi katta insonlarga hurmatda bo'lish

Xitoylik bolalar qayerda o'qishlaridan qat'i nazar - kung-fu maktabida yoki muntazam ravishda, ular bolaligidan uchta asosiy fazilatni: mehnat qobiliyati, intizom va kattalarga hurmatni o'rganadilar.

Bugungi kunda ilm-fan, madaniyat va san'at sohasidagi yetakchi mavqe xitoyliklarga tobora tushmoqda. O'rta Qirollik aholisi issiqxona sharoitida etishtirilgan evropaliklar uchun hech qanday imkoniyat qoldirmaydi. Buning sababi, Xitoyda ta'lim kuniga o'n soat o'qishdir. Har kuni va butun yil.

Xitoyda bilimlarni olish tuzilishi ko'pgina Yevropa mamlakatlaridan farq qilmaydi. U quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Maktabgacha (3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar).

Boshlang'ich maktab va to'liqsiz o'rta maktab (6 + 3, 5 + 4 yoki 9 yoshli tizimlar).

O'rta maktab (uch yillik ta'lim).

O'rta maxsus ma'lumot (o'rta maktabdan 2 yil yoki to'liqsiz o'rta ma'lumotdan 4 yil).

Xitoy maktabgacha ta'limidan asosiy farq bolaning shaxsiyatini rivojlantirish istagi yo'qligidir. Aksincha, o'qituvchil ar kichkina odamni o'ziga xos deb o'ylashiga yo'l qo'ymaslik uchun hamma narsani qiladilar.

O'qituvchilar, hatto o'yinlar paytida ham bolalarning xatti-harakatlarini to'liq nazorat qiladilar. Hamma narsa qat'iy tartib-intizomga bo'ysunadi. Ushbu amaliyotni boshqa davlatlar tanqid qilishiga qaramay, xitoyliklar uning samaradorligiga ishonishadi, chunki ular davlat bolalar uchun zarur bo'lgan narsalarga ishonishadi.

Xitoyda maktab tizimi uch bosqichdan iborat:

boshlang'ich;

o'rta;

katta.

Boshlang'ich sinflarda bola 6 yil, o'rta va katta sinflarda - 3 yil yashaydi. Dastlabki ikki bosqich majburiy va bepul, siz oxirgi bosqichda mashg'ulot uchun pul to'lashingiz kerak.

Ushbu mashg'ulot talab qilinadi. U davlat tomonidan to'lanadi. Boshlang'ich maktabda 6 yil, o'rta maktabda - 3 yil o'qish kerak. Dastur xitoy tilini (chuqur), matematikani, Davlat va huquq asoslari fanini ni, tabiiy Davlat va huquq asoslari fanini ni, geografiyani va musiqani o'rganishni o'z ichiga oladi. O'zgaruvchan qism axloq, axloq va huquqiy qismdir. Baholash testlar shaklida, 100 ballik tizim bo'yicha o'tkaziladi.

Bolalar haftasiga bir necha soatlab mini-korxonalarda yoki fermalarda ishlaganda majburiy hisoblanadi.

Intizom juda qattiq, maktab eshiklari faqat bolalarni ichkariga va tashqariga chiqarishga imkon beradi. Har bir maktabda o'quvchil ar uchun umumiy maktab formasi mavjud. Ba'zida axloqiy va axloqiy mavzularda qo'shimcha ma'ruzalar o'tkaziladi.

XXR oliy ta'lim tizimi universitetlar, kollejlilar va professional oliy maktablardan tashkil topgan. Mazkur o'quv yurtlari fan, texnika va madaniyatni rivojlantirish hamda jahon ta'lim tizimida raqobatbardosh ilmiy markazlarga aylanishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'rganlar. Asosiy e'tibor siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sohalarga qaratilgan bo'lib, shular bilan birga moliya, mashinasozlik, elektronika, kompyuter texnologiyalari kabi sohalar rivoji uchun ahamiyatli bo'lgan kadrlar tayyorlashga kuchli e'tibor beriladi.

Xitoy oliygohlari politexnik va biron ma'lum texnik yo'nalishga egaligi bilan ajralib turadi. Politexnik yo'nalishdagi universitetlar tabiiy va texnik soha vakillarini tayyorlab bersalar, ma'lum yo'nalishdagi texnik universitetlar aniq biron texnik kasb vakillarini o'qitadilar. Bu yerda 2 mingdan ortiq kollejlilar, universitetlar va professional oliy maktablar mavjud bo'lib, 9 mln.dan ortiq talabalar tahsil oladilar. Ulardan 5,5 mln. bakalavriat ta'lim tizimi talabalari hisoblanadilar. 450 mingdan ortiq magistrant va doktorantlar mavjud. Bundan tashqari universitetlar tarkibida 100 ta ilmiy tadqiqot laboratoriyalari va 36 ta davlat muhandislik markazlari ham mavjud.

Xitoy oliygohlariga xorijiy talabalar 1950 yillardan boshlab qabul qilina boshlangan. Hozirda mamlakatning 31 provintsiyasidagi 360 ta oliygoh xorijiy talabalar qabul qilish xuquqiga ega. Ushbu o'quv maskanlarida 175 davlatdan 78 mingdan ortiq xorijiy davlat talabalari tahsil oladilar. Pekin (4 ming) va Fudan (3 ming) universitetlarida eng ko'p xorijlik talabalar tahsil oladilar. Ularning 80%ni turli Osiyo davlatlari vakillari tashkil qiladilar.

Finlyandiya ta'lim tizimi

Bugun dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi o'qish tizimi murakkab imtihonlarga to'la ekanligi va o'quvchil arning ham xuddi shu imtihonda yuqoriroq natijalar qayd etishga bo'lgan intilishlari bilan xarakterlanadi. Bunday vaziyatda o'quvchilar ko'pincha shunchaki imtihon topshirishni o'rganadilar va o'qituvchil ar faqat o'quvchilarni imtihon topshirish uchun o'qitadilar. O'z kelajagi uchun yangi narsalarni o'rganish esa tabiiy ravishda mazkur tenglamadan chiqarib tashlanadi.

Finlyandiyada bo'lsa standart sinovlar yo'q. Ularning yagona istisnosi bu Milliy Matritulyasiya Imtihoni deb nomlanadigan narsa, bu o'rta maktabni tugatgan o'quvchil ar uchun ixtiyoriy imtihondir. Finlyandiya bo'ylab barcha bolalar o'qituvchi tomonidan individual baholovchi tizim asosida baholanadi.

Finlandiyada o'qituvchil ik kasbi juda talabgir kasb hisoblanib, ularning ijtimoiy mavqesi juda baland hisoblanadi. Bunga sabab ishga kirishdagi shaffof va murakkab tizimning mavjudligi, muallimning malakasi hamda bilim darajasi chuqur sinovdan o'tkazilishidadir.

Jumladan, ishga kirishdan oldin barcha o'qituvchil ar magistr darajasiga ega bo'lishlari shart. Agar darslar davomida o'qituvchi yaxshi natijalar qayd qilolmasa, bu masala bilan maktab direktorining o'zi shug'ullanadi.

Shuningdek, bir vaqtlar shogirdlar tayyorlashda ustuvor bo'lgan o'quvchi-o'qituvchi dinamikasi konsepsiyasini bir nechta byurokratik tekshiruvlar va standartlashtirilgan test choralari bilangina muvofiqlashtirib bo'lmaydi. Buni individual ravishda hal qilish kerak.

Aksariyat amerikaliklar va boshqa mamlakatlar ta'lim tizimini bitta yirik Darviniya musobaqasi sifatida ko'rishadi, Finlar esa bunga boshqacha qarashadi. Sahlberg Samuli Paronen ismli yozuvchi bu borada shunday degan edi:

«Ajablanarlisi shundaki, doimiy raqobat muhitida tashkillashtirilgan tizimlardan ko'ra, fin ta'lim tizimi ko'proq muvofaqiyat keltirmoqda. Mazkur tizimda eng yaxshi ishlaydigan maktablar yoki o'qituvchil ar ro'yxati bo'lmaydi. Bu yerda raqobat muhiti mavjud emas – uning o'rniga hamkorlikka urg'u beriladi».

Ko'pgina maktab tizimlari test natijalarini oshirish va matematika va tabiiy fanlardan bilimlarni oshirishga e'tibor qaratadilar. Ular uchun o'quvchining yakuniy imtixonlarda qayd etadigan natijalari muhimroq. Ko'p yillar oldin fin maktablari ham shunday edi. Undan keyin jiddiy isohotlar davri boshlandi. Finlandiyada a'lo baholarga ega bo'lish katta ahamiyat kasb etmaydi. Buning o'rniga ular maktab muhitini yanada adolatli tashkil qilishga harakat qilishdi.

XX asrning 80-yillaridan beri Finlyandiya o'qituvchil ari ushbu asoslarni ustuvor ahamiyat qartib kelmoqdalar:

- Ta'lim ijtimoiy tengsizlikni muvozanatlash vositasi bo'lishi kerak.
- Barcha o'quvchil ar maktabda bepul ovqatlanishadi.
- Sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish qulay bo'mog'i darkor.
- Maktabda o'ziga xos psixologik maslahatlar berib boriladi.

- Kollektiv tenglik muhitini shaxs bilan boshlash Finlyandiya ta'lim tizimi tomonidan tanlangan yo'ldir.

Finlandiyada o'quvchil ar yetti yoshdan maktabga bora boshlashadi. Majburiy ta'lim 9 yil davom etadi, undan keyin o'qishni davom ettirish yo ettirmaslikni bolaning o'zi tanlaydi.

Bu narsa bolalarga o'zini muayyan fikrlar qafasiga solmasdan, hayotga tayyorlashni osonlashtiradi. Finlandiyada qarorni o'quvchining o'ziga qo'yib berishadi, bu esa har tomonlama samarali usul hisoblanadi.

Finlyandiyada maktab bitiruvchil ariga o'z hayotlarini davom ettirish uchun kollejl ar bilan birga bir xil foydali bo'lgan boshqa imkoniyatlar taklif qilinadi.

Kasb hunar kollejlari va kurslari xuddi shu jumladandir. Bu fin o'quvchil ariga o'z iqtidorini istaganicha yo'naltirish imkoniyatini beradi.

Finlyandiyada uch yillik o'quv dasturi bo'lgan Yuqori O'rta Maktab mavjud bo'lib, u o'quvchil arni universitetga kirishini belgilaydigan Matritasiya Testiga tayyorlaydi. Odatda bu yerda o'qitiladigan narsalar o'quvchil arning «o'rta maktab» da o'qigan vaqtlarida olgan mutaxassisliklariga asoslanadi.

Mamlakatda yana kasb-hunar ta'limi ham mavjud bo'lib, bu uch yillik dastur bo'lib, o'quvchil arni turli sohalar bo'yicha o'qitadi. Agar ular universitetga hujjat topshirishni istasalar, Matritasiya testidan o'tishlari ham mumkin.

Finlyandiyada darslar soat 9:00 – 9:45dan boshlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, darslarning juda vaqtli qo'yilishi o'quvchil arning farovonligi, salomatligi va yetukligiga zarar yetkazadi. Fin maktablari kun chiqqandan keyin boshlanadi va odatda soat kunduzgi 2:00 dan 2:45 gacha tugaydi. Darslar orasida ko'proq tanaffuslar qo'yilgan. Umumiy tizim ularga o'quvchil ariga faqat ma'lumotlar taqdim etish emas, balki yaxlit ta'lim olish uchun ham munosib muhit yaratishga xizmat qiladi.

Fin maktablarida o'qituvchilar juda ko'p emas. Jumladan, ta'limning dastlabgi 6 yilida sinflarga faqat bitta o'qituvchi dars beradi. Bu vaqt davomida o'qituvchi murabbiy yoki hatto oila a'zosi rolini o'z zimmasiga olishi mumkin. O'sha yillarda o'zaro ishonch va rishtalar shu tarzda qurilganki, ikkala tomon ham bir-birini taniydilar va hurmat qiladi.

Finlyandiya o'z maktablari bilan qanday ish olib borishi haqida umumiy tendensiya mavjud. Kamroq stress, kamroq keraksiz regimentasiya va ko'proq g'amxo'rlik. Odatda o'quvchil ar kuniga atigi bir necha darsga qatnashishadi, xolos. Ular bir necha marta ovqatlanishlari, dam olishlari mumkin. Kun davomida darslar oralig'ida 15-20 daqiqali intervallar bo'lib, bunda bolalar biroz dam olishlari, toza havoda sayr qilishlari mumkin.

Bunday muhit o'qituvchilarga ham kerak. Finlyandiya maktablarida o'qituvchilarning xonalari bo'lib, ularda dam olish, darsga tayyorgarlik ko'rish yoki shunchaki suhbatlashib o'tirish mumkin. Chunki, o'qituvchi ham odam, unga ortiqcha ruhiy-jismoniy bosim o'tkazib bo'lmaydi. Finlandiyada o'qituvchilarning faoliyatini samarali tashkil qilish uchun ularning zimmasidagi keraksiz topshiriqlarni kamaytirishga urg'u beradilar.

OECD tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, Finlyandiya o'quvchilarning dunyodagi boshqa o'quvchilarga qaraganda eng kam mustaqil ish va uy vazifalarini bajaradilar. Ular har kuni uyda atigi yarim soat davomida maktabdagi narsalar ustida ishlashadi. Finlandiyada o'quvchilarning darsdan qo'shimcha o'qitadigan repetitorlar ham yo'q.

Fin o'quvchilari maktabda bajarilishi uchun zarur bo'lgan hamma narsani, biron bir mavzuning zavqini keltiradigan qo'shimcha bosim o'tkazmasdan olishmoqda. Baholar va bandlik haqida tashvishlanmasdan ular eng muhim masalaga o'rganish va mutaxassislar malakasini oshirishga e'tibor qaratmoqdalar. Bu esa mazkur ta'lim tizimining butun dunyodagi eng yaxshi tizim deya tan olinishiga sababchi bo'ldi.

Finlyandiyalik maktab o'quvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishadi. Ular dunyodagi eng ko'p kitob o'quvchi bolalar hamdir. Bundan tashqari, finlyandiyalik maktab o'quvchilari ari tabiiy fanlar bo'yicha - dunyoda ikkinchi, matematika bo'yicha esa beshinchi o'rinni egallashadi. Biroq pedagogik jamiyatni quvontiradigani birgina bu natijalar emas. Shuni ajablanarliki, dunyo miqyosida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishlariga qaramay, finlyandiyalik maktab o'quvchilari darslarga u qadar ko'p vaqt ajratishmaydi.

Finlyandiya o'rtacha majburiy umumta'lim tizimi ikki bosqichli maktabni o'z ichiga oladi:

- quyi (alakoulu), 1-6 sinf;
- yuqori (yläkoulu), 7-9 sinf.

Qo'shimcha 10-sinfda o'quvchilarning o'z baholarini yaxshilashlari mumkin. So'ngra bolalar yo professional kollejga yo'l olishadi, yoki litsey (lukio)da o'qishni davom ettirishadi.

Finlyandiya ta'limi "o'rta" bosqichining 7 tamoyili:

1. Tenglik.

Maktablar:

Mamlakatda na elita va na "bo'shroq" maktablar bor. Finlyandiya o'quvchilari dunyodagi eng yirik maktabda 960 nafar o'quvchi ta'lim oladi. Eng kichigida esa - 11 nafar. Barcha maktablar mutlaqo bir xil jihozlangan, birdek imkoniyatlarga ega va bir xil moliyalashtirilgan. Deyarli barcha maktablar - davlat maktablari bo'lib, o'nlab xususiy maktablar bor. Ularning ota-onalar qisman to'lov kiritishlaridan tashqari yana bir farqi - o'quvchilarga bo'lgan talabning yuqoriligida. Qoidaga ko'ra, bu o'ziga xos "pedagogik" laboratoriyalar: Montessori, Fren, Mortan va Valdorf maktablari. Ingliz, nemis va fransuz tillarida ta'lim beriluvchi o'quv muassasalari ham xususiy hisoblanadi.

Finlyandiya tenglik tamoyiliga rioya qilgan holda shved tilidagi parallel ta'lim tizimi mavjud - bog'chalardan tortib to universitetlargacha. Barcha fanlar: Bir fanning boshqalaridan chuqurroq o'rgatilishi maqsadga muvofiq emas. U yerda, masalan, matematika san'atdan muhimroq hisoblanmaydi.

Aksincha, qobiliyatli bolalar uchun alohida sinflar tashkil qilinishiga yagona sabab ularning tasviriy san'at, musiqa va sportga moyilligi bo'lishi mumkin.

Finlandiyada bolalarga 1-sinfdan ularning huquqlari tushuntiriladi, ijtimoiy xizmatchiga katta yoshlilar ustidan shikoyat qilish ham shular jumlasidandir. Bu finlyandiyalik ota-onalarni ularning farzandi - mustaqil shaxs ekanini, ularga so'z bilan ham, "qamchi" bilan ham ozor yetkazib bo'lmashligini tushunishga rag'batlantiradi. Finlyandiya mehnat qonunchiligiga ko'ra, pedagog o'z kasbidan kelib chiqib o'quvchini taxqirlashga haqqi yo'q. Barcha o'qituvchilarning faqat 1 yilga shartnoma imzolashadi, bu muddatni uzaytirish ham, to'xtatish ham mumkin. O'qituvchilarga juda yaxshi maosh to'lanadi: fan o'qituvchisi - 5000 yevrogacha, yordamchi - 2500 yevrogacha.

2. Bepul.

O'qishning o'zidan tashqari quyidagilar bepul:

– tushlik;

– ekskursiyalar, muzeylar va sinfdan tashqari har qanday faoliyat;

– bolani uyidan olib ketuvchi va qaytaruvchi transport, agar eng yaqin maktab 2 kilometrdan uzoqda bo'lsa;

– o'quv darsliklari, barcha o'quv qurollari, kalkulyatorlar va hatto planshet-noutbuklar.

Har qanday maqsadlar uchun ota-onalardan pul yig'ish taqiqlanadi.

3. Individuallik.

Har bir bola uchun individual ta'lim va rivojlanish rejasi tuziladi. Individuallik o'quvchilar tomonidan foydalanilayotgan darsliklar mazmuni, mashg'ulotlar, sinf va uy ishlari soni hamda ularga ajratilayotgan vaqt, shuningdek ta'lim materialiga ham tegishli.

Bir sinfning o'zida darsda bolalar turli murakkablikdagi mashqlarni bajarishadi. Baholash tizimi ham personal darajaga muvofiq. Agar "odatiy" mashq a'lo bahoga bajarilsa, ertasiga yuqoriroq darajali mashq beriladi, mobodo uddasidan chiqa olmasa, hechqisi yo'q, yana oddiy mashq beriladi.

Finlyandiya maktablarida oddiy ta'lim bilan bir qatorda ta'lim jarayonining ikki noyob turi mavjud:

"Bo'shroq" o'quvchilar ta'limini qo'llab-quvvatlovchi — bu boshqa mamlakatlarda repetitorlar bajaradigan ish. Finlyandiyada repetitorlik keng tarqalgan ta'lim usuli hisoblanmaydi, maktab o'quvchilari dars vaqtida yoki undan keyin kerakli o'quvchilarga qo'shimcha yordam ko'rsatishadi.

Korreksion ta'lim — materialni o'zlashtirishdagi umumiy barqaror muammolar bilan bog'liq. Masalan, bu ta'lim olib boriluvchi fin tilini tushunmaslik yoki eslab qolish yo matematik qobiliyatining yaxshi emasligi, yoxud ba'zi bolalarning asotsial xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Korreksion ta'lim kichik guruhlarda yoki individual tarzda o'tkaziladi.

4. Amaliyot:

"Yo hayotga tayyorlaymiz, yoki — imtihonlarga. Biz birinчисini tanlaymiz", - deydi finlar. Shuning uchun Finlyandiyadagi maktablarda imtihonlar yo'q. Nazorat ishlari va oraliq test sinovlari - o'qituvchining qaroriga qarab belgilanadi. Umumta'lim maktabini tugallashda faqat birgina majburiy standart test o'tkaziladi. Shunisi diqqatga sazovorki, o'qituvchilar uning natijalari uchun alohida qayg'urishmaydi, test natijalari uchun birovning oldida javob ham berishmaydi, bolalar ham unga maxsus tayyorgarlik ko'rishmaydi: boriga baraka.

Finlyandiya maktablarida hayotda kerak bo'ladigan bilimlar beriladi. Masalan, biror bir qurilmaning tuzilishi ularga kerak bo'lmaydi, uni o'rganishmaydi ham. U yerdagi bolalar bolalikdan portfolio, shartnoma, bank kartasi nima ekanini yaxshi bilishadi. Merosdan soliq fozini yoki kelgusidagi daromadlarini hisoblay olishadi, internetda tashrif-saytini yarata olishadi va h.k.

5. Ishonch.

Birinchidan, maktab xodimlari va o'qituvchilar uchun turli tekshiruvlar yo'q, o'quvchilarga ta'lim berishga doir turli uslublarni o'rgatuvchilar ham yo'q. Mamlakatda ta'lim dasturi yagona, faqat umumiy tavsiyalar bor, xolos. Har bir pedagog o'zi to'g'ri deb bilgan uslubni qo'llaydi.

Ikkinchidan, bolalarga bo'lgan ishonch: darslarda o'quvchi o'zini qiziqtirgan ish bilan shug'ullanishi mumkin. Masalan, adabiyot darsida o'quv filmi namoyish etilayotgan bo'lsa-yu o'quvchiga buning qizig'i bo'lmasa, u kitob o'qib o'tirishi mumkin. O'quvchi o'zi uchun nima foydali ekanini o'zi tanlaydi.

6. Istak-xohish.

O'qishni istagan odam o'qiydi. Pedagoglar o'quvchining e'tiborini qaratishga harakat qilishadi, lekin uning o'rgatilayotgan fanga qiziqishi yoki qobiliyati bo'lmasa, darrov "ikki" baho bilan "siylashmaydi", bolani kelgusida uncha murakkab bo'lmagan, amaliy jihatdan foydali bo'lgan kasbga yo'naltirishadi. Hamma ham samolyot ixtiro qilishi shart emas, avtobuslarni ham kimdir boshqarishi kerak-ku, axir!

Bunga ham o'rtta maktabda chora ko'riladi - muayyan o'smir litseyda bilimlarini davom ettirishi kerakmi yoki olgan bilimlari yetarlimi, professional kasb-hunar maktabiga borish kerakdir, ehtimol. Ta'kidlash joizki, bu ikki yo'l ham mamlakatda birdek qadrlanadi.

Har bir bolaning u yoki bu faoliyatga moyilligini aniqlash "kelajak o'qituvchisi" tomonidan test va suhbatlar yo'li orqali amalga oshiriladi.

Umuman olganda, Finlyandiya maktabida ta'lim jarayoni yumshoq, biroq bu maktabni jiddiy qabul qilmasa ham bo'ladi, degani emas. Maktab rejimiga rioya qilish majburiy. Barcha o'tkazib yuborilgan darslarda qayta o'tirishga to'g'ri keladi. Masalan, o'qituvchi 6-sinf o'quvchisi uchun o'z jadvalidan "bo'sh soat"ni belgilaydi yoki 2-sinfning darsiga kirib o'tiradi. Dars qiladimi, zerikib o'tiradimi, o'ziga havola. Kichik yoshlilarga xalaqit bersa, bu hisobga o'tmaydi, yana boshqa soatda qayta o'tirishga to'g'ri keladi.

O'qituvchi bergan vazifani bajarmagan, darsda ishlamagan bolaning ota-onasi maktabga chaqirtirilmaydi, tanbeh ham berilmaydi, aqliy qoloqlikda ayblanmaydi ham. Agar ota-ona ham farzandining bunday xatti-harakatlariga befarq qarasa, bola shunchaki keyingi sinfga o'tmaydi.

Finlyandiyada bir sinfda ikkinchi yilga qolish uyat hisoblanmaydi, ayniqsa 9-sinfdan keyin. Katta hayotga jiddiy tayyorgarlik ko'rish lozim, shuning uchun fin maktablarida qo'shimcha (majburiy emas) 10-sinf bor.

7. Mustaqillik.

Finlyandiyada maktab bolani eng asosiysi - mustaqil muvaffaqiyatli hayotga o'rgatishi kerak deya hisoblanadi. Shu bois u yerda fikr yuritish va o'z xohishiga ko'ra bilim olishga o'rgatiladi. O'qituvchi yangi mavzularni so'zlab o'tirmaydi - barchasi kitobda bor. Yod olingan formulalar emas, ma'lumotnomadan, matndan, internetdan, kalkulyatordan foydalanish - joriy muammolar yechimini topish uchun kerakli resurslarni jalb qilishni bilish muhim.

Shuningdek, maktabdagi pedagoglar o'quvchilar o'rtasidagi mojarolarga ham aralashishmaydi, ularga hayotiy vaziyatlarga mustaqil tayyorlanish va o'zlari uchun javob berish mas'uliyatini rivojlantirish imkoni beriladi.

Finlyandiya maktablari bir xil bo'lsa-da, ulardagi o'quv jarayonlari turlicha tashkil qilingan.

Qachon va qancha vaqt o'qiladi?

Finlyandiyada o'quv yili avgustda boshlanadi, ya'ni 8 avgustdan 16 avgustgacha, yagona kun yo'q. O'quv yili may oyi oxirida yakunlanadi. Kuzgi yarim yillikda 3-4 kunlik ta'til bor, shuningdek Rojdestvo munosabati bilan 2 haftalik ta'til beriladi. Bahorgi yarim yillik fevral oyidagi "chang'i" ta'tilini ham o'z ichiga oladi, bunda fin oilalari, qoidaga ko'ra, oilaviy chang'i uchishga borishadi. Bundan tashqari, bahorgi yarim yillikda Pasxa ta'tili ham bor.

Ta'lim - besh kunlik, faqat kunduzgi smenada. Juma - qisqartirilgan kun.

Nima o'rganiladi?

1-2 sinf:

Ona (fin) tili va o'qish, matematika, tabiat, din (e'tiqodiga qarab) yoki hayotiy tushunchalar (dinga qiziqmaydiganlar uchun), musiqa, tasviriy san'at, mehnat va jismoniy tarbiya. Bir darsda biryo'la bir necha fan o'tilishi mumkin.

3-6 sinflar:

Ingliz tili o'rgatila boshlanadi. 4-sinfda - tanlov asosida yana bir chet tili: fransuz, shved, nemis yoki rus tillari. Qo'shimcha fanlar kiritiladi (tanlov asosida, har bir maktabda har xil): klaviaturada ishlash tezligi, kompyuter bilimlari, daraxt bilan ishlash, xor ijrosi. Deyarli barcha maktablarda musiqiy asboblarda o'ynashni o'rgatishadi, bolalar 9 yillik ta'lim davomida barcha musiqiy asboblarda o'ynashni mashq qilib ko'rishadi.

5-sinfda biologiya, geografiya, fizika, kimyo va Davlat va huquq asoslari fanini qo'sxil adi. 1-sinfdan 6-sinfgacha deyarli barcha fanlardan bir o'qituvchi kiradi. Jismoniy tarbiya darsi haftada 1-3 marta istalgan sport o'yini shaklida o'tadi (maktabning tanlovi asosida). Darsdan keyin dush qabul qilish majburiy. Adabiyot bizning tushunchamizdagidek o'qitilmaydi, bu ko'proq shunchaki o'qishni eslatadi.

Fan o'qituvchil ari faqat 7-sinfdan kira boshlaydi.

7–9 sinflar:

Fin tili va adabiyoti (o'qish, o'lka madaniyati), shved, ingliz tili, matematika, biologiya, geografiya, fizika, kimyo, salomatlik asoslari, din (yoki hayotiy tushunchala musiqa, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, tanlov asosidagi fanlar va mehnat (o'g'il va qiz bolalar ajratilmaydi). Barcha birdek sho'rva tayyorlashni va arralashni o'rganadi. 9-sinfda ikki hafta davomida "mehnat hayoti" bilan tanixil adi. Bolalar o'zlari uchun istagan "ishchi o'rni"ni topib, katta ishtiyiq bilan "ishga" borishadi.

Baho kimga kerak?

Mamlakatda 10 ballik tizim qabul qilingan, ammo 7-sinfgacha faqat so'zda baho qo'yiladi: o'rtadan pastroq, qoniqarli, yaxshi, a'lo. 1-3 sinflarda umuman hech qanday ko'rinishdagi baholar yo'q.

Finlyandiyada barcha maktablar «Wilma» davlat elektron tizimiga ulangan, bu elektron maktab kundaligidek gap, har bir ota-ona unga kirish uchun shaxsiy kodga ega. Pedagoglar baho qo'yib, davomatni belgilab, bolaning maktabdagi hayoti haqida xabar berib borishadi; shuningdek psixolog, ijtimoiy xizmatchi, "kelajak o'qituvchisi", feldsher ham u yerda kerakli ma'lumotni qoldiradi.

Fin maktablarida baholar xavotir uyg'otmaydi, ular faqat o'quvchining o'zi uchun kerak, qo'yilgan maqsadga erishishda bolaga motivatsiya berish va o'zini tekshirish uchun qo'llaniladi. Baholar o'qituvchi, maktab nufuziga ta'sir ko'rsatmaydi va hech qanday ko'rsatkichlarini buzmaydi.

Maktab hayotiga doir boshqa tafsilotlar.

Maktablar hududi o'ralmagan, kiraverishda qo'riqchilar yo'q. Aksariyat maktablarning kirish darvozasi avtomatik tizimga ega, binoga darslar jadvali asosida kirish mumkin.

Darsda bolalar parta va stolda o'tirishi shart emas, polda (gilamda) o'tirish ham mumkin. Ba'zi maktablarda sinflar divan va kreslolar bilan jihozlangan. Kichik maktab inshooti gilamchalar bilan ta'minlangan.

Forma yo'q, kiyimga nisbatan qandaydir talablar ham yo'q, istagan kiyimda kelish mumkin. Almashtirish uchun qo'shimcha poyabzal talab qilinadi, lekin kichik va o'rta zvenodagi bolalar paypoqda yurishni ma'qul ko'rishadi.

Iliq havoda darslar ko'pincha ochiq havoda maktab oldida, maysalar ustida yoki maxsus jihozlangan qatorlarda o'tkaziladi. Tanaffus vaqtida kichik maktab o'quvchilari albatta ko'chaga olib chiqiladi.

Uy vazifalari kamdan-kam beriladi. Bolalar dam olishlari kerak. Ota-onalar bolalar bilan dars qilishga majbur emas, buning o'rniga pedagoglar muzey, o'rmon yoki suzish havzasiga oilaviy borishni tavsiya qilishadi.

"Doska oldida" o'qitish usuli qo'llanmaydi, bolalar materialni so'zlab berish uchun doska oldiga chaqirilmaydi. O'qituvchi darsga umumiy tus beradi, so'ngra o'quvchil ar orasida yurib, ularga vazifalarni bajarishga yordam beradi va jarayonni nazorat qiladi. O'qituvchining yordamchisi (fin maktablarida o'qituvchi yordamchil ari ham bo'ladi) ham xuddi shu ish bilan band bo'ladi.

Daftarga qalam bilan yozish va qancha xohlasa, shuncha o'chirish mumkin. O'qituvchi ham vazifani qalamda tekshirishi mumkin.

3-QISM

2.3. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. Mavzularga doir keys mashg'ulotlarini ishlab chiqish.

Xo'sh, interfaol metodlarning o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'rinli, maqsadga muvofiq qo'llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Quyidagi ana shu kabi savollarga qisqacha javob topiladi.

"Interfaol" tushunchasi ingliz tilida «interact» (rus tilida «interaktiv») ifodalanib, lug'aviy nuqtai nazardan «**inter**»-o'zaro, ikki taraflama, «**act**»-harakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

Interfaol ta'lim-ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.

Interfaollik ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir.

Interfaol ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mashg'ulot ma'ruza emas, jamoaning umumiy ishi;
- guruhning tajribasi o'qituvchining tajribasidan ko'p;
- o'quvchilar yosh, ijtimoiy mavqei va tajribaga ko'ra teng;
- har bir o'quvchi o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytilish huquqiga ega;
- mashg'ulotda o'quvchi shaxsi tanqid qilinmaydi;

Hozirgi vaqtda o'qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik mahoratga, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga, mafkura borasida chuqur bilimlarga ega bo'lishi, ta'lim-tarbiya ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanishi davr talabi hisoblanadi. Ana shunday interfaol usullardan biri kichik guruhlar bilan ishlash.

Kichik guruhlar bilan ishlash. Guruh asosan aqliy hujum, «dumaloq stol», «uch bosqichli intervyu», «muammolarni hal qilish», «ruscha stol ustida», «akademik munozara», «tanqidiy vaziyatni tahlil qilish» kabi tartibda amalga oshiriladi. Kichik guruhlar bilan ishlash guruh a'zolari 5 kishidan iborat bo'lishi samarali hisoblanadi. Bu usullar tinglovchilarning fikrlash doirasini kengaytirib, mavjud cheklovlarni yo'qotish, fikrlash faolligini oshirish, o'quv faoliyatini jadallashtirishga, qaratilgan bo'ladi.

Usulning asosiy maqsadi - qatnashchilarni bahs, munozara, tortishuvga ko'proq jalb qilish va ularni bir - birini o'rganishga imkon berish, ko'rsatmalar berib turadigan murabbiyning «sahnadan» chiqarish.

Usulning afzalliklari - qatnashchilarga o'z g'oya va fikrlari bilan ko'proq o'rtoqlashish imkoni beriladi. Guruhdagi qatnashchilar katta guruhlarda ayta olmaydigan fikrlarini boshqacha tarzda aytishi mumkin. Qatnashchilarning tajriba va g'oyalari bilan qatnashib, mavjud bilimlarini kengaytiradi va yondashuvlarini o'zgartiradi. Butun diqqat e'tibor o'quvchilardan o'quvchilarga ko'chiriladi. Ularning ta'lim olishda ko'proq mas'uliyatni o'z zimmalariga yuklashga majbur qiladi.

Usulning kamchil iklari - Ancha ko'p vaqt va qo'shimcha joy bo'lishini talab qiladi. Qatnashchilarning har biri yetakchil ik qilishga o'ta boshlashi, agar guruh qarshilik ko'rsatmasa, uning ustidan nazorat qilishni o'z qo'liga olishi mumkin. Guruh o'ziga berilgan topshiriqdan chalg'ib ko'rsatmalarga amal qilmasligi yoki topshiriqni noto'g'ri tushinishi mumkin.

Aqliy hujum (miya hujumi). Bu usulda g'oyalarni shakllantirishga to'siq bo'ladigan mulohaza va tanqidiy fikrlar bildirmaslik. Yangi fikrlarni qo'llab-quvvatlash eng ko'p takliflar olish, g'oyalarni kombinatsiyalash va rivojlantirish. Har tomonlama dalil isbotlar keltirmasdan, fikrlarni qisqa bayon qilish. Guruhda g'oyalarning beradigan va ularni ishlab chiqaradigan tinglovchilarning bo'lishi kabi qoidalarni o'zida mujassam etadi.

Bu usul tinglovchilarning o'z nuqtai-nazarini isbotlash, himoya qilish, har qanday vaziyatda ma'qul yechimini topish, muloqot olib borish, himoya qilinayotgan fikrning to'g'riligiga opponentlarning ishonitirishga o'rgatadi. U mavzuni to'la tahlil qila oladigan chigallarni ham yozishga juda mos.

O'qituvchi topshiriqni tahlil qilishda har bir tinglovchining to'liq ishtirokini kuzatib boradi. Javoblarning birortasi izohlab o'tilmaydi va o'rinsiz deb rad etilmaydi. Guruhda variantlar qolmagandan so'ng muhokamaga kirishiladi. Tinglovchilarning o'qituvchi bilan birgalikda barcha variantlarning faollik bilan muhokama qila boshlaydilar. Bu o'rinda noto'g'ri javoblarning tanqid qilishga va bilimlarning yanada mustahkamlash uchun to'g'ri variantlarning yozib olishini tinglovchilarning taklif etadi.

Ushbu usulning maqsadi – guruhda qisqa vaqt ichida ko'p miqdordagi variantlarning olib, tinglovchilarning esa nimalarni o'zlashtirganligini aniqlashdan iborat. Mashg'ulot davomida

muammoni hal eta oladigan g'oyalar taklif qilinishi, umumiy fikr almashinish uchun zamin yaratilishi va tinglovchil ar o'z mulohazasini bildirishi mumkin. Bu jarayon mohiyat e'tibori bilan guruhga mavzu savol va topshiriqlar beradi. Guruh a'zolari esa bir necha daqiqa ichida shu mavzu yuzasidan munozara yuritib, barcha fikrlarni bayon qiladilar va ular sinf taxtasiga daftarga bir vaqtda yozib boriladi. Mulohazalar noaniq, bahsli, bo'lsada yozilaveradi. Hamma tinglovchi o'z fikrini muhokama qilmasdan bayon etadi, chunki maqsad ko'p miqdorda va xilma-xil takliflar olishdir. Ta'qiqlar bo'lmaydi va baho berilmaydi. O'quvchilarning takliflarini tahlil qilish, norozilik bildirish va taklif etilgan hamma fikrlarni muhokama qilish uchun keyinroq imkon beriladi. Agar faollik sust bo'lsa, o'qituvchi o'z fikrlaridan ba'zilarini yozib olishni taklif etadi, bundan oldin esa u biroz sabr qiladi.

Bu usulning qiymati shundaki, u guruhni birlashtirib yakdillikka undaydi. Har bir tinglovchi uning taklifini yozib olishga arzishini his qilish imkonini beradi. Bu muammo yechimini musobaqaga aylantirmay, balki birgalikda bajariladigan ishga aylantirish imkonini beradi, bunga guruh a'zosi, muammoning o'zi asosiy raqib bo'lib qoladi.

Sinektika: Bu usulda o'quv materiali ancha tez va batafsil o'zlashtiriladi, xotirada uzoq saqlanib ilmiy amaliy maqsadlarda keng qo'llanilishi mumkin. Bu usulda o'quvchi - tinglovchi ancha uquvli, o'qituvchi esa yaxshi ko'rsatma beruvchiga aylanadi. Natijada o'qishning intellektualmantiqiy natijasi kuchaytiriladigan «reklama samarasi» ga erishiladi.

“Obrazli” tarzda o'qitishning o'ziga xos jihati shundaki, o'quvchi ongiga tayyor holdagi obraz majburiy berilmay, u faollik bilan shakllantiriladi va o'quv jarayoni bilan materialni «bo'rttiradigan» bo'ladi. Tinglovchi o'z layoqatini ishga solib, uni fikran boyitishga majburdir. Bu usul amaliy mashg'ulotlarda keng qo'llanilib nazariy materialni ishlab chiqish va mustahkamlash, uning o'zlashtirilganligini tekshirib ko'rishda ahamiyati katta. U an'anaviy so'rovlar o'rnini bosishi va nafaqat javob berayotgan tinglovchi va boshqa guruh a'zolarining fikrlash jarayonini faollashtiradi.

Ish tariqasidagi o'yinlar: Ish tariqasidagi o'yinlarning asosiy vazifasi o'rganayotganlarni amaliyotga va muloqotlar olib borishda zarur bo'lgan faoliyat ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. O'qib-o'rganishni bu shakli murakkab vaziyatlarni ma'lum ob'yektlarda gavdalanirib, ularga taqlid qilish yo'li bilan tinglovchil ar bilimini samarali tarzda malakaga aylantirishga ko'mak beradi. Bu yerda model bilan ishlash imkoni beriladi. Bu usul juda ko'p hollarda qarorlarni jamoa bo'lib qabul qilish tajribasini o'rgatadi.

Musobaqa – tanlov: Bu usulning asosiy xususiyati shundaki, bunda o'qituvchi butun guruh bilan ish olib boradi. Musobaqa - tanlov butun o'quv yili davomida tinglovchi - o'quvchilarning jadal bilish faoliyatini tashkil qilishga yo'naltiriladi. Tinglovchi xilma – xil tanlov topshiriqlari bajaradi.

Topshiriqlarning maqsadi – o'quvchil ar bilimni tizimlashtirish, ularni samarali fikrlashga undash, egallangan bilimlarni amaliyotda ijodiy qo'llashdan iborat.

Tanlovda muayyan mavzular bo'yicha o'quvchi - tinglovchining tayyorgarlik darajasi, egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini, mustahkamlash va chuqurlashtirishdan iboratdir. O'qitish jarayonida «eshitdim», «ko'rdim», «o'zlashtirdim, bilan hamkorlikda bildim, fikrladim, esda saqladim, o'zlashtirdim va mustahkamladim tarzida tashkil etiladi».

5. Interfaol usullarning maqsadi.

Interaktiv so'zi «inter» –o'zaro, aro, «akt» –harakat ma'nolarini (ingliz tilida) bildiradi. «Aktiv» so'zi harakatli, harakatchan, faollashtirish ma'nolarini bildirgani sababli, o'zbek tilida «faol» deb yuritiladi. Demak, interaktiv metodlar bu o'zaro faollashtiruvchi, harakatga keltiruvchi metodlardir.

Interfaol usullarning maqsadi:

O'quvchilarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

Muammoli, vaziyatli, amaliy va hayotiy topshiriqlarni bajarish;

Fikrlashga majbur etish;

Faollashtirish;

O'quvchilarni tashkilotchilik va yo'naltiruvchanlikka undash. Interaktiv o'qitish jarayoni an'anaviy (doska yonidagi) o'qitishdan farqli o'laroq bir qancha metodologik qirralar ustunligiga ega. Bu, avvalambor, ishtirokchilarning mashg'ulot qoidalarini ishlab chiquvchi muallim va bir-biri bilan faol, emotsional tusdagi munosabatlariga asoslanadi.

O'qituvchining interaktiv o'qitish jarayonidagi ishining samarasi bir qancha shartlarga bog'liq:

Birinchi – o'quvchi imkoniyatlarining berilgan texnologiya (mashq, mashg'ulot, o'yin, trening) maqsad va vazifalariga mutanosibli. Tanlangan texnologiyaning maqsadiga qarab o'qituvchi u yoki bu vazifani bajaradi: tashkilotchi-sardor, kommunikator, kelishmovchil iklarni bartaraf qiluvchi, fasilitator.

Ikkinchi – guruh ishtirokidagi o'zaro munosabatlarni hal etishdagi o'qituvchining professional tajribasi. Buning uchun u dialog hamda multilog, ya'ni turkumlashgan dialog san'atini egallagan bo'lishi zarur.

Interfaol darslarni tashkil etishda:

1.Dars konsepsiyasini rejalashtirishga tizimli yondashuv.

2.Darsning maqsadini belgilash.

3.Dars vazifasini aniqlash.

4.Dars maqsadi va vazifalarining farqini aniq belgilash.

5.Darsdan kutilayotgan natijalar.

6.Xulosalar chiqarishni oldindan rejalashtirish darsning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi.

Ijtimoiy malakalar: Hamkorlikdagi faoliyat natijasida o'quvchilar bir-birlarining qobiliyatlarini aniqlay boshlaydilar, ya'ni kim rasm chiza oladi, kim tez yoza oladi, kim g'oyalar bera oladi va hokazo. Bundan tashqari, o'quvchilarning ar juftlikda yoki guruhda ishlaganlarida bemalol gapira olish imkoniga ega bo'ladilar (bu yerda o'quvchining gapini «to'g'ri»yoki «noto'g'ri» deb baholaydigan o'qituvchi yo'q!) Demak, og'zaki nutq rivojlanmoqda, xuddi shu vaqtda qolganlar tinch eshitishi kerak, demakki, ularda tinglay olish malakalari shakllantiriladi. Yangi, yaxshi fikrlar qo'llab-quvvatlandimi, demak shu fikr egalarida o'ziga ishonch paydo bo'ladi: o'quvchilar o'zlari qaror qabul qila boshlaydilar, demakki, shu qarorlarni himoya qila oladilar.

Shunday qilib, o'quvchilar jamiyatda mustaqil hayot kechirishda o'zlari uchun zarur bo'ladigan turli ijtimoiy malakalarga ega bo'ladilar.

Baholash: Hamkorlik jarayonida o'quvchilarning ar bir-birlarini kuzatadilar, nazorat qiladilar, demak baholaydilar ham. Albatta, o'qituvchi o'quv jarayonining boshqaruvchisi sifatida hammani kuzatadi, biroq o'quvchilarning fikr-mulohazalari inobatga olinishi shart. Bu jarayonda har bir berilayotgan baho, ma'lum faktlar asosida tushuntirilishi va izohlanishi kerak.

Baholash jarayonida o'quvchilarning ar o'zlari-o'zlariga baho berishlari ham mumkin. Bu holat ularni tashqaridan o'zlariga nazar tashlashga, o'z xatti-harakatlarini nazorat qila olishga o'rgatadi.

Interfaol metodlarni qo'llashda o'qituvchida quyidagi qiyinchiliklar kuzatiladi:

Sinfda ortiqcha shovqinning paydo bo'lishi va bir-birini eshitmaslik;

Vaqt yetishmasligi;

Tarqatma materiallarni tayyorlash;

Yuqoridagi qiyinchiliklarni quyidagi tajribada o'zini oqlagan yo'llar bilan bartaraf etish mumkin:

Birinchi qoida: Dars boshlanganda hamma o'quvchi o'qituvchiga qarab o'tirishi kerak!

Ikkinchi qoida: Guruhda ishlash uchun beriladigan resurslar, vazifa tushuntirilmasdan oldin tarqatilmaydi!

Uchinchi qoida: Sinfga vazifa og'zaki tushuntirilganda albatta, yozma shakliga ham e'tibor bering!

To'rtinchi qoida: Taqdimotga o'quvchi doskaga chiqqanda o'qituvchi sinf xonasining oxiriga ketishi kerak.

Beshinchi qoida: Interfaol jarayonda (guruhda) o'quvchi yarim ovozda gapirishi kerak. Buni esa u faqat o'qituvchidan o'rganishi mumkin. Demak, biz har kungi darsimizning 5-6 daqiqasini yarim ovozda gapirish orqali o'quvchilarda ko'nikma hosil qildirish kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi, bulardan asosiysi-o'quvchilarning muluqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emotsional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri Interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida Interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan hlda himoya qila bilish, sog'lom muluqot, munozara, baxs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

O'qituvchining interfaol mashg'ulot jarayonidagi ishining samarasi bir qancha shartlarga boqliq:

Birinchi – o'quvchi imkoniyatlarining berilgan texnologiya (mashq, mashg'ulot, o'yin, trening) maqsad va vazifalariga (bitta guruhda turli qobiliyat va imkoniyat) mutanosibligi. Tanlangan texnologiyaning maqsadiga qarab o'qituvchi u yoki bu vazifani bajaradi: tashkilotchi-sardor, kommunikator, kelishmovchil iklarni bartaraf qiluvchi, fasilitator.

Ikkinchi – guruh ishtirokidagi o'zaro munosabatlarni hal etishdagi o'qituvchining professional tajribasi.

Sinkveyn metodini qo'llash jarayonida o'quvchilardagi tarqoq axborotli jarayonlar asta sekin bosqichma-bosqich yo'naltirilgan jarayonga aylantirib boriladi. Ya'ni bilimlar mavzuni o'rganish davomida o'rganiladi. Muayyan voqelik to'g'risida yakdil fikrga kelinadi. Buning uchun o'quvchilarda besh imkoniyat mavjud bo'ladi ya'ni sinkveyn beshqatordan iborat o'ziga xos oqshe'r (qofiyasiz) bo'lib, o'rganilayotgan mavzuga oid tushunchalar (hodisa, jarayon, voqea) qat'iy ketma-ketlikda yozib chiqiladi. Sinkveyn orqali o'quvchilar o'z fikrlarini to'plash, ixcham ifodalash, mulohazalarni sintezlash va mavzu bo'yicha to'g'ri xulosalarni takomillashtirishga o'rganishadi.

Sinkveyn tuzish tartibi:

Birinchi qatorda mavzuga oid shaxs (tayanch tushuncha) bir so'z (ot) bilan qayd etiladi.

Ikkinchi qatorda shaxs ikki sifat bilan ifodalanadi.

Uchinchi qatorda mavzuga oid tushunchalar uch so'z bilan bayon qilinadi.

To'rtinchi qatorda mavzuga oid fikr (nazariya, fakt)lar to'rtta so'zdan iborat bo'lishi lozim.

So'nggi qatarga mavzu mohiyatini oydinlashtiradigan (yoki ma'no jihatidan yaqin bo'ladigan) bitta so'z yoziladi bu ketma-ketlikni quyidagi chiziqlar bo'yicha loyihalash mumkin.

Sinkveyn tuzishga oid dastlabki namunani o'quvchilar bilan birga quyidagicha tuzish mumkin:

SINKVEYN(5 qatorlik she'r)

1	Tushuncha - ot	Shaxs
2	2 so'zdan iborat sifat	Huquqiy madaniyatli
3	3 so'zdan iborat fe'l	O'z huquqini biladi
4	4 so'zdan iborat munosabat	U qonunlarga amal qiladi
5	1 so'zdan iborat sinonim	Inson

Odatda Sinkveyn mavzu bo'yicha biror muammoli vaziyatli yechish yoki alohida o'quv elementlarini mukammallashtirishda o'quvchi tafakkurini charxlash uchun tuziladi agar birinchi

qatoridagi mavzu soʻz turkumi – ot orqali ifodalansa, ikkinchi qatorda topshiriqning muhim xossalarini belgilovchi bir juft sifatni oʻquvchi oʻylashi koʻp variantli javoblardan eng maʼqulini olishi lozim.

“Chaynvord” metodi

Ushbu metod Tushunchalar tahliliga oʻxshash. Lekin oʻziga xos jihati bilan undan farq ham qiladi. Unda oʻquvchil ar tushunchalar tahlilini emas, aksincha tahlili keltirilgan tushunchalarning oʻzini topishi kerak boʻladi. Oʻqituvchi tomonidan oʻquvchil arga tarqatilgan jadvalda avval tushunchaning tahlili, soʻng qavs ichida topilishi kerak boʻlgan ibora yoki jumla necha harfdan iboratligi koʻrsatib qoʻyiladi.

1	Konstitutsiya (6+5)	Asosiy qonun
2	Farmon (5+4+7)	Qonun osti hujjati
3	Oliy Majlis (5+9+5)	Qonun chiqaruvchi organ
4	Vazirlar Mahkamasi (4+6+5)	Ijro etuvchi organ
5	Din va millatning hujjati degan nomga musharraf boʻlgan alloma (11+10)	Burxoniddin Margʻinoniy
6	Burxoniddin Margʻinoniyning huquqga oid asari(2+6)	Al-Hidoya

4-QISM

2.4. Mavzularga doir keys mashgʻulotlarini ishlab chiqish.

Case soʻzi, lotincha —casus- voqea, hodisa soʻzidan kelib chiqqan va keyinroq inglizcha —sase- toʻplam, aniq vaziyat, stadi – taʼlim soʻzlarining birikuvidan hosil qilingan boʻlib, aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan taʼlim texnologiyasidir. Bunda muammoli taʼlim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni oʻrganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Boshqacha aytganda, bu tushuncha hayotda yuz beradigan qandaydir voqea yoki hodisani, aniq bir vaziyatning tafsilotini anglatadi.

Keys – stadi (aniq bir holat yoki vaziyat), muayyan jarayonida sodir boʻladigan haqiqiy voqelikni soʻzlar, raqamlar, obrazlarda ifoda etishda namoyon boʻladi. Bundan tashqari, bu ifoda taʼlim sohasida, hodisa yoki vaziyatni tadqiq etish uchun ishlatiladigan axborot, stenografiya sifatida qoʻllaniladi. Keys-stadi hodisa yoki vaziyatni oddiy tafsilotidan farqli oʻlaroq, u oʻquv materialini oʻzlashtirish uchun koʻmaklashuvchi axborotni oʻz ichiga oladi, bunga duch kelgan muammoni aniqlash va uning yechim yoʻllarini izlash orqali erishiladi. Keys-stadi, muayyan oʻquv maqsadli bilim olish vositasi sifatida ishlab chiqilishi zarur. Ushbu maqsadlar keng koʻlamli boʻlib, axborotlar, maʼlumotlar yoki tafsilotlar bilan taʼminlanishini nazarda tutadi, ular muayyan qarashlar yoki usullarni namoyish etishda qoʻllanilishi mumkin.

Keys ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870-yilda qoʻllanilgan edi. 1920-yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) oʻqituvchil ari yuristlarning oʻqitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni taʼlimning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur oʻqitish uslubi keng tatbiq etilaboshladi.

Keysda bayon qilingan va taʼlim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzidagi yechimi variantlarini izlashga yoʻnaltiradigan aniq real yoki sunʼiy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan taʼlim uslubidir.

Keys-stadi - taʼlim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qoʻyilgan taʼlim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan oʻquv natijalariga kafolatli yechimini vositali tarzda taʼminlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat boʻlgan taʼlim texnologiyasidir. Agar u oʻquv jarayonida maʼlum bir maqsadga erishish yoʻli sifatida

qoʻllanilsa, metod xarakteriga ega boʻladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, maʼlum bir algoritim asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni oʻzida aksettiradi.

Keys-stadi metodining asosiy kategoriyasi bu tahlil (analiz)dir. Tahlil etish kategoriyasi obʼektni xayolan boʻlaklarga boʻlish yoki ilmiy tadqiq etish sifatida tushunilishi mumkin.

Analizning turli tasniflari mavjud boʻlib ommaviy analiz tasnifini quyidagicha belgilash mumkin: tizimli analiz, korrelyatsion analiz, faktorli analiz, statistik analiz va boshqalar.

Analizning ushbu barcha turlari keys-stadi metodi doirasida qoʻllanilishi mumkin boʻlib, mazkur holat metodning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Oʻquvchilar tomonidan keysni yechish texnologiyasi:

Birinchi bosqich –keysni hal etish boʻyicha individual (auditoriyadan tashqari) ish.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa boʻlib (auditoriyada) ishlash.

Uchinchi bosqich – keysni hal etish boʻyicha individual ishlash.

Oʻquvchi mustaqil ravishda:

keys materiallari bilan tanishadi;

taqdim etilgan vaziyatni oʻrganadi, izohlaydi va asoslaydi;

muammo va muammo osti muammolarni ajratadi,

vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;

berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi;

ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;

taklif etiladigan qarorni amalga oshirish boʻyicha tadbirlarni ishlab chiqadi.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa boʻlib ishlash:

Oʻquvchilar kichik guruhlariga boʻlinib, keys bilan birgalikda ishlashadi; guruh aʼzolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yoʻllari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;

yechimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qoʻyilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;

muammoli vaziyat yechimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yoʻlini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;

taqdimotga tayyorlanadi va namoyish etiladigan materiallarni rasmiylashtirishadi.

Keysni yechish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini oʻtkazish:

muammoli vaziyat yechimining oʻz variantini taqdim etadi;

tanlangan harakatlar yoʻlini izohlaydi va uning oqilonaligini asoslaydi;

boshqa guruhlar qatnashchilari savollariga javob beradi va oʻz takliflarini aniqlashtiradi.

Jamoa boʻlib keys ustida ishlash:

guruhlar taklif etgan yechimlar variantlarini muhokamasi;

taklif etgan yechimlarning oʻzaro baholanishi;

Taklif etilgan yechimlarning hayotiyliigi va amalga oshirilishi mumkinligiga birgalikda (oʻquvchil ar va oʻqituvchi) baho berilishi ham mumkin.

Oʻqituvchining harakatlarini izchil ligi:

oʻqituvchi mashgʻulot mavzusi va maqsadini maʼlum qiladi;

oʻquvchilarning prognoz qilinadigan taʼlimdagi yutuqlari roʻyxatini eʼlon qiladi;

oʻquv mashgʻulotining tartibi va oʻziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;

oʻquv natijalarini baholash koʻrsatkichlari va mezonlari eʼlon qiladi;

oʻquvchil arda boʻlgʻusi oʻquv faoliyatiga qiziqishni shakllantirish maqsadida keysning vazifasini va uning professional bilimlar va malakalarni rivojlantirishga taʼsirini tushuntirib beradi.

oʻquvchilarning oʻquv mavzusi kursi boʻyicha bilimlarini dolzarblashtirish ishidan boshlanadi va bu ish blits-soʻrovnoma yoki savol-javob shaklida oʻtkaziladi.

Keys bilan shundan keyingi ish quyidagilarga bogʻliq boʻladi:

ish oʻquv rejasiga koʻra ajratilgan vaqtga;

keys o'lchami va uning maqsadlari;
tanlangan ta'lim modeliga;
o'quv mashg'ulotining loyihalashtirilgan texnologikchizmasiga;
rejalashtirilgan ta'lim texnologiyasi bilan belgilanadi.

Keys bilan yakka tartibda ishlashni tashkil qiladi.

Keys bilan jamoa bo'lib ishlashni tashkil qiladi: o'quvchilarga aqliy hujum o'tkazishni taklif qiladi – keysda taqdim etilgan muammoli vaziyatni hal etish g'oyalari generatsiyasi.

O'quv mashg'ulotining yakunlovchi-baholovchi bosqichi o'qituvchining harakatlarini izchil ligi:

mavzu bo'yicha xulosa chiqaradi, o'quvchilar e'tiborini asosiy jihatga qaratadi;
bajarilgan ishning kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun ahamiyati haqida so'zlaydi;
guruhlar, ayrim o'quvchilar faoliyatini baholaydi o'zaro baholashlarga yakunyasaydi;
o'quv mashg'uloti maqsadiga erishganlik darajasini tahlil qiladi va baholaydi.

Shuningdek, keys-stadi metodi o'zida quyidagi afzalliklarni va boshqa o'qitish metodlaridan ajralib turuvchi jihatlariga ega:

u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy tizim modelining mavjudligi hamda ushbu model holatining muayyan vaqt birligi ichida tahlil etilishi;

muammo yechimini aniqlashga jamoaviy tarzda erishish. Muammoning yechimida turli muqobil javoblarning mavjudligi. Yagona yechimning mantiqan mavjud emasligi;

muammo yechimini izlashda yagona maqsadning qo'yilishi;
faoliyatni baholashning guruhiy tizimining mavjudligi.

Keys – bu yaxlit axborotlar majmui. Qoidaga ko'ra, keys uch qismdan iborat bo'ladi:

keysni tahlil etish uchun zarur yordamchi axborotlar;

aniq vaziyat bayoni;

keys topshirig'i.

Keysning hujjatlashtirish haqida ma'lumot.

Keysda bayon qilingan vaziyat institutsional tizimda (shu o'rinda va keyinchalik - korxonada) diskret (ayni shu) vaqtda tashkiliy hayotdagi tipik muammolarni qayta yaratadigan real yoki sun'iy qurilgan hodisalarning ideal tarzidagi in'ikosidan iboratdir. Muammoli vaziyat. Mazkur holda vaziyat sub'ektining hozirgi vaqtda yoki kelgusidagi maqsadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyat tushuniladi.

Keysning ilmiy pasporti tayyorlanadi va unda albatta ilmiy pasport tayyorlaniladi. Maqsadning qo'yilishi.

Keysning o'quv kursi tuzilmasidagi o'rnini belgilash.

Uning ta'lim maqsadini to'liq ifoda etish.

Keysning o'quvchilarning ta'limdagi yutuqlari natijalari uchun "mas'uliyat zonasi"ni aniqlash: o'zlashtirilishi kengaytirilishi rivojlantirilishi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar ro'yxati.

Muammo qandaydir harakatlar qilish uchun etilgan zarurat bilan uni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yetishmasligi o'rtasidagi ziddiyatning amal qilishi va ifodalanishi shaklidan iboratligi sababli muammoning ifodalanishi ana shu ziddiyatni belgilanadi.

«Keys-stadi» texnologiyasidan ta'lim natijalarini nazorat qilish va tekshirishda ham foydalanish mumkin. Har bir o'quvchiga imtixonidan oldin individual keys beriladi. O'quvchilar keysdagi topshiriqlarni bajarib, hisobot shaklida o'qituvchiga topshiradilar.

Darsga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi o'quv maqsadlarini hisobga olgan holda har xil turdagi keyslarni ishlab chiqishi lozim.

Keys asosidagi o'quv mashg'ulotlarida o'quvchilar faoliyatini turli shakllarda tashkil qilish imkoniyati mavjud. Masalan, taklif etilayotgan vaziyat sahnalashtirilishi hamda "Aqliy hujum", bahs-munozara, ilmiy bahslashuv metodlari orqali muhokama qilinishi mumkin.

Ochiq muloqotda asosiy omillar o'quvchilarning ko'nikma va malakalari, o'qituvchining muloqotni tashkil eta olish qobiliyati sanaladi. Savollarni berish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini keys matnidagi aniq axborotga qaratadi, to'g'ri javob berishga

undaydi. Keys matndagi muammoni ajratib olish, vaziyatni baholash, hodisa va jarayonni tahlil qilish o'quvchilarning kommunikatsion ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Darsga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi o'quv maqsadlarini hisobga olgan holda har xil turdagi keyslarni ishlab chiqishil ozim.

“Keys-stadi” texnologiyasiga qo'yiladigan talablar:

mavzu dolzarb va bir nechta yechimlarga egabo'lishi;

tanlangan matn o'quv mashg'ulotining maqsadiga moskelishi;

tadqiq qilinayotgan muammoni hal etish uchun axborotning yetarli bo'lishi.

“Keys-stadi” boshqa texnologiyalardan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

Topish va hal qilish zarur bo'lgan muammoli vaziyatning mavjudligi.

Muammoni jamoada muhokama qilish.

Muammoning bir nechta yechimlari mavjudligi.

Ta'lim oluvchil arning emotsional holatlarini boshqarish mumkinligi.

Faoliyatni baholashim koniyati.

Keys texnologiyasini tashkil etishda o'qituvchining faoliyati ikki bosqichdan iborat bo'ladi:

Birinchi bosqich — keysni va uning tahlili uchun savollarni ishlab chiqish uchun o'qituvchining ijodiy ishi. Bu bosqich o'quv mashg'ulotidan oldin amalga oshiriladi va pedagogning ilmiy-tadqiqot, metodik va konstruktiv faoliyatini qamrab oladi.

Ikkinchi bosqich — o'qituvchining auditoriyadagi faoliyati. Bunga o'qituvchining kirish so'zi, xulosasi, kichik guruhlarda ishni tashkil etishi, bahs-munozarani boshqarishi, vaziyat tahlili bo'yicha o'quvchil ar faoliyatini baholashi kiradi.

Hamkorlikdagi faoliyatga kirishish. Bu bosqichning asosiy vazifasi hamkorlikdagi faoliyatga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish.

Hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish. Bu bosqichning asosiy vazifasi kichik guruhlarda yoki individual tarzda muammoni hal etish bo'yicha faoliyatni tashkil etish. Har bir guruhda spiker (muammo yechimini taqdim etadigan), kotib (muhokamaning borishini yozib boradigan), vaqt nazoratchisi (vaqt o'tishini nazorat qiladigan) tanlanadi. Agar keys to'g'ri tuzilgan bo'lsa bir guruhning yechimi boshqa guruhning javobiga o'xshamaydi. O'qituvchi bahsni tashkil etadi va uni boshqaradi.

Keysni bajarish jarayonida o'quvchil arda quyidagi ko'nikmalar rivojlanadi:

Axborotni qabul qilish va qayta ishlash (matnni tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini o'rnatish, muammoni hal etish yo'llarini qidirish, axborotni sintez qilish).

Kommunikativ (suhbat yuritish, boshqalarni ishontirish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, boshqalarning xulq-atvorinibaholash, o'zini nazorat qilish).

Refleksiv ko'nikma (o'zining va boshqalarning fikrini tahlil qilish).

Institutsional tizimning izlanishi yoki tanlanishi.

Keyslar tipologiyasi

Tipologik belgilari	Keys turi
Asosiy manbalari	Bevosita ob'ektda olibboriladigan Ta'lim jarayondagi Ilmiy-tadqiqotchilik
Syujet mavjudligi	Syujetli Syujetsiz
Vaziyat bayonining vaqtdagi izchil ligi	O'tmish va bugungi kunni bog'lash asosidagi keys Avval bo'lib o'tgan voqelikka asoslangan keys Istiqbolga yo'naltirilgan keys

Keys ob'ekti	Alohida ob'ektgayo'naltirilgan Tashkiliy-institutsional Ko'p ob'yektlil
Materialni taqdim etish usuli	Hikoya Esse Tahliliy ma'lumot Jurnalistik taftish Hisobot Ocherk Faktlar majmui Statistik materiallar majmui Hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui

Keys: Komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishda Davlat va huquq asoslari fani oldida turgan vazifalar

O'quvchilarga arga Keys-stadi uslubida topshiriq berish uchun, eng avvalo ularning mazkur uslubning mazmun va mohiyatini tushuntirish zarur: Keys-stadi uslubining asosiy ob'yekti shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, mavzu yuzasidan ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilish, ularni hal etish, tahlil etish va yangi modelni ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etish texnologiyasini yaratish va baholashga yo'naltirilgan. Mazkur uslub haqida quyidagi qisqacha ma'lumotga e'tiboringizni qarating:

Keys-stadi (inglizcha case – to'plam aniq vaziyat, STADI – ta'lim) Keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzidagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli –vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir.

Keysda bayon qilingan vaziyat institutsional tizimda diskrit(ayni shu) tashkiliy hayotdagi tipik muammolarni qayta yaratadigan yoki sun'iy qurilgan hodisalarning ideal tarzidagi in'ikosidan iboratdir.

Muammoli vaziyat. Mazkur holda vaziyat subektining hozirgi vaqtda yoki kelgusidagi maqsadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyat hisoblanadi.

Muammoli topshiriqlarni bosqichma-bosqich tahlil etish va hal etish bo'yicha o'quvchilarga uslubiy ko'rsatmalar

O'quvchilarga yo'riqnoma

Ish bosqichlari	Maslahat va tavsiyanomalar
1.Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish	Inson, guruh va jamiyat fe'l-atvoriga ta'sir qiluvchi omillar, e'tiqodni shakllantiruvchi uslublar, ekstremizm, fundamentalizm, xalqaro terrozim, missionerlikni mafkuraviy qurolsizlantirish usullari va yo'llari bilan tanishish, atrofingizdagi voqea-hodisalarni tahlil etishni o'rganing. Yoshlarni tarbiyalashda siz tanlagan soha mutaxassislari oldida turgan vazifalarni tahlil etishga harakat qiling.
2.Muammoli topshiriqlar bilan tanishish	Sizga berilgan topshiriq mazmuni bilan yana bir marotaba tanishib chiqing. Topshiriq tarkibidagi tushunchalar va jummalarga diqqatingizni jalb qiling. Topshiriq orqali muammoning qaysijihatlarini hal etishga e'tibor qaratilganligini aniqlang.
3.Muammoli	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb eting.

topshiriqni tahlil eting.	Asosiy muammo: Komil inson shaxsini tarbiyalab voyaga yetkazish. Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling: Komillik deganda nima tushuniladi? Komil inson qanday asosiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerak? Nima uchun aynan komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish asosiy mezon qilib olinmoqda? Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq sohasi xodimlari oldida turgan birinchi galdagi vazifalarni tahlil eting? Komillik qirralarini tahlil eting va har biriga tavsifnoma yozing. Komil inson g‘oyasi va tarbiya qanday maqsadga yo‘naltirilganligini ko‘rsatib bering.
4. Muammoli topshiriqlarni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash	Muammoning yechimini topish uchun “Komil insonni voyaga yetkazishda tarbiya omillari” jadvalini to‘ldirishga kirishing. Uni to‘ldirishda aniq xususiyatlarni belgilab olishga harakat qiling. Jadvalni to‘ldiring. Eng avvalo tarbiyaning usul va vositalarini ko‘z oldingizga keltiring va yodda saqlang, tarbiyaga aynan mas‘ul sohalarning aniq vazifalarini ko‘z oldingizdagavdalantiring.

“Komil insonni voyaga yetkazishda tarbiya omillari” jadvalini to‘ldiring

Tarbiyaning usul va vositalari	Tarbiyaga turli soha mutaxassislarini mas‘ulligi	Tarbiyadan ko‘zlangan maqsad

Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

O‘quvchilar ro‘yhati	Tarbiyaning usul va vositalari aniqlangan. – mak. 2 ball.	Tarbiyaga turli soha mutaxassislarining mas‘ulligi va mafkuradan ko‘zlangan maqsadlar aniq ko‘rsatilgan. – mak. 3 ball.	Jami. – mak. 5 ball.

O‘qituvchiga eslatma: guruhlar faoliyatini baholash uchun yuqoridagi jadvalning birinchi ustuniga guruhlar ro‘yxati jumlasini qo‘yiladi. Biroq guruhning to‘plagan ballari o‘quvchilarning reyting bali hisobiga kiritilmaydi. Siz o‘quvchiga hamkorlikda ishlash uning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qilishini tushuntirishga tayyor bo‘ling.

Keys: Dars jarayonidagi nizo va uni hal etish yo‘llari

Shu o‘quv yilidan o‘qituvchi sifatida ish boshlagan, buning ustiga yaqinda ma‘lum muddat tibbiy davolanishda bo‘lib, endigina qaytadan ishga qaytgan Davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchisi M.Tojiyev 8-sinfda ushbu fanidan ma‘ruza mashg‘ulotini o‘tkazayotgan edi.

Tibbiy davolanishda bo‘lganligi bois u darsni o‘zi tayyorlagan konspektga qarab tushuntirib berayotgan edi. U mavzuga oid tushunchani doskaga yozayotgan paytida mazkur sinf o‘quvchisi M.Axmedova o‘qituvchining konspektini olib qo‘ydi. O‘quvchilar kulib yubordilar. Bu holatdan o‘qituvchi biroz o‘zini yo‘qotdi-yu, konspekt daftarini M. Axmedova olganligini bilgach, uni sinfdan chiqib ketishini talab qitldi.

O‘quvchi esa, sinfdan chiqib ketishni xohlamadi. O‘qituvchi undan sinfdan chiqib ketishni talab etdi va oxir-oqibat xonadan chiqarib yubordi. Ertasi kuni darsdan chiqarib yuborilgan qizning onasi nomidan maktab rahbariyatiga shikoyat xati kelib tushdi. Shikoyat xatida o‘quvchi-qizning onasi har qanday holatda ham o‘qituvchi o‘quvchini sinfdan chiqarib

yuborgani pedagogik etikaga zid ish ekanligini, o'qituvchining kompetentligini aniqlash uchun Davlat test markazidan xolis ekspertlar chaqirib, sinovdan o'tkazish va shikoyatga yozma ravishda javob qaytarish, agar kerakli chora ko'rilmasa, yuqori tashkilotlarga murojaat qilishi haqidagi talabni qo'ygan edi.

Ertasi kuni o'quv ishlari bo'yicha maktab direktori M.Tojiyevni bu haqida ogohlantirdi. O'qituvchi esa direktorga u hech qanday ortiqcha harakat qilmagani, o'quvchi qiz uni obro'sizlantirganligini aytib qo'pol munosabatda bo'ldi.

Bir hafta muddat o'tib, direktor ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosaridan mazkur masalani ma'naviy-ma'rifiy ishlar kengashida muhokama qilib, qaror chiqarib berishni so'radi.

Kengash yig'ilishida mazkur masala muhokama etildi. O'qituvchilar har qanday vaziyatda ham M.Tojiyevni qo'llab-quvvatlashlarini bildirdilar. Biroq qizning hali bola ekanligini hisobga olib, undan uzr so'rash haqidagi taklifni kiritishdi. M.Tojiyevga so'z berilganda esa, u pedagoglik odobiga zid hech qanday xatti-harakat sodir yetmaganligini, o'quvchi-qizdan uzr so'ramasligini bildirdi.

Oradan bir hafta muddat o'tib, M.Tojiyev maktab direktorining ishdan bo'shamasligi haqidagi iltimosiga qaramasdan, o'z arizasiga ko'ra vazifasidan ozod etildi.

Yuqorida keltirib o'tilgan vaziyatni tahlil eting. Siz M.Tojiyevning o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz? M.Tojiyevning ishdan bo'shab ketishi to'g'ri bo'ldimi?

Keys yechimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimoti uchun chizma namunasi

Muammo	Muammoning ildizi	Yechim	Natija

Keys asosidagi o'quv mashg'ulotlarida o'quvchilar faoliyatini turli shakllarda tashkil qilish imkoniyati mavjud. Masalan, taklif etilayotgan vaziyat sahnalashtirilishi hamda "Aqliy hujum", bahs-munozara, ilmiy bahslashuv metodlari orqali muhokama qilinishi mumkin.

Ochiq muloqotda asosiy omillar o'quvchilarning ko'nikma va malakalari, o'qituvchining muloqotni tashkil eta olish qobiliyati sanaladi. Savollarni berish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini keys matnidagi aniq axborotga qaratadi, to'g'ri javob berishga undaydi. Keys matndagi muammoni ajratib olish, vaziyatni baholash, hodisa va jarayonni tahlil qilish o'quvchilarning kommunikatsion ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari- ma'lum bir vaktida, o'quvchining ta'limiy, tarbiyaviy, ma'naviy, ruhiy va jismoniy rivojlantirish hamda uni tez o'zgaruvchan dunyoda jamiyatga, hayotga moslashuvini ta'minlovchi ta'lim nazariyasidir.

Rivojlantiruvchi ta'limning maqsadi- O'quvchilarda mantiqiy, tanqidiy, tahliliy, ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali barkamol shaxsni shakllantirish.

Vazifasi:

Shaxsning individual kamol topishi uchun zarur bo'ladigan hayotiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari: O'quvchilarda topshiriqlarni yechishga oid nazariy tushuncha va amaliy ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi;

Rivojlantiruvchi ta'limning asosiy yo'nalishlari:

“MUAMMOLI VAZIYAT” METODI

Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lib, uning asosida “Tafakkur- muammoli vaziyatdan boshlanadi”-degan g'oya yotadi.

Muammoli o'qitish g'oyasi va tamoyillari S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.YA.Lerner tomonidan ishlab chiqilgan.

Muammoli ta'lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 xil ko'rinishga ega.

1. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.
2. Muammoning qo'yilishi.
3. Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shakllantirish o'qituvchiga bog'liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u o'quvchil ar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o'quvchil arning izlanishiga, fikrlashga o'rgatadi.

Muammoli ta'lim o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatni vujudga keltirib, mazkur muammo o'quvchil arning faol, mustaqil faoliyati natijasida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

Muammoli ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metod va texnologiya elementlari:

"Aqliy hujum" metodi "Muammoli vaziyat" metodi, "Muammo" metodi "Juftlikda ishlash", "Kichik guruhda ishlash" "Ishbilarmonlik o'yin" metodi, "Bahs munozara" «SWOT – universal tahlil» metodi, "Keys-stadi» «Xulosalash» (Rezyume), «Loyihalash», "Tushunchalar tahlili" metodi, "Olmos" metodi, "Olti shlyapa" metodi (Edvard de Bone), "Zigzag" metodi, Grafik organayzerlar ("T-sxema", "Baliq skeleti", "Qanday?", "Muammolar daraxti", "Yechimlar daraxti", "Nega?", "To'g'ri-noto'g'ri", "Insert", "Ikki qismli kundalik", "Venn diagrammasi"). "Muammoli vaziyat" metodi ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sababini va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimlarini topish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan metod.

"Muammoli vaziyat" metodining tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

Muammoli vaziyat tavsifini keltirish, o'quvchilarni guruhlariga bo'lish. Guruhlar muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlashi. Guruhlarning muammoli vaziyatni oqibatlari to'g'risidagi fikrlarini jamlanish bosqichi. Guruhlarni muammoli vaziyatni yechimini ishlab chiqish bosqichi.

To'g'ri yechimlarni tanlash bosqichi.

Nazorat savollari:

An'anaviy dars o'tish usuli ta'limning qanday modeli hisoblanadi?

An'anaviy dars qanday bosqichlardan iborat?

Hamkorlikda o'qitishning afzalliklari va o'ziga xosliklarini qiyoslang.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish tamoyillarini ayting.

Hamkorlikda o'qitishga misollar keltiring.

Keys-stadi (Case-stadi) texnologiyalariga Davlat va huquq asoslari fanini dan misollar ishlab chiqing.

Loyihaviy ta'limdan foydalanishning ijtimoiy-pedagogik shartlarini ko'rsating.

O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi qanday amalga oshiriladi?

Vaqtdan unumli foydalanish deganda nimalarni tushunasiz?

Aniq ilmiy bilimlarga tayanish nimalarni o'z ichiga oladi?

O'quvchil ar qanday xolatlarda passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar?

O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchil ar uchun motivasiyani vujudga keltiradimi?

Motivasiyaning yuqori darajada bo'lishi uchun nimalarga ahamiyat berish kerak?

O'quvchil ar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmasligiga nima sabab bo'ladi?

Eslab qolish darajasi hamma o'quvchil arda bir xil bo'lmaganligi qanday xolatni keltirib chiqaradi?

Keys-stadi (Case-stadi) texnologiyalariga tarbiyadan misollar ishlab chiqing.

Har bir guruh bitta kichik mavzuni berilgan matn asosida o'rganib chiqib, boshqa guruhlariga tushuntirib berish uchun tayyorgarlik ko'radi va guruh ichidan bitta taqdimotchi

tayyorlaydi. Taqdimotchining vazifasi o'z materialini mantiqan izchil likda ravon nutq bilan barcha tushuntirishdan iborat. Guruhlarning topshiriqlari quyidagicha:

1-guruh. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitish bo'yicha ilg'or pedagogik tajribalarni dars mashg'ulotlarida qo'llash ahamiyati;

2-guruh. Rivojlangan xorij davlatlarida huquq fanining o'qitilish tajribalari;

3-guruh. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish tartiblari;

4-guruh. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati.

5-guruh. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda keys mashg'ulotlaridan foydalanish tartibi.

(2-ish): Guruhlarning chiqishlari;

4-bosqich.

(1-ish): Guruhlarda bitta interfaol metod bo'yicha ma'lum bir mavzuni tanlab, dars ishlanmasi tayyorlaydilar;

(2-ish): Ishlanmalarning muhokamasi.

5-bosqich. Mavzu bo'yicha savol-javob o'tkazish.

1. Huquq o'qitish metodikasi fanining maqsadi nima?

2. Muammoli ta'lim texnologiyasi qanday texnologiya?

3. Snkveyn metodini tushuntirib bering?

4. Keys texnologiyasi haqida tushuncha bering?

5. Interfaol ta'lim berishning o'ziga xos xususiyatlari nimada?

6. Huquq fani o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering?

6-bosqich. Mustaqil bajarish uchun har bir tinglovchiga mavzu bo'yicha o'z xulosalarini yozib kelish topshiriladi.

3-AMALIY MASHG'ULOT

AMALIY MASHG'ULOTNING MAVZUSI. Ayrim murakkab mavzularni o'qitish samaradorligini oshirish omillari (2 soat amaliy mashg'ulot)

3.1. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishning tashkiliy shakllari, dars, uning turlari va tuzilishi.

3.2. Davlat va huquq asoslari o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar, didaktik materiallar tayyorlash.

3.3. Dars-o'quv va tarbiyaviy ishning asosiy tashkiliy shakli, an'anaviy va noan'anaviy darslar.

3.4. Davlat va huquq asoslari darsiga qo'yiladigan talablar va mavzularining uzviyligi va didaktik jihozlanishi, dars rejasi va uning tarkibiy qismlari.

Tayanch iboralar: dars, tarkibiy qismlar, didaktik materiallar, an'anaviy dars va noan'anaviy darslar, struktura, metod, usul.

3.1. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishning tashkiliy shakllari, dars, uning turlari va tuzilishi.

Davlat va huquq asoslari fani o'quvchilarning huquq sohasidagi bilimlarini, huquqiy madaniyatini shakllantirish hamda qonun hujjatlari bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga hizmat qiladigan fandır. Ana shulardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, davlat va huquq asoslari fani o'quvchilarga huquqiy bilimlar berish orqali ularda huquqiy ong va huquqiy tafakkurni shakllantirish, o'quvchilarga huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ularda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilarda tayanch huquqshunoslik faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish fanning maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, o'quvchilarda konstitutsiyaviy burch,

majburiyatlarni bilish va ularga rioya qilish ko'nikmasini hosil qilish, o'quvchilarda o'z xatti-harakatlarini belgilangan me'yorlar doirasida tartibga solish va boshqara olishni tarbiyalash kabi asosiy vazifalar mavjud.

Pedagoglarni kasbiy tayyorlashda yosh o'qituvchilar uchun tanishtiruv dasturlari muhim ahamiyatga ega.

Murakkab mavzularni o'rgatishda quyidagi tamoyillarni e'tiborga olish lozim:

1. Rejalashtirish. Muammoni belgilash, hamkorlikda darsning batafsil rejasini ishlab chiqish. Maktab o'qituvchilari ari (fan uslubiy birlashmasi a'zolari) yil davomida o'rganish va yechim yo'llarini topish uchun belgilangan muammo (masalan, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'rtasidagi muloqotni rivojlantirish)ni muvaffaqiyatli qiladilar, har bir sinfda qo'llash mumkin bo'lgan o'qitish metodlari va mazmuni o'quv dasturlariga asosan o'rganadilar, dars rejalarini takomillashtirish yo'llarini taklif qiladilar.

2. Amalga oshirish (sinab ko'rish). O'quv dasturi bo'yicha sinov darslarini o'tish. Bu bosqichda o'qituvchilardan biri hamkorlikda ishlab chiqilgan reja bo'yicha dars o'tadi, boshqalar esa uni kuzatadilar. Har bir o'qituvchining o'z vazifasi bor: kimdir dars jarayonini videotasvirga tushiradi, kimdir vaqtni nazorat qiladi, boshqalar kuzatib, tahlil qiladilar.

3. Baholash (tahlil). Dars yakunlangach, barcha o'qituvchilar to'planib, uni muvaffaqiyatli qiladilar. Dars davomida kuzatuvchilar dars maqsadining belgilanishi, o'quv materialining mavzuga mosligi, taqdim etish metodlari, o'qituvchi faoliyati, o'quvchilarning xulqi, o'qituvchi va o'quvchilarning muloqoti va boshqa jihatlarni o'rganadilar. Dars tahlili yutuq va kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi.

4. Qayta ishlash (tatbiq etish). Dars rejalarini, yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish, hisobot, yangi rejani ishlab chiqish. Yakuniy bosqichda o'qituvchilar tahlil davomida bildirilgan fikr-mulohazalar asosida dars rejasini qayta ishlaydilar, pedagoglarning kasbiy layoqat (kompetentsiya)larini rivojlantirish uchun o'qitishning yangi strategiyalarini taklif qiladilar.

Qayta ishlab chiqilgan dars rejasi barcha (shu fan bo'yicha) o'qituvchilarga taklif etiladi. Bunday yondashuv o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda samarali bo'lib, qisqa vaqt ichida ko'zlangan maqsadga erishish, hamkorlikda o'qitish, bir-biridan o'rganish imkoniyatini beradi.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitish jarayoni bevosita dars jarayoni bilan bog'liq. Xo'sh dars nima?

Dars – o'quv ishining asosiy tashkiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchilarning belgilangan dars doirasida o'quvchilarning doimiy tarkibi bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi, jamoaviy bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturiga o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

Dars o'quv ishini tashkil qilishning asosiy shakli, ammo u ta'limning boshqa shakllarini: ma'ruza, amaliyot, laboratoriya mashg'ulotlari, konsultatsiyalar, uy vazifalari, qo'shimcha mashg'ulotlarni rivojlantirishni istisno etmaydi.

Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari fakultativ mashg'ulotlar sanaladi. Ular o'quvchilarning qiziqishlari asosida tashkil etiladi: to'garaklar, klublar, olimpiadalar, viktorinalar, ko'rgazmalar, ekspeditsiyalar va hokazolar.

Dars o'quvchilarning doimiy tarkibi, mashg'ulotlarning aniq belgilangan oldindan tuziladigan jadval va o'quv ishlari biror aniq mavzuda tashkil etilishi kabi o'ziga xosliklarga ega bo'lgan ta'limning jamoa shakli hisoblanadi.

O'qituvchining darsdagi ishi barcha o'quvchilarning darsning o'zidayoq o'rganilayotgan bilim asoslarini egallashlari, zarur ko'nikma va malakalarni hosil qilishlari uchun zamin yaratadi.

Dars turlari va tuzilishi (strukturasi)

Dars - o'quv va tarbiyaviy ishlarning asosiy tashkiliy shakli bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonining maxsus shakllari esa dars samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Darslarning qanday vazifalarni hal etishiga ko'ra turlicha strukturaga ega bo'lgan tiplarga bo'linadi. Struktura – bu dars qismlarining nisbati va o'zaro bog'lanishi bo'lib, ular o'z vazifasi va o'qituvchi bilan o'quvchilarning faoliyati xarakteri bilan farq qiladi.

Demak, yetakchi didaktik vazifa va tuzilishiga ko‘ra darslar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1) yangi materialni o‘rganish darslari – bu darsda faqat yangi bilimlar beriladi;
- 2) kombinatsion darslar (aralash darslar) – bunda o‘qituvchi o‘tilgan mavzuni nazorat qilib baholashi bilan birgalikda yangi materialni tushuntiradi, mustahkamlaydi);
- 3) bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash darslari – bunda o‘qituvchi faqat uy vazifasini nazorat qilib baholaydi;
- 4) mashqlar va amaliy ishlar darslari;
- 5) umumlashtiruvchi takrorlash darslari;
- 6) laboratoriya darslari;
- 7) o‘quvchilar bilimini nazorat qilish, nazorat qilish va baholash darslari.

Yangi materialni bayon qilish darslari bosqichlari: o‘quvchilarni darslarga jalb etish, mavzu bayoni (yangi bilimlar berish), qisqa nazorat-mustahkamlash, uyga vazifa berish.

O‘rganilgan materialni mustahkamlash va amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish darslari uning yanada chuqurroq anglash va o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llash maqsadidan kelib chiqib, hamma sinflarda alohida mavzuni yoki bo‘limlarni o‘rganilgandan keyin o‘tilgan materialni takrorlashga yo‘naltirilib o‘tkaziladi.

Takrorlash, tizimlashtirish va umumlashtirish darslari o‘quv dasturining katta bo‘limlarini takrorlash bilan bog‘liq va darhol mavzularni o‘rganilgandan keyin yoki o‘quv yili oxirida o‘tkaziladi.

Bulardan tashqari standart bo‘lmagan, innovatsion dars shakllari ham keng qo‘llaniladi: seminar-darslar, konferensiya-darslar, rolli o‘yinlar, integrallashgan darslar.

3.2. Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi aloqalar, didaktik materiallar tayyorlash.

Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi aloqalar fanini o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlari (maqsadi, mazmuni, o‘qitishning metod va usullari, natijalari) o‘rtasidagi qonuniyatli aloqalar quyidagicha namoyon bo‘ladi: o‘rta ta‘lim va professional ta‘lim tizimida maqsadi, ta‘lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o‘qitishning mazmuniga, huquqiy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo‘lishiga bog‘liq bo‘lganidek, o‘quvchilarning Davlat va huquq asoslari fanini o‘zlashtirish darajasi ham o‘z navbatida o‘qitishning o‘rganiladigan mavzuning maqsadi, ta‘lim-tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan ta‘lim shakllari, o‘qitish metod va usullari hamda vositalaridan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishiga bog‘liqdir.

Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bu o‘zaro dialektik bog‘lanish natijasida ular bir-biriga uzluksiz ta‘sir ko‘rsatib boradi. Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda ana shu qonuniyatlarga suyanmasdan, ularni e‘tiborga olmasdan turib yaxshi natijaga erishib bo‘lmaydi.

Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitish deganda, fanni ilmiy va huquqiy materiallar vositasida o‘quvchilarga bilim berish, ularning huquqiy madaniyat ruhida tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish zarur bo‘lgan jarayon, o‘qituvchi va o‘quvchilarni aqliy (ichki) hamda o‘quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi.

Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishni tashkil qilish deganda, fanni o‘qitish va o‘quvchilarni o‘rganishni tashkil etish, ularning o‘rganish faoliyatini o‘qituvchilarni boshqarishiga yordam beradigan usullar, o‘quvchilardagi mavjud bilimlarni ishga solish ularni ijodiy bilishga va vazifalari yo‘naltiriladigan topshiriqlar sistemasi hamda ta‘limning turlari tushuniladi.

O‘qitishning natijalari deganda esa, fanni o‘qitishning maqsad va vazifalarini, mazmunini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilishi, o‘quvchilarning davlat va huquq fani asoslarini, huquqiy materiallarga mos samarali usullarni bilish va mazkur bilimlardan foydalana bilish malakalarini o‘zlashtirishlari shu asosda o‘quvchilarning huquqiy tafakkuri, maxsus va umumiy qobiliyatlarini o‘stirish ko‘zda tutiladi.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitish maqsadlarini belgilashda, avvalo huquqiy ta'lim va tarbiyaning uzviy birligini, o'qitish davomida o'quvchilarning huquqiy-siyosiy saviyasi mutassil o'sib borishini, ularda ko'nikma va malakalar hosil qilishni hamda ijodiy faoliyatga tayyorlanishlarini nazarda tutmoq kerak.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitish metodikasi huquqshunoslik fani bilan uzviy bog'liqdir. O'quvchilarning yangi faktlarni tahlil etish va ulardan zarur xulosalarni chiqarish paytida o'rgangan bilimlari juda ham mustahkam va ishonarli bo'ladi, shuningdek, o'quvchilar mustaqil fikrlashga o'rganadi, bu ularni tadqiqot olib borishni dastlabki usullari bilan tanishtirishga yordam beradi.

3.3. Dars-o'quv va tarbiyaviy ishning asosiy tashkiliy shakli, an'anaviy va noan'anaviy darslar.

O'nlab yillab o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars o'tish ta'limning o'ziga xos modellaridan biri bo'lib qolmoqda.

An'anaviy dars - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir.

An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib o'quvchil ar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchil ariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli - tuman o'quvchil ar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o'quvchil arning o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib kelar ekan.

An'anaviy dars o'tishning asosiy tarkibiy qismlari

1. Kirish.

- o'tgan materialni takrorlash;
- dars maqsadini tushuntirish;
- dars mazmuni va rejasi bilan tanishtirish.

2. Yangi mavzuni yoritish.

- yangi mavzuni kichik-kichik bo'lakchalarga bo'lib berish;
- rang-barang misollarni imkoni boricha ko'rgazmali taqdim qilish - mavzudan chetlashmaslik;
- materialning murakkab tomonlarini qayta tushuntirish - o'quvchil arning tushunuvchanlik darajasini tekshirib borish - teskari aloqani ta'minlash.

3. «Teta - poya» mashqi.

Biror misol (yoki masalani) o'quvchil ar bilan qadamma-qadam hal qilish va tahlil qilish.

4. Yo'naltirib turiluvchi mashq.

O'quvchilar mashq (yoki masalani) mustaqil bajarishadi, o'qituvchi esa ularni nazorat qilib, tuzatish kiritib boradi.

5. Mustaqil bajariladigan mashq.

O'quvchil ar mashqni mustaqil holda o'qituvchi yordamisiz bajarishadi.

6. O'quvchilar mavzuni tushunganlik darajasini tekshirish.

7. Yakunlash.

Dars mavzusining asosiy tushunchalari va o'quv maqsadlarini jamlash.

O'qitishning zamonaviy modellari.

Bu modellarni shartli ravishda 3 ga ajratish mumkin:

- hamkorlikda o'rganish modeli;
- modellashtirish;
- o'rganishning tadqiqot modeli.

An'anaviy (ta'lim jarayoni markazida o'qituvchi bo'lgan) metodlarning afzalliklari:

- Ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni

o'rganishda foydali;

- O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi;

- Vaqtdan unumli foydalanish;
- Aniq ilmiy bilimlarga tayanadi;

Kamchiliklari

- O'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar;
- O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivasiyani vujudga keltirmaydi;

- O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi;
- Eslab qolish darajasi hamma o'quvchil arda bir xil bo'lmaganligi sababli, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin;

- Mustaqil o'rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratiladi;

Zamonaviy (ta'lim jarayoni markazida o'quvchi bo'lgan) o'qitish metodlarining afzalliklari:

- O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- O'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi;
- Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi;
- O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi;
- Motivasiyaning yuqori darajada bo'lishi;
- O'tilgan materialning yaxshi eslab qolishi;
- Muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;
- O'z-o'zini baholashning o'sishi;
- O'quvchilarning predmetning mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati;

- Mustaqil fikrlay oldaigan o'quvchining shakllanishiga yordam berish;
- Nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirish;

- Muammolar yechish ko'nikmalarining shakllanishi.

Kamchiliklari

- Ko'p vaqt talab etilishi;
- O'quvchilarni har doim ham kerakli nazorat qilish imkoniyatining pastligi;
- Juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi;

- «Kuchsiz» o'quvchilar bo'lganligi sababli «kuchli» o'quvchilarning ham past baho olishi;

O'qituvchining o'zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolarni yechish ko'nikmalariga ega bo'lishining talab etilishi.

O'qitish jarayonidagi mavjud an'anaviy ta'lim bilan qurollangan ta'lim muassasalari endilikda o'z oldiga qo'yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishga o'z qiziqishini qo'yib qolmoqda.

An'anaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ma'ruza, seminar, sinov darslarining ta'lim jarayonida tutgan o'rni va qimmatini kamaytirmagan holda, ularni hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish yo'llari ustida qaygurish zarur.

Mazkur darslarni takomillashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi ko'zda tutiladi:

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish. Hamkorlik pedagogikasiga amal qilish.

1. Ta'lim jarayonini demokratlashtirish. O'quvchilarga tanlash huquqini berish.
2. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, o'zaro hamjihatlikka asoslangan qulay ijtimoiy - psixologik muhit yaratish.
3. O'quvchilarning ijodiy va mustaqil ishlarini samarali tashkil etish.
4. Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyasi

elementlaridan foydalanish.

Amaliy mashg'ulot topshiriqlari

1-topshiriq. “Dars muqaddas” bo'yicha dars ishlanma strukturasi ishlab chiqish va guruhlariga muhokamasini yuzaga keltirish.

2-topshiriq. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari (maqsadi, mazmuni, o'qitishning metod va usullari, natijalari) o'rtasidagi qonuniyatli aloqalarning qanday namoyon bo'lishiga ma'lumot bering.

3 - topshiriq. Davlat va huquq asoslari darslarida ta'lim-tarbiya masalalarida mutafakkirlarimiz merosidan foydalanish bo'yicha guruh ishini tashkil etish va baholab borish.

“Kichik guruhlarda ishlash” meodini qo'llash algartmi:

1. Faoliyatni tanlash. Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada o'quvchilar uni o'rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko'rsatishlari zarur bo'ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2.Zaruriy asos yaratish. O'quvchilar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo'yicha ba'zi bilim, ko'nikma va malakalarni oldindan egallagan bo'lishlari kerak.

3.Guruhni shakllantirish. Odatda har bir guruhda 3-5 o'quvchi bo'ladi, (ehtimol, kam yoki ko'p bo'lishi mumkin). Agar guruhda ishlash u yoki bu yozma topshiriq tayyorlashni talab etsa, 2-3 kishili guruh tuzilgani ma'qul. Guruh o'lchovi masalaning muhimligi, sinfdagi o'quvchil ar soni, o'quvchil arning bir-biri bilan konstruktiv holatda o'zaro harakatiga bog'liq holda o'zgaradi. Eng yaxshisi, “getrogen” guruh tashkil etishidir (jinsi, o'zlashtirish darajasi va boshqa belgilar asosida). Guruhda ishlash o'quvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi. (Misol uchun, bir o'quvchi munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchisi spiker (sardor) rolini o'taydi va hokazo). Sinfni guruhlariga ajratish, hohish bo'yicha yoki hisob bo'yicha amalga oshiriladi.

4.Aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish. O'quvchilarga faoliyatni bajarish bo'yicha aniq va hajm jihatdan ko'p bo'lmagan tushuntirish beriladi. O'qituvchi guruhlarining ishlash tezligi turlicha bo'lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli materiallar va axborotlar bilan ta'minlanadi. O'quvchilar guruhda ishni boshlashlari uchun vazifalarini aniq tushunib yetganligi tekshirib ko'riladi.

5.Qo'llab quvvatlash va yo'naltirish. O'qituvchi zarurat tug'lsa guruhlar yoniga navbatma-navbat kelib to'g'ri yo'nalishda ishlayotganligini qayd etadi yoki ularga yordam beradi, guruhlariga ta'ziyq o'tkazilmaydi.

6.Muhokama qilish va baholash. Guruhlarda ish yakunlangach, ular natijalari bo'yicha axborot beradilar. Buning uchun har bir guruh o'z sardorini belgilaydi. Zarurat tug'lsa, faoliyat natijalari bo'yicha bildirilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan yozilib borildi. Muhimi, guruhning yechimining asoslanishini aniqlashtirib olishdi. Agar vaqt yetarlicha bo'lsa, u yoki bu fikrni argumentlashda guruhlar bir-biriga savol ham berishlari mumkin. Kichik guruhlarda ishlash natijalari o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyatni to'g'ri va aniq bajarish, vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi.

“O'Z O'RNINGNI TOP”

Agar sinfdan u yoki bu mavzu bo'yicha tortishuvlar vujudga kelsa bu metod yordamida muammoning yechimini topish mumkin. Undan ko'pincha darsning kirish qismida foydalanishadi va o'tilayotgan mavzuni o'rganishga turli xil yondashuvlar mavjudligi namoyish etiladi. Bu bir tomondan. Ikkinchidan, o'quvchil arga o'z fikrini bayon qilishga, muloqot ko'nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Uchinchidan, dars so'ngida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

1.Sinfning qarama-qarshi burchaklariga ikkita plakat osiladi. Ularning biriga “Roziman”, boshqasiga “Rozi emasman” degan so'zlar yozilishi kerak. Plakatlarda ba'zi bir mavzuga oid savollar bo'yicha bildirilgan qarama-qarshi fikrlar ham yozilish mumkin. Masalan: “Anjir gullaydi va meva tugadi”, yoki “Anjir gullamasdan meva tugadi”.

2. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi.

3. qaralayotgan muammo yuzasidan o'z fikrlariga mos keladigan plakat yoniga borish zarurligi o'quvchil arga taklif etildi.

4. Bo'lingan o'quvchil ardan o'z qarxsil arini asoslash so'raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tish ruxsat etiladi va shu tariqa sinf o'quvchil arining hammasi jalb etildi.

5. Muammo bo'yicha fikrlar bildirilgach, o'quvchil ar ichida munozara davomida o'z nuqtai nazarini o'zgartirganlar va boshqa guruhga o'tuvchil ar bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ular o'z o'rnini o'zgartirish sabablarini asoslashi kerak bo'ladi.

6. Ishtirokchil ardan opponentlari ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytgan o'quvchil arni aniqlash so'raladi.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda loyiha metodidan foydalanish.

Loyihaviy ta'lim pedagogika amaliyotida qat'iy yangi tushuncha emas, pedagogikada "o'quv loyihasi" tushunchasi 300 yildan ortiq qo'llanilib kelmoqda.

Nemis pedagogi M. Knollning tadqiqotiga ko'ra, "loyiha" (*o'quv loyihasi.*) tushunchasining paydo bo'lishi XVI asrga taalluqli bo'lib, italiyalik me'morlarning me'morlikni fan deb e'lon qilib, uni o'quv fanlari darajasiga chiqargan holda o'z faoliyatlarini kasbga aylantirishga urinishlari bilan bog'liq.

XVIII asr oxirida muhandislik kasblari paydo bo'lishi natijasida o'quv loyihasi dastlab Fransiya, so'ngra Germaniya, Avstriya, Shveysariyadagi, XIX asr o'rtalarida esa AQSHdagi texnika va sanoat oliy maktablarida tarqaldi.

Nemis tadqiqodchisi M.Knollning ta'kidlashicha, o'quv loyihasining Yevropadan Amerikaga arxitekturadan muhandislik ishiga o'tishi tabiiyki, uning turi, asoslash va qo'llash usuliga ta'sir etdi. Mashinasozlik sohasi professori S. Robinson tahsil olayotganlardan nafaqat chizma taxtasida loyihalarni yaratish, balki ularni ustaxonalarda loyihalashtirilgan buyumni tayyorlash jarayonini bajarish orqali amalga oshirishni talab etardi. S. Robinson "amaliy muhandislarni" tayyorlashda loyiha ishining yetakchi roli to'g'risidagi fikrni bayon etish, shuningdek uning ishlab chiqarish sinflari tajribasi bilan aloqasini hisobga olgan holda, loyihalashni yoshlarning ijtimoiy rivojlanishiga imkon beruvchi "demokratik" ish deb atadi.

Loyihalar usuli "o'qitish usuli" didaktik toifa sifatida XIX asr boshlarida shakllandi. Bu davrda pragmatik pedagogika doirasida "erkin tarbiya" g'oyalari yuzaga keldi. Tahsil oluvchiga olamni shaxsiy tajribasida faol o'rganish imkonini berish orqali unda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish zarurligiga ishonish bu turli-tuman yondashuvlarni birlashtiruvchi kuch bo'ldi. Pragmatik pedagogika asoschisi amerikalik faylasuf va pedagog Dj. Dyui ta'limga quyidagi yangicha insonparvarona yondashuvning asosiy konseptual qoidalarini ishlab chiqdi va asosladi:

- amaliy natija beruvchi ishgina haqiqiy va qimmatli hisoblanadi;
- bola ontogenezda atrof olamni bilishda insoniyat bosib o'tgan yo'lni takrorlaydi (induksiya usuli orqali xususiydan umumiyga);
- bilimlarni o'zlashtirish – tabiiy, boshqarilmaydigan jarayon;
- bola ta'limning faol sub'ekti bo'lgan holda, bilimlarga ehtiyoj yuzaga kelgandagina axborotni o'zlashtirishi mumkin.

Dj. Dyui nazariyasiga ko'ra, muvaffaqiyatli ta'lim shartlari quyidagilar hisoblanadi:

- o'quv materiallarining muammosi;
- bolaning bilish faolligi;
- ta'limning bola hayotiy tajribasi bilan aloqasi;
- ta'limni faoliyat (o'yin, mehnat) sifatida tashkil etish.

Loyiha – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli.

Loyiha dastur, model, texnologik xarita va b. ko'rinishda namoyon bo'ladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g'oya tashkil etadi.

Loyihalash metodi- pedagogikaning pragmatik yo'nalishiga asoslangan holda, ta'lim jarayonida o'quvchil arga beriladigan amaliy topshiriqlarni loyihalash va ularni o'quvchil arning bajarishlari jarayonida bilim va ko'nikmalarni namoyon qilishlarini ta'minlovchi ta'lim shakli (Pedagogik atamalar lug'ati R.X.Djuraev, O'.Q.Tolipov, R.G'. Safarova, X.O. To'raqulov,

M.E.Inoyatova, M.S.Divanova. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti -2008)

Loyihalash – boshlang‘ich ma‘lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat.

Loyihalash **“g‘oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejalashtirish”** tizimiga asoslanadi. Loyihalash turli vositalar, ya‘ni moddiy buyum, qurollar, m: kompyuter texnologiyasi, vatmon yoki oddiy ish qog‘ozi, chizg‘ich, qalam, marker, nusxa ko‘chirish apparati (printer) va b. yordamida amalga oshiriladi.

Loyihani yaratish uchun pedagog:

- loyihani yaratish;
- jarayonni bosqichma-bosqich yoritish;
- maqsadni aniq belgilash;
- maqsadga mos vazifalarni aniqlash;
- o‘quv materialini mazmunini shakllantirish;
- savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- jarayon yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
- o‘quvchi bilim darajasini tashxislash va uning tarbiyalanganlik darajasini baholash kabi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi zarur.

Ta‘lim jarayonini loyihalash – alohida olingan ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish.

Ta‘lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari va tamoyillari:

Pedagogik amaliyot mohiyatini tahlil etish natijasida ta‘lim jarayonini loyihalashning bir necha qonuniyatlari ajratiladi, chunonchi:

1) ta‘lim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisoiy ta‘minot)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta‘minlanadi;

2) ta‘limning texnologik vositalari o‘quvchilarning individual xususiyatlariga bog‘liq holda tanlanadi;

3) loyihalash strategiyalari pedagogning individual uslubiga muvofiq tanlanadi;

4) loyihalash sifati teskari aloqa (pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi) ko‘lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog‘liq.

Uzluksiz ta‘lim tizimining barcha turlarida ta‘lim jarayonini loyihalashda bir qator tamoyillarga tayaniladi. Ayni o‘rinda dastlab tamoyil tushunchasining mohiyatini anglab olish zarur.

Tamoyil (latincha principium-boshlang‘ich asos)- muayyan nazariya, fan, dunyoqarash, ijtimoiy-siyosiy tuzilma va hakazolarning asosiy boshlang‘ich holati ma‘nosini anglatadi.

Ta‘lim jarayonini loyihalash tamoyillari:

1. Markazlashtirilgan tamoyil
2. Refleksiv tamoyil
3. Natijaviylik tamoyil
4. Ko‘p omillik tamoyili
5. O‘quvchi shaxsini ta‘lim jarayoniga moslashtirish tamoyili
6. Ta‘lim jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili

O‘quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta‘lim mazmunini, ta‘lim maqsadi, kutilayotgan natijani to‘g‘ri belgilash, ta‘lim metodlari, shakllari va vositalarini to‘g‘ri tanlash, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlari oldindan ishlab chiqish, mashg‘ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to‘g‘ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg‘unlashuviga e‘tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

O‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rishning asosiy bosqichi – o‘quv jarayonini loyihalashtirish hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1. Darsning maqsadi va natijasini belgilash.

2. Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.
3. Ta'lim resurslarini tanlash.
4. O'qitish va o'qish strategiyasini belgilash.
5. Dars turini tanlash.
6. Darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish.

Dars maqsadi va natijasini belgilash – o'qitish va o'qish jarayonlarining eng muhim omili bo'lib, ta'lim jarayonida aynan ular etakchi o'rin tutadi. Darsning maqsad va natijasi DTS talablaridan kelib chiqib aniqlanadi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish kerakki, darsning maqsadi o'qituvchi tomonidan o'quvchiga qanday bilim, ko'nikma va malakalarning berilishi nuqtai nazaridan emas, balki o'quvchil ar tomonidan darsda qanday bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi muhimligidan kelib chiqib belgilanishi zarur. Ya'ni dars maqsadi aniq bo'lishi kerak.

Dars maqsadining aniq bo'lishiga erishish uchun o'qituvchidan quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:

1) darsda yuzaga keladigan didaktik jarayon ma'lum sharoit va belgilangan vaqt ichida ta'lim maqsadiga erishishni to'la ta'minlay olishi;

2) o'qitish jarayonining yakuni bo'yicha maqsadni amalga oshirish darajasi to'g'risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi.

Shunga ko'ra aytish mumkinki, ta'lim maqsadlari o'quvchilarning harakatlarida ifodalanadigan ta'lim natijalari belgilanadi.

Ta'lim texnologiyasining keyingi eng muhim komponenti – kutilayotgan natijadir. Binobarin, u o'qitish jarayonining samaradorligini aks ettiradi va maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi, o'qitish va o'qish jarayoni, natija qo'yilgan maqsadga mos kelganda yakunlanadi.

Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish – darsning didaktik maqsadi, kutilayotgan natija, o'quv materialning mazmuni asosida nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, ularning hajmi, bajarilganlik darajasi, bajarilish sifati, vaqtiga ko'ra baholash mezonlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Ta'lim resurslarini tanlash – mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda o'qituvchi, o'quvchi va darsni tashkil etish uchun ta'lim vositalarining o'rinli tanlanilishini, ulardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanishni ko'zda tutadi.

O'qitish va o'qish strategiyasi – belgilangan o'quv materiallarini o'quvchil ar ongiga etkazish yo'llarini, ya'ni tanlangan ta'lim metodi, shakllarining amalda qo'llanilishini ko'zda tutadi.

Darsning turini tanlash – o'qituvchining mahoratiga ko'ra darsning didaktik maqsadi, o'quv materialining mazmuni, dars uchun ajratilgan vaqt, shuningdek, zarur shart-sharoitning tanlanilishini ifodalaydi.

Darsning texnologik xaritasi – dars ishlanmasining asosiy o'zagini tashkil etadi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Darsning texnologik xaritasi xususida ma'ruzaning keyingi o'rinlarida alohida to'xtalib o'tiladi.

Ta'lim jarayonini loyihalash bosqichlari va asosiy vazifalari

Ta'lim jarayonni loyihalash: **loyiha – mazmun – faoliyat** uchligi asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.

Ta'lim jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi:

1. Loyihani yaratish;
2. O'quvchilar faoliyatini tashxislash;
3. Pedagogik jarayonni tashkil etish;
4. Pedagogik jarayonning samarali kechishini ta'minlash;
5. O'quvchil ar faoliyatini nazorat qilish;

Ta'lim jarayonini loyihalashda bajariladigan asosiy vazifalar quyidagilardir:

- 1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;

- 2) natijalarni oldindin ko‘ra bilish;
- 3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish.

Dars ishlanmasi – bu ta‘limiy mazmunga ega loyiha, shuningdek, o‘qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo‘lgan hujjat hisoblanadi. Uni tuzishda o‘qituvchining dars jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, dars mazmuni boyitish, ta‘lim samaradorligini oshirish **maqsadi** ko‘zlanadi. Dars ishlanmasini yildan-yilga takomillashtirib va mukammallashtirib borish, yangi metodlarni qo‘llash, yangi materiallarni kiritish bilan yangilab turilishi lozim. Binobarin, ta‘lim jarayoniga yangi DTS, o‘quv dasturlari, zamonaviy ta‘lim texnologiyalarning joriy etilishi, o‘qituvchi tomonidan yangi axborot texnologiyalari, zamonaviy texnik vositalarining qo‘llanishi bilan dars ishlanmalariga qo‘yilgan talablar ham o‘zgarib boradi. Dars loyihasi (ishlanmasi)ni uchun tayyor, standart qolip mavjud emas.

Ta‘lim jarayonini loyihalash, odatda, texnologik pasport va texnologik xaritalar vositasida amalga oshiriladi.

Texnologik pasport (pedagogikada) – ta‘lim yoki ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirning asosiy ko‘rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat.

O‘quv mashg‘ulotining texnologik pasporti

Ma‘ruza mavzusi	
Ma‘ruzaga ajratilgan vaqt	O‘quvchil ar soni
O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi	
O‘quv mashg‘ulotining tuzilishi	
O‘quv mashg‘ulotning maqsadi:	
Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyati natijalari:
Ta‘lim metodlari	
Ta‘limni tashkil etish shakli	
Didaktik vositalar	
Ta‘limni tashkil etish sharoiti	
Nazorat	

3.4. Davlat va huquq asoslari darsiga qo‘yiladigan talablar va mavzularining uzviyligi va didaktik jihozlanishi, dars rejasi va uning tarkibiy qismlari.

Darsni rejalashtirish o‘rta makablarda o‘rganiladigan barcha predmetlarni shu bilan birga tarbiya o‘qitishni ham muvaffaqiyatli amalga oshirish garovidir. Rejaning qaysi tipi bo‘lmasin (hoh dars rejasi, hoh tematik, kalendar yoki yakuniy) u o‘quv materialini barcha psixologik va metodik qonuniyatlar, prinsiplar asosida ma‘lum bir davrga bo‘lib o‘rganishni taqazo etadi va tegishli ko‘nikma va malakalarni o‘stirishni nazarda tutadi.

Rejalashtirishda quyidagilarga e‘tibor qaratmoq kerak:

- a) boshlang‘ich bosqichida tarbiya darsini tashkil qilishni rejalashtirish;
- b) sinfdagi o‘quvchil arning bilim darajalarini hisobga olgan holda darsni rejalashtirish;
- c) darsni rejalashtirish o‘quv yili boshlanishidan oldin bajarilishi kerak;
- d) o‘qituvchi darslikni va undagi tarbiyaviy ma‘lumotlar va va ular asosida shakllantirilishi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonlarni yaxshi bilishi va taxlil qila olishi lozim;
- e) o‘qitishning shart-sharoitlarini, psixologik qonuniyatlarini, mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur, bilim va ko‘nikmalarini hosil qilish bosqichlaridan yaxshi xabardor bo‘lishi;
- f) zamonaviy darslarga qo‘yilgan asosiy talablarni bilish.

Tematik rejalashtirish.

Darsni 2 xil rejalashtirish farqlanadi:

1. Tematik rejalashtirish
2. Kundalik dars rejalashtirish.

Darsni rejalashtirishning asosiy maqsadi davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishning maqsadi, vazifalari, til materialining hajmi, dars jarayoniga kiritish ketma-ketligi va shunga mos

ravishda nutqiy ko'nikma malakalar hosil qilishdan iborat. Rejalashtirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar oldindan aniqlanadi va uni bartaraf qilish yo'llari va tegishli mashg'ulotlar tuziladi. Rejalashtirish bir necha bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra yillik reja, tematik reja va oddiy bir dars rejasini farqlash mumkin. Yillik reja darslik mualliflari tomonidan tuziladi. U o'z navbatida yarim yillik va chorak rejalariga bo'linadi. Unda o'rganiladigan mavzular aniqlashtiriladi.

Har bir mavzuni o'rgatishga ajratilgan dars soatlari bilimlar ko'lami, o'tkaziladigan nazorat turlari vaqti hisobga olinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, har qanday yillik reja yaxshi tayyorgarlik asosida tuzilmog'i lozim. Agar biron bir sababga ko'ra rejaga o'zgartirishlar kiritiladigan bo'lsa, ular yarim yillik va choraklik rejalarida o'z aksini topishi kerak. Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchilari ari shahar yoki tuman metod birlashmalari tomonidan tavsiya etilgan rejalar asosida ish olib borishadi. Tematik reja metod birlashma tomonidan tuzilsada, u o'qituvchining tashabbuskorligini cheklab qo'ymasligi kerak. Tematik rejalashtirishning asosiy vazifasi bu ma'lum mavzuni o'rganish natijasida erisilgan adigan yakuniy maqsadni aniqlashdir. O'qituvchi darsga tayyorlana turib, tematik reja tuzadi. Buni quyidagi jadval turida ko'rsatish mumkin:

Dars	Dars mavzusi	Asosiy tushuncha	Asosiy adabiyotlar	Fanlararo bog'lanish	O'qitish usuli	Dars tipi
------	--------------	------------------	--------------------	----------------------	----------------	-----------

Darsga tayyorgarlik ko'ra turib, avvalo o'qituvchi uning maqsadini aniqlaydi. Bu tayyorgarlikning murakkab va ahamiyatli momenti. Unda tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar birlashtiriladi. O'qituvchi birinchi navbatda darsning maqsadi bo'yicha ish olib boradi. Darsga tayyorgarlik darsning rejasini tuzish bilan yakunlanadi. Dars rejasida dars mavzusi, maqsadi, dars tuzilish elementlarining mazmuni, o'qituvchilari bilan olib boriladigan ishlarning xarakteri, darsning tuzilishlariga ketadigan vaqt ko'rsatiladi.

Tematik reja asosida o'qituvchi har bir darsga alohida kundalik reja tuzadi.

Kundalik reja quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ma'lum bir dars yakunida nimaga erishishni;
- qo'yilgan vazifani amalga oshirish uchun qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan materialini o'rganishni;
- belgilangan maqsadga erishish yo'llarini aniqlashni.

Kundalik rejada dars mavzusi, maqsadlari, jihozlanishi va darsni tashkil qilish bosqichlari o'z ifodasini topadi.

Dars strukturasi quyidagilar kiradi:

- ✓ Darsning boshlanishi (tashkiliy, davomatni aniqlash, dars muhitini hosil qilish);
- ✓ Takrorlash uchun ijodiy mashg'ulot o'tkazish (faollashtiruvchi savol-javoblar, atamalar, tarixiy shaxslar bo'yicha)
- ✓ Uy vazifasini tekshirish;
- ✓ Yangi o'quv materialini dars jarayoniga kiritishning texnologik ketma-ketligi)
- ✓ Baholash;
- ✓ Uy vazifasini berish (har bir vazifa o'quvchilarga tushuntirib berilishi lozim)
- ✓ Darsning oxiri: yakunlash.

Nazorat savollari:

1. Darsning didaktik asoslari haqida gapiring.
2. Tarix darsining qanday xususiyatlarini bilasiz?
3. Dars kuzatuvchining majburiyatlari nimadan iborat?
4. Darsda qanday maqsadlar qo'yiladi?
5. Dars bosqichlari haqida gapiring.
6. O'qituvchiga qanday talablar qo'yiladi?
7. Zamonaviy darsga qanday talablar qo'yilgan?

4-AMALIY MASHG'ULOT

AMALIY MASHG'ULOTNING MAVZUSI. Davlat va huquq asoslari fani bo'yicha dars mashg'ulotlarni tayyorlash, kuzatish va tahlil qilish (2 soat amaliy).

Amaliy mashg'ulotdan maqsad: tinglovchilarni Davlat va huquq asoslari fani bo'yicha dars mashg'ulotlarni tayyorlash, kuzatish tartiblari bilan tanishtirish va tahlil qilishga oid ko'nikmalarni rivojlantirish

AMALIY MASHG'ULOTNI TASHKIL ETISH TARTIBI: Ma'lumki, amaliy mashg'ulotlar ma'ruza darslaridan tubdan farq qiladi. Ya'ni, mashg'ulotning bu turi – professor-o'qituvchini ta'lim oluvchilar bilan faol muloqotga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay olish uchun zaruriy shart-sharoitni ta'minlovchi ta'limni tashkil etish shaklidir.

Amaliy mashg'ulotlar quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi:

- 1) nazariy materialni tartibga solish;
- 2) bilimlarni mustahkamlash;
- 3) ko'nikma va malakalarni hosil qilish;
- 4) bilimlarni nazorat qilish.

Amaliy mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda quyidagi savollarga javob topiladi:

1. Nima uchun? – Amaliy mashg'ulotni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad.
2. Qanday tarzda? – Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasini ishlab chiqish.
3. Nimani muhokama qilish? – Amaliy mashg'ulotni olib borish vaqtida muhokama qilinadigan materiallar mazmuni.
4. Qanday omillarni hisobga olish zarur?

Amaliy mashg'ulotni tashkil etish jarayonida ma'lum shart-sharoitlar (tinglovchilarning tayyorgarlik darajasi, bilish imkoniyati kabilarni) hisobga olish. Ana shu savollarning munosib javobini topish jarayonida "Davlat va huquq asoslari fani bo'yicha dars mashg'ulotlarni tayyorlash, kuzatish va tahlil qilish" mavzusidagi amaliy mashg'ulotga «Kichik guruhlararo musobaqa» metodini tanlab oldik. Nazarimizda «Kichik guruhlararo musobaqa» metodi mazkur amaliy mashg'ulot mavzusining mazmun-mohiyatiga mos keladi.

Mazkur metodni quyidagicha qo'llash tavsiya etiladi: Kirish qismi yakunlanib, o'qituvchi tomonidan amaliy mashg'ulot uchun tanlangan metodning mohiyati va o'tkazish tartibi tushuntirilgach, tinglovchilar beshta kichik guruhlariga bo'linadilar va darsning asosiy qismi boshlanadi. Dastlab beshta konvert olinib, mavzuni o'rganish yuzasidan tuzib olingan beshta reja beshta kartochkaga yozilib konvertlarga joylanadi.

O'qituvchi konvertlarni aylantiradi va o'z stoli ustiga terib qo'yadi. Kichik guruhlardan bittadan vakillar chiqib o'z guruhi uchun konvert tanlaydi va konvertni ochib guruhning chekiga tushgan rejani o'qib eshittiradi. Shu tariqa beshta guruh o'zlarining aniq yo'nalishlariga ega bo'ladilar.

1-guruh: "Davlat va huquq asoslari fani bo'yicha bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish" mavzusiga;

2-guruh: "Davlat va huquq asoslari fani bo'yicha bo'yicha trening o'tkazish tartibi" mavzusiga;

3-guruh: "Davlat va huquq asoslari darslarida o'qituvchilarning mustaqil ta'limni tashkil etish tartiblari" mavzusiga;

4-guruh: "Davlat va huquq asoslari fani bo'yicha ochiq mashg'ulotlarga tayyorlanish uslub va tartiblari" mavzusiga;

5-guruh: "Davlat va huquq asoslari fanidan ochiq mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil qilish qanday amalga oshiriladi" mavzusiga tayyorlanishlari kerak bo'ladi.

Guruh a'zolari tayyorlanishlari, to'g'rirog'i fikrlarini jamlab olishlari uchun uzog'i bilan 5-8 daqiqa ajratiladi. Bu vaqt davomida har bir guruh o'z oldiga tayyorlab qo'yilgan plakat

yoki oddiy qog'ozga o'z mavzulari yuzasidan ma'lumotlarni yozib oladilar. O'qituvchi belgilangan vaqt tugaganini e'lon qilishi bilan ular o'zaro fikrlashish yoki yozishni to'xtatishadi.

So'ng munozara yoki fikr almashish boshlanadi. Bunda o'qituvchi avvalo birinchi bo'lib tayyormiz, deb qo'l ko'targan guruhga navbat beradi. Beshta guruh ham birdaniga tayyor bo'lishsa, qur'a tashlash usuli qo'llaniladi va shu asosda navbat bilan javoblar tinglanadi. Har bir guruh uchun 10-12 daqiqa vaqt ajratiladi. Masalan, uchinchi guruh birinchi bo'lib javob berishi aniq bo'ldi. Guruh sardori guruh a'zolari tomonidan tayyorlangan vatman qog'ozini doskaga olib chiqadi va osib qo'yadi.

Guruh a'zolari o'zlari yozib ma'lumotlarini izohlaydilar. O'qituvchi javob berish uchun qo'l ko'targan har bir tinglovchini e'tiborga oladi va uning fikrini tinglay boshlaydi. Tinglovchining fikri xato bo'lsa, o'qituvchi buni o'z o'rnida javob beruvchigagina emas, balki barcha guruh a'zolariga eslatadi va kim to'g'ri javob bilan fikrni to'ldirishini so'raydi. Shu tariqa tinglovchil ar o'z fikrlarini erkin bayon qila boshlaydilar.

O'qituvchi ularning munozarada qanchalik ishtirok etishini, necha marta to'g'ri javob berganini nazardan qochirmaslik uchun har bir to'g'ri javob egasini yasxil kartochka bilan, qisman to'g'ri javob egasini qizil kartochka bilan rag'batlantirib boradi. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, keyingi guruhga navbat beriladi va xuddi shu tariqa ularning fikrlari ham tinglab boriladi. Munozaraga yakun yasash, fikrlarni yakuniga etkazish va kichik guruhlarini baholash uchun 9-10 daqiqa ajratiladi. Amaliy mashg'ulotning bu qismida avvalo o'qituvchi barcha fikrlarga yakun yasaydi. Chunki, o'qituvchi mazkur dars jarayonida boshidan oxirigacha munozarani tashkil etgan boshlovchi sifatidagina namoyon bo'ladi. Tinglovchilar esa mavzuni mustaqil ravishda o'zlashtirib, o'z fikr va mulohazalarini bayon qiladilar.

Boshlovchi noto'g'ri javoblarning noto'g'riligini e'tirof etadi-yu, lekin uni to'g'rilashni yana tinglovchil arning o'ziga topshiradi. Munozaraga yakun yasash qismidagina mavzuning qay darajada o'rganilganligini, qaysi kerakli fikrlar bayon etildi-yu, qaysi fikrlar e'tibordan chetda qolganligini izohlab o'tadi, tinglovchil arning fikrlarini to'ldiradi va ularning mavzu yuzasidan olgan tushuncha va tasavvurlarini yanada boyitadi. So'ng tinglovchil ar olgan rag'bat kartochkalari hisoblab chiqiladi. Qizil kartochkalilar yasxil kartochkalilar bilan bir xil baholanishlari uchun ularning hajmi ko'proq bo'lishi lozim.

Kartochkalar hajmiga qarab kichik guruhlar baholanadilar Qizil va yasxil kartochkalarining umumiy hisobiga ko'ra g'olib guruh aniqlanadi. Shu tariqa kichik guruhlararo musobaqa tarzidagi dars yakuniga yetkaziladi. Amaliy mashg'ulotning bu tarzda tashkil etilishi orqali kichik guruhdagi har bir tinglovchining o'z fikrini erkin namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratiladi, shuningdek, ular o'rtasida erkin bahs-munozara va o'zini o'zi baholash yo'lga qo'yiladi. Bundan tashqari tinglovchil arning tanlangan mazkur mavzu bo'yicha yanada kengroq ma'lumot olishlariga zamin hozirlanadi.

Nazorat savollari:

1. Umumlashtiruvchi dars deganda nimani tushunasiz?
2. Darsning psixologik asoslari nima?
3. Darsning didaktik asoslari haqida gapiring.
4. Davlat va huquq asoslari fanini darsining qanday xususiyatlarini bilasiz?
5. Dars kuzatuvchining majburiyatlari nimadan iborat?
6. Darsda qanday maqsadlar qo'yiladi?
7. Dars bosqichlari haqida gapiring.
8. O'qituvchiga qanday talablar qo'yiladi?
9. Zamonaviy darsga qanday talablar qo'yilgan?
10. Ochiq dars o'tkazishga qanday talablar qo'yilgan?

5-AMALIY MASHG'ULOT

AMALIY MASHG'ULOT MAVZUSI: Davlat va huquq asoslari fanni o'qitishda elektron darsliklardan foydalanish. (2 soat amaliy mashg'ulot)

5.1. Davlat va huquq asoslari fanida axborot kommunikasiya texnologiyalardan foydalanish.

5.2. Multimedia tushunchasi, mediadarsni tashkil etish usullari, taqdimotlar yaratish va taqdimotlar yaratishga qo'yiladigan talablar.

5.3. Elektron darslik tushunchasi va Davlat va huquq asoslari fanidan yaratilgan elektron darsliklar va dars jarayonida ulardan foydalanish.

Tayanch iboralar: ma'ruza, seminar, amaliyot, trening, ochiq mashg'ulot, kuzatish, tahlil qilish.

5.1. Davlat va huquq asoslari fanida axborot kommunikasiya texnologiyalardan foydalanish.

Barcha fanlarni, jumladan Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda interfaol usul va metodlarni qo'llash katta ahamiyatga ega. Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o'rniga darslarda, zamonaviy pedagogik texnologiya va innovatsiyalar asosida tashkil etish o'qituvchilar uchun qiziqarlidir. Shuning uchun o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'sh, pedagogik texnologiya o'zi nima? Uni amaliyotga qanday joriy qilish mumkin? Bu tushuncha XX asrda paydo bo'ldi va 1940-1950 yillarda «ta'lim texnologiyasi» tarzida qo'llanilib, mazmunan o'quv jarayonida audio texnika vositalaridan foydalanishni anglatuvchi atama sifatida dastlab AQSHda qo'llana boshladi. Keyinchalik «ta'lim texnologiyasi» o'rniga «dasturlashtirilgan ta'lim» atamasidan foydalanish keng yoyila boshlagandan so'ng pedagogik texnologiya - loyihalashtirilgan ta'lim va aniq maqsadga qaratilgan o'quv jarayonini ifoda eta boshladi. XX asrning 80-yillarida mushbu atama pedagogik texnologiya kompyuterli va axborot texnologiyalari bilan sinonim tarzda ishlatila boshladi.

«Texnologiya» so'zi fanga 1872-yilda kirib keldi. Manbalarda ta'kidlanganidek, «texnologiya» atamasi grekcha ikki so'zdan – «texnos»- hunar va «logos»- fan so'zlaridan tashkil topib, «hunar fani» ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab bera olmaydi. Chunki, texnologik jarayon deyilganda – mehnat qurollari bilan mehnat vositalariga ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish bo'yicha qilingan mehnat va jarayonlar tushuniladi. Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilar arga ta'sir ko'rsatish orqali ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni, deb ta'riflash xato bo'lmaydi.

Pedagogik nashrlarda «texnologiya» atamasining, «o'qitish texnologiyasi», «o'quv jarayoni texnologiyasi», «ma'lumot texnologiyasi» kabi xilma-xil nomlar bilan ucratish mumkin. Shunday ekan, pedagogik texnologiya – bu o'qituvchilar arning o'qitish vositalari yordamida o'quvchilar arga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish yoki aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarining shakllanishini kafolatlaydigan jarayondir.

Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va boshqalarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiiq etish va aniqlashning izchil metodi (YUNESKO).

O'quv - tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib kelsa, o'quvchida mustaqillik, ijod va irodaviy sifatlarini shakllanishiga zamin yaratiladi. Ammo bu jarayon o'qituvchi-pedagogdan pedagogik texnologiyani fanni o'qitishda qo'llashga oid bilim va malakaga ega bo'lishlari ham ta'lab etiladi.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki axborot kommunikatsion texnologiyalari o'qituvchi-pedagoglar uchun keng imkoniyatlarni beradi. Chunki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida davlat va huquq asoslari fanini o'qitishning asosiy maqsadi fanini o'qitishni qiziqarli qilib tashkil etish bilan birga o'quvchilar

arning ham fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirishdan iboratdir. Fanni o'qitishda o'zining samaradorligi va ahamiyatligi bilan ajralib turuvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jumlasiga: kompyuter, skaner, videoko'z, videokamera, LCD proektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Internet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun'iy intellekt tizimlarini kiritish mumkin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o'zlashtiriladi. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi: kompyuter, shuningdek, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proektor, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar hamda ularning dasturiy ta'minoti;

uskunaviy dasturiy ta'minot;

virtual matn konstruktorlari, multiplikatsiyalar, musiqalar, geografik haritalar, ekran protsessorlari;

axborotlar majmui — ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar, virtual muzeylar;

texnik ko'nikmalar trenajyorlar kabilardan iborat.

Kompyuterlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining markazida turuvchi asosiy texnik vosita hisoblanib, hozirgi kunda kompyuterlar ta'lim tizimida asosan to'rt yo'nalishda:

- o'rganish obyekti sifatida;

- o'qitishning texnik vositalari sifatida;

- ta'limni boshqarishda;

- ilmiy-pedagogik izlanishlarda foydalanilmoqda.

5.2. Multimedia tushunchasi, mediadarsni tashkil etish usullari, taqdimotlar yaratish va taqdimotlar yaratishga qo'yiladigan talablar.

Multimedia - kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvir, grafik tasvirlarni va turli (multiplikatsiya) animatsiyalarni mujassamlantirish imkonini beruvchi zamonaviy kompyuter axborotlari texnologiyasidir. Multimedia - kompyuterga matn, tovush, videotasvir, grafik tasvirlarni va turli (multiplikatsiya) animatsiyalarni kiritish, chiqarish, qayta ishlash, saqlash, uzatib berish texnologiyalari ko'paytmasidir. Multimedia — bu interaktiv tizim bo'lib, matn, tovush, videotasvir, grafik tasvirlarni, videoni qo'zg'almas harakatini turli (multiplikatsiya) animatsiyalar orqali jonlantirish, ovozi kuchaytiruvchi vositadir.

Multimedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga etkazib berishni mujassamlangan holdagi ko'rinishidir. Multimedia (multimedia - ko'p muhitlilik) – bu kompyuter texnologiyasining turli xil fizik ko'rinishiga ega bo'lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video) va turli xil tashuvchilarda mavjud bo'lgan (magnit va optik disk, audio va video lentalar) axborotdan foydalanish bilan bog'liq sohasidir. Multimedia - kompyuterda axborotning turli xil ko'rinishlari: rangli grafika, matn va grafikda dinamik effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlangan musiqalar, animatsiya, shuningdek to'laqonli videokliplar hamda videofilmlar bilan ishlashdir.

Multimedia bilan displey ekranidagi ovoz effekti orqali qo'zg'almas tasvir va ovoz orqali grafik tasvir harakatlanuvchi tasvir animatsiyalari kiradi. Multimedia tizimining paydo bo'lishi ta'lim tizimida, san'at, kompyuter treninglar, kompyuter o'yinlari, o'tkazishda juda katta o'zgarishlar olib kirdi. Bundan tashqari zamonaviy multimedia texnologiyalari yordamida video filmlarga ovozlar qo'shib montaj qilish imkoniyatlari ham mavjud. Zamonaviy multimedia texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahoratini, texnologik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Multimedia – bu zamonaviy kompyuterli axborot texnologiyalari bo'lib, matn, tovush, videotasvir, grafik tasvir va animatsiyani (multiplikatsiyani) yaxlit kompyuter tizimiga birlashtirish imkonini yaratadi. Multimedia amaliyotdagi ish tartibi – bu apparat-dasturiy muhit bo'lib, kompyuterga axborotni kiritish, ishlov berish, saqlash, uzatish va matn, chizmalar, videotasvir, tovush hamda nutqlarni insonga zarur va qulay holatda yetkazishdir.

Birinchidan, foydalanuvchiga albatta interfaollikni taqdim etadigan, ya'ni inson va komp'yuter o'rtasida buyruqlar va javoblar almashinuvini ta'minlab, dialog muhitini yaratadigan dasturiy mahsulot.

Ikkinchidan, turli video va audio effektlar ishlatiladigan muhit. U tomoshabinga o'zicha u yoki bu ilovani tanlash imkonini beruvchi videofilmni eslatadi. Multimediya mahsuloti – tarkibida musiqa taraladigan, videokliplar, animatsiya, rasmlar va slaydlar galereyasi, turli ma'lumotlar bazalari va boshqalar kirishi mumkin bo'lgan interfaol, komp'yuterda ishlangan mahsulotdir.

Mul'timediya texnologiyasi axborotni bir vaqtning o'zida insonga tushunarli, ko'p shakllar (jumladan, nutq, rasm, chizma, tasvir, musiqa, raqam va harflar) kombinatsiyasida havola qila oladi. Bu texnologiya axborotni qidirish, nusxa olish va boshqa biror komp'yuterga ko'rsatilgan shaklda ko'chirib o'tkaza oladi hamda ularning xohlagan kombinatsiyasini yarata oladi. Undan tashqari mul'timediya texnologiyasidan foydalanuvchi o'zi dizayn bilan shug'ullana olishiga imkon beradi, shuningdek, statik (harakatsiz) va dinamik (harakatlanuvchi) tasvirlarni yaratishi hamda o'z ijodiy ishining natijalarini aloqa kanallari orqali tashqi muhitga tarqatishi mumkin. Mul'timediya tizimlarining jadallik bilan rivojlanishiga shaxsiy komp'yuterlarning imkoniyatlarini kengayganligi va texnik, dasturiy vositalarining rivojlanishi sabab bo'ldi.

Mul'timediya texnologiyalarining afzalliklari va alohida xususiyatlarini sanab o'tamiz:

- turli xil ko'rinishdagi katta hajmdagi axborotlarni bitta diskda saqlash imkoniyati mavjud (bir necha bobli matnlarni, minglab yuqori sifatli tasvirlarni bir necha soatli fil'm va roliklarni hamda tovushli axborotlarni);

- sifati saqlangan holda ekranda tasvirlarni qismlarga ajratish yoki ularni eng qiziq hamda kerakli qismlarini kattalashtirish imkoniyati mavjud;

- grafiklar, tasvir va rasmlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning ko'rsatgichlarini hisoblash, ilmiy yoki o'rganish maqsadida dasturiy vositalar yordamida ishlov berish imkoniyati;

- tasvir yoki tasvirni yoritish maqsadida foydalanilgan matn hamda boshqa ko'rsatilayotgan axborotdan kalit so'zlarni yoki tasvirni kerakli qismini ma'lumot olish hamda tushuntirish uchun kerakli axborotni ajratib olish imkoniyatlari mavjud;

- statik yoki dinamik tasvirga monand uzluksiz musiqa hamda boshqa audio ta'minotini olib borish imkoniyati;

- «stop-kadr» (kadrni to'xtatish) ish tartibidan foydalanib videoyozuv lavhasidan foydalanish imkoniyati;

- global Internet tarmog'iga ulanish hamda uning resurslaridan foydalanish imkoniyati mavjud;

- grafik va tovush redaktorlari, kartografik axborot va matnlarga ishlov bera oladigan shaxsiy amaliy dasturlar bilan ishlash mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan afzallik va xususiyatlardan tashqari yana ko'pgina imkoniyatlar ham mavjud, jumladan, tasvirni yaxlit yoki bir qismini avtomatik ravishda ko'rish, tanlangan joyini saqlab qolish va belgilab qo'yishlardir.

Mul'timediya tizimlarini paydo bo'lishi axborot texnologiyalarini rivojlanishiga va ilm-fanda, ta'limda, savdoda (biznesda) tibbiyotda keng ko'lamda tadbqiq etilishiga turtki bo'ldi. Axborot texnologiyalarining mul'timediya vositalari o'quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga egadir:

- differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilishi;

- o'qish jarayonini baholash, teskari aloqa bog'lashi;

- o'zini-o'zi nazorat qilish va tuzatib borishi;

- o'rganilayotgan fanlarni namoyish etishi va ularning dinamik jarayonini ko'rsatishi;

- fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompiyuter va axborot texnologiyalardan foydalanishi;

- o'quvchi-ta'lim oluvchilarga arga fanni o'zlashtirish uchun strategik ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

Mul'timediya vositalari asosida o'quvchil arni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati borligi;
- ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erisxil adi.

Mul'timediya vositalari asosida o'qitish jarayonida aniq fanni komp'yuter asosida to'liq o'qitish, ma'ruza matnlarini taxrirlash, o'quvchil ar topshirgan nazorat natijalarining tahlili asosida ma'ruza matnlarini bayon qilish uslubini yaxsxil ash, o'quvchil ar axborot texnologiyalarini mul'timediya vositalari asosida animatsiya elementlarini dars jarayonida ko'rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Sifatli mul'timediya ilovalari ishlab chiqishga yo'naltirilgan turlituman, bir biridan farqli texnologik usullar mavjud.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitish jarayonida zamonaviy multimediya texnologiyalaridan foydalanish:

- o'qituvchil arni pedagogik mahoratini oshiradi;
- yangi elektron pedagogik texnologiyalar yaratadi;
- o'quv jarayonini avtomatlashtiradi;
- o'qituvchil ar ishini yengillashtirib samaradorligini oshiradi;
- elektron o'quv darsliklar, testlar va boshqa elektron o'quv materiallarining yaratilishiga olib keladi.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitish jarayonida o'quvchil arda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. O'quvchining o'z fikrini erkini fodalashi.

O'quvchiga aytilgan huquqiy jarayon bo'yicha o'z o'rnini aniqlab olishi uchun imkon beriladi. Masalan, qiyin vaziyatdan chiqish uchun nimalarga e'tibor berish kerak? O'quvchidan javob olish uchun qator savollar bilan murojaat qilish mumkin: Sizning fikringiz qanday? Bu haqda siz qanday fikrdasiz? va boshqa.

2. O'z fikrini oydinlashtirish.

O'quvchining fikrini yanada aniqlashtirish maqsadida unga qo'shimcha tarzda quyidagi savollar beriladi: Bu bilan nima demoqchisiz? O'z fikringizni tushuntira olasizmi? Bu nima degani?

3. O'quvchil ar fikrlarini asoslanganligini tekshirish.

Bunda quyidagi savollar berilishi mumkin: Nima uchun siz aynan shunday deb o'ylaysiz? Sizning mavqeingizni tasdiqlovchi qanday asoslar bor? Nima uchun sizda shunday fikr tug'ildi? O'z fikringizni qanday isbotlaysiz?

4. O'zgalar fikrini o'rganish.

Fuqaro o'z fikrining o'zligini har doim ham tan olavermaydi. Shuningdek, suhbatdoshining fikriga hurmat-ehtirom bilan ham qarayvermaydi. Bu holatni ko'proq o'smirlarda kuzatish mumkin. Ba'zan muammolar yechimini topishda o'zgalar fikrini tinglash ko'nikmasi juda asqotadi. Bu ko'nikmani o'quvchil arda shakllantirish uchun quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin: O'z fikringizga muqobil bo'lgan holatni ayta olasizmi? Bu haqda boshqalar nima deydi? Tanqidga uchrashingiz mumkin?

5. O'zi va o'zgalar fikrini tahlil etish.

O'quvchi o'z fikri bilan o'zgalar fikrini o'zaro taqqoslash, ilmiy asoslangan holatni aniqlash uchun fikrlar qarama-qarsxil igini tahlil etishi kerak. Shunda quyidagi savollar asqotish mumkin: O'z fikringiz qanday? Qarshi tomonning dalil-isboti nima uchun to'g'ri yoki noto'g'ri? Qanday fikrlar sizni qanoatlantiradi?

Tahlil qilinayotgan muammo bo'yicha turli fikrlarning mantiqiy natijalarini o'rganish uchun savollar: Agar sizning g'oyangiz qabul qilinsa, nima ro'y berishi mumkin? U jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatadi? Foyda beradimi?

6. Muammo natijasini qabul qilish.

Bu tanqidiy fikrlash usulining soʻnggi bosqichi hisoblanib, oʻquvchil ar fikrlari qaytadan baholanadi va muttanosiblik aniqlanadi. Buning uchun: Qaysi natija eng qulay va ishonchli? Kimning chiqishi maqsadga muvofiq boʻldi? Siz bahsga qanday nuqta qoʻygan boʻlardingiz? kabi savollar asqotishi mumkin.

Davlat va huquq asoslari fanini oʻqitishda muammoli taʼlim texnologiyasining ham ahamiyati kattadir. Muammoli taʼlim texnologiyasi oʻquvchil arni Davlat va huquq asoslari fani predmetning mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini toʻgʻri topishga oʻrgatadi. Ularda muammoning mohiyatini aniqlash, muammoni yechishda mos uslublarni toʻgʻri tanlash, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni toʻgʻri aniqlash boʻyicha malakalarni shakllantirishga yordam beradi.

Ushbu texnologiya asosida Davlat va huquq asoslari fani darslarini tashkil etishda oʻqituvchi oʻquvchil arni guruhlariga ajratib, ularni mos oʻrinlariga joylashtirgandan soʻng, mashgʻulotni oʻtkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi, yaʼni u mashgʻulotni bosqichli boʻlishini va har bir bosqich oʻquvchil ardan maksimum diqqat-eʼtibor talab qilishini, mashgʻulot davomida ular yakka, guruh va jamoa boʻlib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat oʻquvchil arga berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor boʻlishlariga yordam beradi va bajarishga qiziqish uygʻotadi. Mashgʻulotni oʻtkazish tartib-qoidalari va talablari tushuntirilgach mashgʻulot boshlanadi.

Avvalo mavzuga oid biror lavha taqdim etiladi. Oʻquvchil ar mashgʻulot uchun tayyorlangan anashu lavhani diqqat bilan tomosha qilib, unda yoritilgan muammoni aniqlashga harakat qiladilar, xotirada saqlab qoladilar yoki daftarlariga belgilab qoʻyadilar. Agar lavha koʻrsatishning imkoniyati boʻlmasa, u holda oʻqituvchi oʻquv predmetining mavzusi boʻyicha plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon qilingan matn, kitobdagi oʻquv materialidan foydalanishi mumkin.

- har bir guruh aʼzolari tomonidan ushbu lavhadan (rasmdan, matndan, hayotiy voqeadan) birgalikda aniqlangan muammolarni vatman yoki A-3 qogʻoziga flomaster bilan yozib chiqadi;
- berilgan aniq vaqt tugagach, tayyorlangan ishni guruh vakili tomonidan oʻqib eshittiriladi;
- oʻqituvchi guruhlar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qogʻozlarni almashtirgan holda guruhlariga tarqatiladi;
- tarqatilgan qogʻozlarda guruhlar tomonidan yozilgan muammolardan har bir guruh aʼzosi oʻzini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi;
- oʻqituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh aʼzosi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi.

Davlat va huquq asoslari fanini oʻqitishda qoʻllanilayotgan muammoli taʼlim texnologiyasi samaradorligining toʻrtta bosh sharti mavjud:

- muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uygʻotishni taʼminlash;
- muammo yechimidagi har bir bosqichda paydo boʻladigan ishlarni bajara olish mumkinligini taʼminlash (maʼlum va nomaʼlumlar nisbatining maqbulligi);
- muammo yechimida olinadigan axborotni oʻquvchil ar uchun muhimligi;
- pedagog va oʻquvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kechishi, yaʼni oʻquvchil ar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar eʼtibor va ragʻbatsiz qolmasligi zarur.

Muammoli taʼlim texnologiyasi asosida mashgʻulotlarini tashkil etish va boshqarish quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi:

- oʻquv fani va darslar mavzusini oʻrgatishda ular bilan bogʻliq muammoli masalalarni belgilash;
- ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirib borish;
- oʻquvchil arning tayyorgarlik darajasini hisobga olish;
- zarur oʻquv vositalarini tayyorlash;
- muammoli vaziyatdagi mavjud ziddiyatni koʻrsatish;

- topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish;
- o'quvchil arning muammoni hal etishda yo'l qo'yayotgan xatolarini, ularning sababini va xususiyatini ko'rsatish;
- o'quvchil arning noto'g'ri taxminlari asosida chiqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to'g'ri yo'lni topishlariga ko'maklashish kabilardan iborat.

Masalan:

Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo'llari va sizning harakatlaringiz
Masalan: Fuqarolarimizda huquqiy madaniyat shakllanmaganligi.	Masalan: Huquqiy ta'lim olish yoki huquqiy jarayonlarni mustaqil o'rganishga nisbatan e'tiborning kamligi	Masalan: Fuqarolarimizda huquqiy ta'limga nisbatan qiziqishning kamligi.

Muammoli topshiriqlar o'qituvchidan katta va qiyin mehnatni talab qiladi. Shu boisdan, ularning sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan variantlarini topish va qo'llash murakkab jarayondir.

5.3. Elektron darslik tushunchasi va Davlat va huquq asoslari fanidan yaratilgan elektron darsliklar va dars jarayonida ulardan foydalanish.

Elektron darsliklar hayotimizga juda tez kirib keldi. Hozirgi kunda ta'lim oluvchil ar, umuman kompyuterdan foydalanuvchil ar orasida elektron darslik (E-book) haqiqiyo'urnini oldi va bu sohada o'ziga xos evalyusion uzgarishlarni olib kelmoqda.

Elektron darslik (qo'llanma) o'quv jarayoni sifatini oshirish, o'qituvchi mexnatini yengillashtirish, o'quvchi – talabalarni bilim darajasini oshirish, o'quv jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish uchun keng yo'l ochib beradi. Bu jarayonda o'qituvchi, psixolog, tahlil natijalarini nazorat qilish bo'yicha mutaxassis (testolog), Dizayner yoki web-usta, kodlovchi (dasturlovchi) qatnashishi nazarda tutilgan.

Elektron darslik yaratuvchi mualliflar dasturiy ta'minotni yaratish bo'yicha quyidagi mezonlarga amal qilishi lozim:

- Elektron darslikning mazmuni;
- Elektron darslik yaratishda mualliflar guruhi e'tiborini qaratadigan jihatlar quyidagilardan iborat:
 - elektron darslik yaratishga fanning o'quv dasturini asos qilib olish;
 - elektron darslikka kiritiladigan materiallarni malakali o'qituvchi professorlarning amaliy tajribalari, fan ehtiyorlaridan kelib chiqqan holda muhokama qilish;
 - o'quvchi-talabaga bilim ko'nikmalarini shakllantirishga ko'mak beruvchi tushinchalarga o'z o'rnida foydalanish;
 - o'quvchi-talabalarga Fan mavzusiga aloqador uangi bilimlarni tushinishga yordam beradigan qiziqarli sxemalar, diagrammalar, turli chizma va jadvallarni elektron darslikka kiritish; erixil gan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida amaliy mashqlar va nazorat savollarini keltirish;
 - elektron darsliklarni yaratishga ilgor xorijiy tajribalardan foydalanish;
 - elektron darslikning tili, mazmuni o'quvchil arning maxsus olish sharoitlari va qobiliyatlari, yoshiga mos kelishini inobatga olish;
 - o'qituvchi-professorlarning elektron darslikdan samarali foydalanish uchun uslubiy qo'llanmalar yaratish iborat.

Elektron darslik foydalanish uchun ikki variantda – on-line va off-line da yaratilishi mumkin. Elektron darslikdan on-line variantda foydalanishda komp'yuter texnologiyasi global yoki lokal tarmoqqa ulangan bo'lishi lozim. Off-line variyantda tarmoqqa ayrim hollardagina kiriladi. Odatda, bu variantda elektron darslik CD diskka yoziladi va o'quvchiga beriladi. Elektron darslik Internetda ma'lum bir saytda joylashtirilishi ham mumkin.

Elektron darslik maxsus dasturlash kodlari hamda grafik, animasion, ovoz va Videotasvir elementlari yordamida yaratilgan odatdagi kitobning elektron ko‘rinishidir. Uning odatdagi kitoblardan farqi, qulaylik va noqulaychilik ik taraflari mavjud bulib, AKT rivojlanishi bilan mavjud salbiy jihatlar miqdori kamayib bormoqda.

Elektron darslikni qo‘llashning ijobiy taraflari quyidagilardan iborat:

- uni yaratish qulayligi;
- cheklanmagan miqdorda va tezlikda ko‘paytirish imkoniyati;
- uni doimiy tahrir qilib turish imkoniyati mavjudligi;
- juda kam xarajatlar bilan yaratish mumkinligi;
- grafik, ovoz, animasiya, video tasvirlardan foydalanish mumkinligi;
- materiallar bilan tanishish qulayligi, zarur ma‘limotni tezda axtarib topish mumkin.

Elektron darslik axborot kommunikasion texnologiya (AKT) asosida yuqori ilmiy – uslubiy darajada yaratilgan fanlardan Davlat O‘quv Standartiga to‘liq mos keladigan elektron o‘quv mahsulot hisoblanadi. Elektron qo‘llanma darslikni qisman yoki to‘la o‘rnini bosuvchi yoki uni to‘ldiruvchi mahsulot bo‘lib, qo‘llanma sifatida ta‘lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan mahsulotdir. Elektron dars ishlanmasi darslikning har bir darsiga mo‘ljallangan mavzuning maqsadi, mazmuni va mohiyatini yoritib beruvchi, AKTning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanib yozilgan matndir.

Elektron darsliklar – o‘qilayotgan materiallarni boshqa usullar (qabul etish yo‘llari oshirish bilan) qo‘llash orqali o‘zlashtirishni yengillashtiradi;

-o‘quvchining talablari, tayyorgarligi va intellektual darajasiga moslashadi;
-murakkab hisob-kitoblarda vaqtning tejalishi hisobiga fann chuqurroq o‘zlashtirishga sharoit tug‘diradi;

- ishning har bir bochqichida o‘zini tekshirish uchun keng sharoitlar yaratadi;
- bajarilgan ishni faylga yoki chop qilishga imkoniyat beradi;
- kerakli tushuntirish, takrorlash va yordamchi materiallarni takror-takror beradi.

Elektron darsliklar turli masalalarni yechishda komp‘yuter yordamini ishlatish hisobiga vaqtni tejashi mumkin;

- o‘quvchil arga mashg‘ulotlarni komp‘yuterlarda mustaqil ishlar shaklida o‘tishi mumkin;
- murakkab hisobli nazorat ishlari komp‘yuter yordamida tekshiriladi.

Nazorat uchun savollari

1. Elektron axborot ta‘lim resursi tushunchasi va mohiyatini tushuntiring?
2. Ta‘lim tizimida foydalaniladigan elektron ta‘lim resurslari va ulardan foydalanish qay tartibda amalga oshiriladi?
3. Mustaqil tarzda bilim olish va malaka oshirishi saytlaridan qaysilarini bilasiz?
4. Tarbiya faniga oid internet saytlaridan foydalanish tartibini tushuntiring?
5. Xalq ta‘limi vazirligining axborot-ta‘lim portali (www.eduportal.uz)ga joylashtirilgan elektron axborot ta‘lim resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha ma‘lumot bering?

6-AMALIY MASHG‘ULOT

AMALIY MASHG‘ULOT MAVZUSI. Fan metod birlashmalari ishini samarali tashkil etish, mustaqil malaka oshirish va bilim olishning tashkiliy, uslubiy asoslari. (2 soat amaliy mashg‘ulot)

6.1. Fan metod birlashmalari ishini samarali tashkil etish shakl va usullari. Metodik xizmat turlari va manblari, metod birlashmalarning vazifalari va ish mazmuni.

6.2. Uzluksiz kasbiy rivojlanish, mustaqil malaka oshirish va bilim olishning tashkiliy, uslubiy asoslari.

6.3. Umumta‘lim maktablarida ijtimoiy fanlar bo‘yicha metod birlashma ishining sifatini ko‘tarish yo‘llari.

Tayanch iboralar: fan, metod birlashma, shakl, usul, uzluksiz kasbiy rivojlanish, mustaqil malaka oshirish, metodik xizmat turi, ijtimoiy fanlar.

6.1. Fan metod birlashmalari ishini samarali tashkil etish shakl va usullari. Metodik xizmat turlari va manblari, metod birlashmalarining vazifalari va ish mazmuni.

Metod birlashma - bu umumiy o'rta ta'lim maktablarida uzluksiz metodik xizmat tizimining bir bo'g'ini hisoblanib, o'qituvchilarga metodik xizmatni amalga oshirish, ularning innovatsiya tajriba-sinov ishlari va ta'lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtiradigan jamoaviy organ hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fan metod birlashmalariga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ta'lim-tarbiya jarayoning dolzarb ehtiyoj va muammolarini aniqlab, pedagoglarning ehtiyoj talablari asosida mahoratini oshirish, rivojlantirish yo'llarini belgilab olish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish, targ'ib qilish, ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchiga amaliy yordam ko'rsatish, metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, tahlil qilish, ta'lim sifatini oshirish va takomillashtirishga oid tavsiyalar yaratish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Uzluksiz metodik xizmat yo'nalishida olib borilayotgan ishlarni izchil yo'lga qo'yish, bu boradagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida uning tuzilmalari me'yoriy hujjatlar bilan takomillashtirib borilmoqda.

Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish tizimi quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim maktablarining fan metod birlashmalari;

umumiy o'rta ta'lim maktablarining pedagogik kengashi;

Tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari huzuridagi O'quv metodik kengashlar;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalaridagi O'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho'basidagi metodistlar;

Respublika ta'lim markazi huzuridagi ilmiy metodik kengashlar.

Quyidagilar umumiy o'rta ta'lim maktablarining fan o'qituvchilarga metodik xizmat ko'rsatadi:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida fan metod birlashma rahbarlari;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik kengash a'zolari;

tuman, shahar xalq ta'lim bo'limidagi Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va zamonaviy metodikalarni targ'ib qilishni rivojlantirish sho'basidagi metodistlar;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi fan metodistlar;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalaridagi O'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho'basidagi metodistlar;

Respublika ta'lim markazi fan metodistlar.

Umumiy o'rta ta'lim maktabida fan metod birlashma rahbarlari o'qituvchilarga o'quv yili davomida o'qituvchilarning fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy ommabop adabiyotlar bilan tanishtirish, fanni o'qitishga doir me'yoriy va metodik hujjatlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish, variativ o'quv rejalar asosida tanlov sinflarini tashkil etish, ko'rgazmali vositalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, har bir chorak yakuniga ko'ra o'quvchilardagi bo'shliqlarni to'ldirish, murakkab mavzularni osonroq tushuntirish bo'yicha metodik tadbirlarni tashkil etish, yosh pedagoglarni kasbiy rivojlantirishga sharoit yaratish, boshqa metod birlashmalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'qituvchilarga sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishga ko'maklashadi, Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi metodistlaridan metodik yordam olish, mediasavodxonlik va onlayn axborot xavfsizligi bo'yicha o'qituvchilarning tegishli ko'nikmalariga ega bo'lishlari uchun o'quvlar tashkil qilish, ilg'or metodikalarga ega o'qituvchilarning xolis aniqlab, ularning tajribasini ommalashtirish, rag'batlantirish bo'yicha maktab pedagogik kengashiga taklif kiritadi.

Umumiy o'рта ta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, pedagog xodimlarga o'z vaqtida metodik yordamni tashkil qilish maqsadida yilning avgust oyida va har chorakda kamida bir marta fan metod birlashmalari yig'ilishi o'tkaziladi.

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limining fan metodistlari o'quvchil arni xalqaro baholash dasturlariga (PISA -15 yoshli o'quvchil arning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash, PIRLS -boshlang'ich 4-sinf o'quvchil arining matnni o'qish va tushuntirish darajasini baholash, TIMSS – 4- va 8-sinf o'quvchil arining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash) tayyorlash uchun o'qituvchil arni qo'shimcha materiallar bilan ta'minlash, "onlayn metodik yordamlar" tashkil qilish, yangi metodik adabiyotlarni o'qituvchil arga yetkazish, ularni metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash, variativ o'quv rejalar asosida tanlov sinflarini tashkil etishga metodik yordam ko'rsatish, o'qituvchil arning ilg'or ish tajribalarini o'rganadi, "Metodik-tur" tartibiga muvofiq, reja asosida ta'lim sifati yuqori bo'lmagan maktablarga manzilli metodik yordam berish, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish bo'yicha loyihalarni tajriba-sinovdan o'tkazish, davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, dasturlarni, o'quv-metodik materiallarni tahlil qilish, umumta'lim maktablaridagi darslarni onlayn va offlayn kuzatib boradi hamda tahlil qilish orqali metodik yordam beradi. Shuningdek, Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari bilan kelishil gan holda malaka oshirishga kelgan o'qituvchil ar uchun yo'nalishi bo'yicha "Metodist soati"ni o'tish, o'quvchil arning bilimni baholashda xalqaro baholash dasturlarini amaliyotda qo'llashni o'rgatish, maktablarga manzilli metodik yordam ko'rsatish, mediasavodxonlik va onlayn axborot xavfsizligi bo'yicha o'quvlar tashkil qilish, tashqi monitoring natijalari asosida o'quvchil ar bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan tavsiya ishlab chiqish, hududlarga chiqqan holda seminarlar tashkil etadi, o'qituvchil arning xalqaro va milliy sertifikat olishlari uchun tegishli metodik yordamlar ko'rsatib boradi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilg'or metodikalarni o'zida jamlagan tavsiya va qo'llanmalar ishlab chiqadi va o'qituvchil arga yetkazadi hamda o'z fani bo'yicha toifasiz va ikkinchi toifaga ega bo'lgan o'qituvchil arni toifa olishga yo'naltirish (onlayn) uchun o'quvlar tashkil qiladi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining O'quvchil arda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho'basi metodistlari sho'ba mudiri tomonidan tayanch o'quv reja, o'quv dasturlari, metodik ishlarni muvofiqlashtiradi, "Kollaboratsiya" (jamoalar bo'lib ishlash qobiliyatini shakllantirish), "Kommunikativlik" (o'qituvchil ar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish), "Kreativ fikrlash" (o'z maqsadlarga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochil ik ko'nikmalarini o'rgatish), "Kritik fikrlash" (o'z mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish)ida seminarlar ashkil etadi. Mediasavodxonlik va onlayn axborot xavfsizligi bo'yicha o'quvlar tashkil qilib boradi, Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi metodik xizmat ko'rsatish bo'limi fan metodistlari bilan hamkorlikda "onlayn metodik yordamlar" tashkil etadi, me'yoriy hujjatlarning bajarilishini nazorat qiladi, variativ o'quv rejalar asosida tanlov sinflarini tashkil etish choralari ko'radi, tegishli fan metodistlari bilan hamkorlikda fan o'qituvchil arining metodik yordamga bo'lgan kasbiy ehtiyoji va murojaatidan kelib chiqqan holda metodik yordam berib boradi, o'qituvchil arga ijtimoiy tarmoqlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga o'rgatish bo'yicha seminarlar tashkil qiladi, Metodik xizmat ko'rsatish sohasida olib borilayotgan ishlar bo'yicha har chorakda bir marta Respublika ta'lim markazi va Xalq ta'limi vazirligiga hisobot berib borishi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 45-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takamillashtirish to'g'risi"da 372-sonli buyrug'ida ko'rsatib o'tilgan.

Metodik birlashmalar o'qituvchil arga yordam beruvchi, ilg'or tajribalarni ommalashtiruvchi mahorat maktabidir. Metod birlashmalar faoliyati maktab direktorining o'quv

ishlari bo'yicha o'rinbosari tomonidan rahbarlik qilinayotgan metodik kengash tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi. Har bir metod birlashma raisi metodik kengash a'zosi hisoblanadi.

Maktab metod birlashmasi o'quv rejasidagi fanlar tarkibiga hamda o'quvchil ar soni tarkibiga qarab ikki xil variantda tuzilishi mumkin. O'qituvchil ar soni uch va undan ortiq bo'lsa, har bir fan bo'yicha alohida-alohida, o'qituvchil ar soni oz miqdorda bo'lgan fanlardan esa bir-biriga yaqin bo'lgan fanlar turkumi bo'yicha tashkil etiladi.

Masalan: gumanitar fanlar, tabiiy fanlar, aniq fanlar, xorijiy tillar, boshlang'ich sinf o'qituvchil ari, estetik fanlar, sinfdan tashqari ishlar sinf rahbarlari metod birlashmalari kabilar.

Maktabning har bir o'qituvchisi o'rindoshlikda ishlayotgan o'qituvchi ham o'z yo'nalishi yoki fani bo'yicha metod birlashma a'zosi bo'lishi shart.

Fanlar yo'nalishi bo'yicha tashkil etilgan metod birlashmalar faoliyati o'ziga xos bir jarayon bo'lib, u fan ta'limi samaradorligini oshirish, ilg'or tajribali o'qituvchil arning ish tajribalarini ommalashtirish, yosh pedagoglarga yordam berish, fan to'garaklarini tashkil etish, darslardan tashqari vaqtda turli tadbirlar o'tkazish, darslik mualliflari, yozuvchil ar, kasb ustalari boshqa soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, turli ko'rik-tanlovlar va bellashuvlar o'tkazadi. Shuning uchun har bir fan o'qituvchisi o'z fani bo'yicha amalga oshirishda ta'lim va tarbiya jarayonini to'g'ri rejalashtirish, pedagogning o'z mahoratini ko'rsatish uchun sharoit hosil qilish, ijodiy izlanishga undash, har bir metod birlashma rahbarlarining asosiy vazifalardan biridir.

Metod birlashma ishi maktab pedagogika kengashi qarori asosida tashkil etiladi, uning ish rejasi metod kengash tomonidan tasdiqlanadi.

O'qituvchil arning kasbiy va metodik mahoratini hamda malakasini oshirish, o'quvchil arga beriladigan ta'lim va tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishini ta'minlash borasida o'zaro tajriba almashish, o'qituvchining darsiga, tarbiyaviy soatiga, darsdan tashqari tadbirlariga qo'yiladigan yagona talablarni ishlab chiqish va ta'lim-tarbiya jarayonida tatbiq etilishini ta'minlash **metod birlashmaning maqsadi hisoblanadi.**

Fanini o'qitishga doir me'yoriy va metodik hujjatlarni o'rganadi, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish, o'qituvchil arning g'oyaviy-nazariy bilim darajasini oshiradi, ularni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib borish, taqvimiy-mavzu rejalarni tasdiqlashga tavsiya etish, nazorat materiallarini tasdiqlash, malaka oshirishga yuboradigan o'qituvchil arni oldindan rejalashtirish, malaka oshirishdan qaytgan o'qituvchil arning hisobotini metod birlashma yig'ilishlarida tinglash, ilg'or o'qituvchil ar ish tajribalarini ommalashtirish, DTS talablari, o'quv rejasi va dasturlarini bajarilishini ta'minlashda metodik yordam ko'rsatish, ta'lim muassasasida metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, o'qitishning ilg'or usullarini joriy etishni tashkil qilish, o'zaro dars kuzatishni tashkil qilish, natijalarni tahlil qilish va mutaxassislarga amaliy yordam berish, ochiq darslarni tashkil qilish, ilg'or pedagogik tajribalarga doir takliflarni o'rganish, ommalashtirish, o'quv jarayoniga o'qitish metodikasining zamonaviy va samarali usullarini olib kirish, fan bo'yicha yangiliklarni qo'llashga doir metodik ko'rsatmalar berish, nazorat turlariga doir metodik ko'rsatmalar beradi va ular asosida nazorat topshiriqlarini ishlab chiqishni tashkil etish, fan o'qituvchil arning ma'naviy va moddiy rag'batlantirishga tavsiya qilish, attestatsiya jarayonida o'z xulosasini berish, fanlar bo'yicha maktab miqyosida oyliklarini, fan olimpiadalarining birinchi bosqichlarini, ko'rik-tanlovlarini o'tkazish fakultativ, to'garak ishlarni muvofiqlashtirish, fan bo'yicha iqtidorli ijodkor o'quvchil arni aniqlaydi va ular bilan alohida ishlashni tashkil qilish **metod birlashmalarining asosiy vazifalari** hisoblanadi.

Maktabning har bir o'qituvchisi (o'rindoshlik tariqasida ishlayotgan o'qituvchil ar ham) o'z yo'nalishlari yoki tegishli fan turkumi) bo'yicha metod birlashmaga a'zo bo'lishlari shart.

Metod birlashmaga rahbar maktab pedagogika kengashi qaroriga asosan ijodkor va tajribali o'qituvchil ardan maktab direktorining buyrug'i bilan tayinlanadi.

Metod birlashmalarining faoliyati direktorning o'quv (metodik) ishlari bo'yicha o'rinbosari rahbarligidagi maktab Metodika kengashi tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi. Har bir fan va

yoʻnalish boʻyicha Metod birlashmaning rahbari maktab Metodika kengashining aʼzosi hisoblanadi.

Metod birlashma reja asosida ish yuritadi, ish reja maktabning ish rejasida aksini topishi lozim. Metodik mavzu oʻqituvchining kasbiy oʻz ustida ishlash rejasini nazarda tutgan holda, pedagogik jamoa aʼzolari tomonidan qabul qilinishi lozim. Metod birlashma yigʻilishi bir oyda kamida bir marta oʻtkaziladi. Metod birlashma yigʻilishlarida belgilangan masalalar koʻrib chiqiladi va qarorlar qabul qilinadi. Yigʻilishlar bayoni alohida daftarga yozib boriladi. Metod birlashmalar turli mavzularda seminar-mashgʻulotlar, maʼlum mavzularga bagʻishlangan turkum ochiq dastlarni tashkil qiladi.

Oʻquv yili oxirida metod birlashma faoliyatiga oid barcha hujjatlar direktorining oʻquv (metodika) ishlari boʻyicha oʻrinbosari tomonidan tahlil qilinadi. Yigʻilish bayonlari daftari, birlashma ish rejasi va hisoboti maktabda 3 yil muddatda saqlanadi. Metod birlashma rahbari va aʼzolarining majburiyatlari ham mavjud.

Yosh oʻqituvchilarga arga metodik yordam uyushtirish, fan oʻqituvchilarning metod birlashmasi, metod kengashi oʻtishini doimiy ravishda tashkillashtirib borish, DTS talablari doirasida oʻqitish sifatiga eʼtibor berish, metod birlashma ish rejasini tuzish va uning bajarilishini nazorat qilish, ilgʻor ish tajribalarni ommalashtirish, olib borilgan ishlar xususida metod kengash yoki pedagogika kengashida hisobot berish, taqvim-mavzu rejalarining tuzilishi va bajarilishini nazorat qilish ijodiy hisobotlar, ochiq darslar, metodik kunlar, metodik oylik, dekalarni tashkillashtirish, malaka oshirish uchun buyurtmalar berish va malaka oshirishga oid takliflar tayyorlash, maktabning Pedagogika kengashida, metodik seminarlarda metod birlashma ishtirokini faollashtirish **metod birlashma rahbarining majburiyatlari hisoblanadi.**

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida fan oyliklari quyidagi tartibda oʻtkaziladi:

T/r	Fan va yoʻnalishlar nomi	Oʻtkazish muddati
1.	Boshlangʻich taʼlim	sentabr
2.	Ona tili va adabiyot, Oʻzbek tili	oktabr
3.	Rus va xorijiy tillar	noyabr
4.	Tarbiya va ijtimoiy fanlar (tarix, davlat va huquq asoslari)	dekabr
5.	Tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya)	yanvar
6.	Aniq fanlar (matematika, informatika va axborot texnologiyalari)	fevral
7.	Geografiya va iqtisodiyot	mart
8.	Amaliy fanlar (tasviriy sanʼat, chizmachilik, musiqa madaniyati, texnologiya)	aprel
9.	Jismoniy tarbiya, chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik	may

Metod birlashma hujjatlari.

Metod birlashma faoliyatiga doir quyidagi hujjatlar boʻlishi shart:

Metod birlashma aʼzolari haqida maʼlumot.

ish rejasi;

hisobotlar;

yigʻilish bayonnomalari;

6.2. Uzlüksiz kasbiy rivojlanish, mustaqil malaka oshirish va bilim olishning tashkiliy, uslubiy asoslari.

Mustaqil malaka oshirish – uzlüksiz taʼlim tizimining hamma boʻgʻinlarida muntazam amalga oshiriladigan, har bir rahbar va mutaxassis pedagogning bilim va koʻnikmalarni tezkorlik bilan mustaqil ravishda chuqurlashtirish, yangilash va madaniy saviyalarini kengaytirishga yoʻnaltirilgan faoliyatdan iborat. Mustaqil malaka oshirish va taʼlim olish uchun taʼlimning

yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha pedagog kadrlarning malakalari tizimli ravishda oshirib boriladi. Maktablarda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ilmiy-metodik seminar va trening mashg'ulotlari tashkil etiladi, shuningdek, tajriba almashiniladi. Ustoz-shogird tizimi takomillashtiriladi. Mazkur ishlar maktab Ustavi, yillik ish rejasi va metod birlashma rejalarida aks ettiriladi, shu bilan birga ularda qo'yilgan vazifalarning ijrosi nazorat qilinadi.

Ta'lim muassasasi rahbari tegishli xodimlar bilan birga chet el tajribalari va ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tayotgan o'qituvchilarning tajribalarini o'rganadilar, ularni umumlashtiradilar va tuman (yoki shahar)da ommalashtirish bo'yicha barcha tegishli hujjatlarni tayyorlaydilar. O'qituvchilarning malakalari oshirishga yuborish oldindan rejalashtiriladi. Malaka oshirib kelgan o'qituvchilarning hisoboti o'z vaqtida metod birlashma va pedagogik kengashda tinglanadi hamda ularga ochiq darslar tashkil etib boriladi. Maktabning o'quv-tarbiyaviy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari va metod birlashma rahbarlari o'qituvchilarning o'z ustilarida ishlash rejasi bo'yicha amalga oshirayotgan faoliyatini ham o'rganadi, unda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda mavjud bo'ladigan kamchilik va muammolarni aniqlaydi, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy va metodik yordam ko'rsatadi.

Mustaqil malaka oshirishning maqsadi – rahbar xodim va pedagoglarning o'z lavozimlari, mutaxassisligi, o'qitish metodikasi bo'yicha bilimlarini kengaytirish, pedagogika, psixologiya, ma'naviyat va boshqa yo'nalishdagi nazariy hamda amaliy bilimlarini yangilash, ilg'or tajribani o'rganish va qo'llash, takomillashtirish, o'z ilg'or tajribasini yaratishdan iborat jarayondir.

Maktabda uzluksiz malaka oshirishning asosiy tashkiliy shakli pedagog kadrlarning yakka tartibda shaxsiy dasturi (ish rejasi) asosida uzluksiz mustaqil malaka oshirishlari hisoblanadi. Doimiy rivojlanish, o'z shaxsini takomillashtirish jarayoni ko'pchilik tadqiqotchilarning diqqat-e'tiborini tortmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.01.2021 yildagi «Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4963-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan malaka oshirish tizimida ta'lim maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv jarayonini tashkil qilish, boshqaruv va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va uzluksiz malakasini oshirish uchun ta'lim dasturlarini innovatsion yondashuvlar asosida doimiy yangilab borilishi belgilandi. Unga ko'ra oliy ta'lim tizimida malaka oshirish quyidagi shakllarni o'z ichiga oladi:

- mustaqil malaka oshirish;
- muqobil malaka oshirish;
- institut yoki fakultetlarda bevosita o'qish.

Xalq ta'limi tizimida tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan:

xalq ta'limi xodimlarining malaka oshirish bo'yicha ehtiyojlari o'rganiladi hamda «Uzluksiz kasbiy ta'lim» maxsus elektron platformasi orqali ularning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi tuziladi;

har bir xalq ta'limi xodimining elektron portfoliosi shakllantiriladi va unga xodimning individual trayektoriyasi, kasbiy rivojlanish natijalari va o'zlashtirgan o'quv dasturlari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi;

Xalq ta'limi xodimlarini ularning malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish traektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo'yicha o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yiladi;

An'anaviy o'qitish bilan bir qatorda kasbiy o'qitishning uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan, masofaviy va boshqa turlari joriy etiladi.

Xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish uchun:

Har bir fan bo'yicha uzluksiz kasbiy rivojlanish kursining maqsad va vazifalari asosida 36 soatlik hajmdagi dastur va ishchi o'quv reja dastur tuziladi.

Uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil etish o'qituvchi uchun mutaxassislik fani bilan uzviy bog'liq bo'lgan fanlarni ham o'rganishni ta'minlaydi. Darslarda o'quvchi diqqatni to'play

olishni, izchil likni, tasavvur rivojlangan bo'lishini talab eta borib, ularda aniq bir maqsadga intilish, ijodiy faollik, mustaqillik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, imtizom va tanqidiy fikrlash hamda o'zining ilmiy qarash va e'tiqodlarini dalillar asosida himoya qila olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchil arning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish uzluksiz malaka oshirish sohasining muhim vazifasi hisoblanadi.

Uzluksiz malaka oshirish samaradorligini oshirish yo'llaridan biri ta'limning mul'timedia vositalaridan o'rinni foydalanishdir. Bu vositalardan - o'tilgan materiallarni takrorlashda, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlashda, mustaqil ishlarda, vebinarlar o'tkazishda, kontent yaratish orqali mavzu mazmunini tushuntirishda samarali foydalanish mumkin. Uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil qilishda kontentlardan foydalanish malaka oshirishning zamonaviy turi hisoblanib, bunda komp'yuter yordamida malaka oshirish jarayonini turli usullarda tashkil qilish va o'qituvchil arning malaka oshirish jarayonidagi ko'p holatlarini nazorat qilish mumkin bo'ladi. Kontentlar yordamida uzluksiz malaka oshirishni tashkil etishda nazorat qilinadigan parametrlar to'plami keng bo'lib, ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

O'qituvchil arning uzluksiz malaka oshirish faoliyatini boshqarish bilan quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o'qituvchil arga uzluksiz malaka oshirish faoliyati davomida olgan bilimlar asosida ish faoliyatini tashkillashtirishda innovatsion texnologiya elementlaridan to'g'ri foydalanish imkoniyatini yaratish;

- uzluksiz malaka oshirish faoliyatini boshqarish orqali o'qituvchiga keyingi faoliyatini to'g'ri rejalashtirish, nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakalarini mustaqil ta'lim asosida mustahkamlab borish uchun yangi ma'lumotlarga ega bo'lishiga imkoniyat yaratish;

- uzluksiz malaka oshirish faoliyatini boshqarish asosida o'qituvchil ar malaka oshirish faoliyatlarini to'liq nazoratga olish imkoniyatini yaratishdan iborat.

O'qituvchil arning uzluksiz malaka oshirish faoliyatini boshqarish orqali amalda ularning o'zlashtirgan va o'zlashtirishi lozim bo'lgan nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakalari darajasini tahlil qilish imkoniyati hamda ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish asosida uzluksiz malaka oshirish faoliyatining uslubiy asosi yaratiladi.

Zamonaviy pedagogning innovatsion faoliyati hamda kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishining natijalari bo'yicha rahbar va metodistlar uchun muhim masalan: pedagogning innovatsion faoliyati va kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish natijasi nimadan tashkil topishi mumkin? Bunday natijalarga:

pedagogik faoliyatning individual uslubi, mualliflik dasturlari, metodikalari va texnologiyalari;

o'qituvchining metodik, psixologik, tadqiqiy, pedagogik, texnologik madaniyati, eng muhimi esa – muallifli pedagogik – didaktik, tarbiya va metodik tizimlari kiradi.

O'qituvchining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish bosqichlari:

Birinchi bosqich – o'qituvchi o'z faoliyatining muvaffaqiyati shaxsiy rejalarini hayotga tadbiiq etishga bog'liq-ligini anglab etadigan darajada o'z o'rnini topishdan iborat.

Ikkinchi bosqich – o'ziga xos ichki va tashqi kasbiy muloqot borasida – qo'yilgan pedagogik vazifalarni yechishning turli variantlarini tanqidiy tahlil qilish. Keyingi bosqich – ustuvorliklarni tanlash, pedagogik faoliyatning an'anaviy uslublarini innovatsion namunalarni bilan taqqoslash asosida o'zining muallifligidagi variantlarning asoslarini tuzish, bunda innovatsion namunalarni interfaol – o'yinli metodik mashg'ulotlarda ifodalanadi. So'nggi bosqich – o'rnashib qolgan namunalardan voz kechish – o'z tajribasining refleksiya, o'z muallifligidagi metodik pedagogik tizimni asoslab berish va sinovdan o'tkazishdan iborat.

Malaka oshirishning bevosita va bilvosita shakllarini o'zaro bir-birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etish orqali rahbar va pedagog kadrlarning mustaqil o'zini o'zi shaxsiy va kasbiy rivojlantirish motivlarini rag'batlantirish, shuningdek o'quv-tarbiya jarayonini yuqori ilmiy-uslubiy darajada ta'minlash, malakaviy talablar, o'quv rejalarini va dasturlari asosida kasbiy va pedagogik mahoratni doimiy ravishda rivojlantirishga ko'maklashish uchun zarur bo'lgan

kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarni muntazam ravishda yangilab borish uzluksiz malaka oshirish jarayonlarining maqsadi hisoblanadi.

Quyidagilar uzluksiz malaka oshirish jarayonlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va mahoratlarni uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish, malaka oshirishning to'g'ridan to'g'ri va kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini amaliyotga to'liq joriy etilishini ta'minlash va monitoringini olib borish;

Rahbar va pedagog kadrlarning ilmiy-pedagogik salohiyatidan kelib chiqib ularni kasbiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz malaka oshirishning shakllarini mustaqil tanlash va o'zlashtirish ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash orqali rahbar va pedagog kadrlarning tayyorgarligi sifatiga qo'yiladigan malakaviy talablarni takomillashtirish.

Uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish shakllari va bosqichlari:

- mutaxassislik bo'yicha mustaqil malaka oshirish;
- muqobil malaka oshirish;
- ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida bevosita o'qish.

Mutaxassislik bo'yicha mustaqil malaka oshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ochiq o'quv mashg'ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish;
- iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan ishlash;
- ilmiy konferensiyalarda ma'ruza bilan qatnashish;
- ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish;
- ko'rgazma va tanlovlarda ishtirok etish;
- ilmiy loyihalarda ishtirok etish;
- xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqolalar e'lon qilish;
- ochiq o'quv mashg'ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish — zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'limning interaktiv metodlarini qo'llagan holda akademik guruhlarda jadval bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish va o'rnatilgan tartibda keng muhokama qilish.

Mavzuni FSMU interfaol usuli yordamida mustahkamlash

FSMU interfaol usuli yordamida mashg'ulotni o'tkazish tartibi: - o'qituvchi har bir o'quvchiga "FSMU" texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarkatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi. Bu erda:

- F — fikringizni bayon eting;
- S — fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;
- M — ko'rsatgan sababingizni asoslovchi dalil keltiring;
- U — fikringizni umumlashtiring.
- o'qituvchi o'quvchil ar bilan bahs mavzusi (yoki muammo)ni belgilab oladi;
- yakka tartibdagi ish tugagach, o'quvchil ar kichik guruhlariga ajratiladi va kichik guruhlariga "FSMU" texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan katta formatdagi kog'ozlarni tarqatadi;
- kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda to'rt bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etiladi;
- o'qituvchi kichik guruhlarining yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida ximoya qilishlarini so'raydi;
- mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

"FSMU" texnologiyasi asosida quyidagi tarzda topshiriq tayyorlanishi mumkin: Jamiyat a'zolarini sog'lom, ezgu maqsadlar yo'lida birlashtirish uchun nima qilish kerak? Javobingizni "FSMU" texnologiyasi asosida bayon qiling...

O'quvchil ar o'z fikrlarini quyidagi tarzda bayon etishlari mumkin:

F	Fikringizni bayon eting	
----------	--------------------------------	--

S	Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M	Ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring	
U	Fikringizni umumlashtiring	

Davlat va huquq asoslari fanlarini o'qitishda “**SWOT – tahlil**” metodini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ushbu metod o'quvchilarni muammolarni teran tahlil qilish va ularni taqqoslashga yo'naltiribgina qolmay, ularda o'z fikrini qat'iy asoslash ko'nikmasining shakllanishiga ham yordam beradi. «SWOT – tahlil» topshirig'ida fikrlar quyidagi jadvalda bayon etiladi:

S	kuchli tomoni	1. 2. 3.
W	kuchsiz tomoni	1. 2. 3.
O	imkoniyatlari	1. 2. 3.
T	xavf-xatar	1. 2. 3.

Nazorat savollari

1. Metodik xizmat ko'rsatishning mohiyatini tushuntiring?
2. Fan metod birlashmalari ishini samarali tashkil etish shakl va usullari nimalardan iborat?
3. Fan metod birlashmalari ishini samarali tashkil etishning ahamiyati nimada?
4. Metodik xizmat ko'rsatishning ahamiyati nimada?
5. Metodik xizmat turlari va vazifalari bo'yicha ma'lumot bering?
6. Uzlüksiz kasbiy rivojlanish, mustaqil malaka oshirish va bilim olishning tashkiliy, uslubiy asoslari haqida ma'lumot bering?

7-AMALIY MASHG'ULOT

AMALIY MASHG'ULOTNING MAVZUSI. Davlat va huquq asoslari fanidan ilg'or ish tajribalarini ommalashtirishning zamonaviy texnologiyalari (2 soat amaliy mashg'ulot).

Reja:

- 7.1. O'qituvchilarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish.
- 7.2. Fanni o'qitishda to'plangan ilg'or tajribalardan namunalar.

I Bosqich: Yuqorida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

II Bosqich: Tinglovchilarga fan to'garaklari haqida qanday malumotlarga egasiz? Nimalarni bilishni istaysiz? kabi savollar yozilgan daraxt barglari tarqatiladi.

Har bir tinglovchi o'z fikrlarini barglarga yozadi. Ular doskada chizilgan daraxtlarga ilinadi. Fikrlar umumlashtiriladi.

III Bosqich: Kichik ma'ruza: **“Davlat va huquq asoslari fanidan ilg'or ish tajribalarni ommalashtirishning zamonaviy texnologiyalari”** mavzusi bayon qilinadi. O'qituvchi tinglovchil ar ehtiyojini aniqlab olib, so'ng o'zining kichik ma'ruzasini boshlaydi.

1. O'qituvchilarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish.

Xalq ta'limi vazirligi 2022-yil 25-avgustdagi “O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarni ommalashtirish taribini tasdiqlash to'g'risida”gi 279-son buyrug'ida ommalashirish aniq belgilab berilgan tartib bo'yicha amalga oshiriladi. Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi respublika ta'lim markazi talabgorlarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ularni ommalashtirish bo'yicha yagona ishchi organ hisoblanadi.

Ilg'or ish tajribalarni ommalashirish – bu talabgor tomonidan o'quv jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or ish uslublarini boshqarishga amaliyotda foydalanish uchun tavsiya etish hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimiga o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'quv jarayoniga ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or ish tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda xalq ta'limi tizimi xodimlari o'rtasida o'zaro tajriba almashish ishlarini yo'lga qo'yishdan iborat bo'lgan jarayon **ommalashtirishning maqsadi** hisoblanadi.

Talabgorning ilg'or ish tajribalarno o'rganish va ommalashtirish ishlari maxsus platforma orqali amalga oshiriladi.

Bunda talabgor maxsus platformada o'ziga shaxsiy kabinet yaratadi hamda ommalashtirishga tavsiya etiladigan ish uslubini metodik material sifatida elektron shaklda joylashtiradi.

Tayyorlangan metodik ishni maktab miqyosida ommalashtirish uchun yozma ravishda ariza bilan murojaat qiladi. Metod birlashma talabgorni ishini metod birlashma a'zolari bilan ko'rib chiqadi va zarur hollarda dars jarayonida sinovdan o'tkazadi. Ushbu metodik ishga metod birlashma tomonidan ijobiy xulosa berilib, maktab miqyosida ommalashtirish uchun Pedagogik kengashga tavsiya etiladi. Pedagogik kengash ijobiy xulosa olgan talabgorning ushbu metodik ishini maktab miqyosida ommalashtirish yoki rad etish bo'yicha qaror chiqaradi.

Talabgorning ilg'or ish tajribasini tuman (shahar), viloyat va respublika miqyosida ommalashtirish uchun maxsus platformada talabgorning shahsiy kabinetiga quyidagi hujjatlarni joylashtirishi lozim:

talabgor tavsiya etgan ish tajribaning ta'lim miqyosida ommalashtirishga tavsiya etilganligi to'g'risida pedagogik kengashi qarorining elektron (pdf) nushasi;

ommalashtirishga uchun tavsiya etilgan ish uslubi aks etgan metodik materialning tegishligicha elektron (pdf) nushasi, video mahsulotlar yoki ularning kombinatsiyasi yuklanadi.

Talabgor tomonidan ilg'or ish tajribalarini ommalashtirishga doir metodik mahsulotlar quyidagi ketma-ketlikda va muddatlardamaxsus platformaga joylashtiriladi;

maxsus platformaga kirish;

ommalashtirish menyusini tanlash;

metodik mahsulotni yuborish uchun “tizimga kirish” tugmasi yordamida ro'yxatdan o'tish;

talabgor birinchi marta ro'yxatdan o'tish uchun ERP orqali o'tish tugmasini bosish;

talabgor telefon raqami va JSHTIR raqamini kiritish;

talabgor “yuborish” tugmasini bosadi va metodik mahsulotlari platformaga yuboriladi.

Yuborilgan materiallar uch xil ko'rinishda bo'lishi mumkin:

birinchi yo'nalish: O'quv metodik qo'llanmalar;

ikkinchi yo'nalish: Dars ishlanmalari;

uchinchi yo'nalish: Vidio mahsulotlar (7 minut va 300 mb oshmasligi kerak).

Ilg'or metodik ishlarni yuborish muddati:

birinchi muddat 1-sentabrdan 1-oktabrigacha;

ikkinchi muddat 1-noyabrdan 1-dekabrigacha;

uchinchi muddat 1-yanvardan 1-fevralgacha;

to'rtinchi muddat 1-martdan 1-aprelgacha.

Ilg'or metodik ishlarni baholash mezonlari ikki turda baholanadi:

1-tur foydalanuvchi o'qituvchilar tomonidan:

birinchi muddat 1-oktabrdan 1-noyabrgacha;
ikkinchi muddat 1-dekabrda 1-yanvargacha;
uchinchi muddat 1-fevraldan 1-martgacha;
to'rtinchi muddat 1-apreldan 1-maygacha.

2-tur birinchi turdan o'tgan dastlabki 100 ta ish "ekspert guruhi" tomonidan baholanadi:

Aynan o'sha fan o'qituvchisi bo'lgan va o'sha ilg'or metodik ishlarni yuklab olgan foydalanuvchilar tomonidagina baholanadi.

Baholash ballari minimal 1 ball dan maksimal 10 ballgacha bo'ladi.

Baholashdan so'ng, natijalar Ilmiy metodik kengashga taqdim etiladi. Bunda fanlar kesimida eng yuqori dastlabki 20 ta o'rin Respublika miqyosida ommalashtirilgan ilg'or metodik ish, 21-o'ringacha viloyat miqyosida, 51-o'ringacha tuman miqyosida ommalashtirilgan deb qabul qilinadi va ommalashganlik haqida sertifikat beriladi hamda kelgusi o'quv yilidan boshlab uch o'quv yili muddatiga amal qiladi. Agar ishlar 200 tadan oshmasa ekspertlar yuborilgan ishlarni 50%ni baholaydi. Bunda eng yuqori bal olgan ilg'or ish tajribalarining dastlabki 20% respublika miqyosida, keyingi 30% hududiy (viloyat) miqyosida, qolgan 50% tuman (shahar) miqyosida ommalashtiriladi.

Ilmiy metodik kengash muhakamasi davrida quyidagilar boshqichma bosqich amalga oshiriladi:

talabgorning tavsiya etgan ilg'or ish tajribasi tuman (shahar) miqyosida ommalashtirilsin;
talabgorning tavsiya etgan ilg'or ish tajribasi hudud (viloyat) miqyosida ommalashtirilsin;
talabgorning tavsiya etgan ilg'or ish tajribasi respublika miqyosida ommalashtirilsin;
talabgorning tavsiya etgan ish tajribasi ommalashtirishga tavsiya etilmasin degan bandlardan biri qabul qilinadi.

Quyidagi xalq ta'limi tizimi xodimlarning ish tajribalari to'g'ridan- to'g'ri respublika miqyosida ommalashtiriladi:

Xalq ta'limi vaziriligining buyrug'i asosida tashkil etiladigan fan o'qituvchilari o'rtasidagi tanlovlarning respublika bosqichi 1-2-3-o'rin g'oliblari ish tajribasi;

Xalq ta'limi vaziriligi omonidan tavsiya etilgan darslik va o'quv-metodik majmualari (darslik, o'qituvchi kitobi, o'quvchi mashq daftari, o'quv qo'llanma) taqrizchilarni ish tajribalari; o'quvchilari fan olimpiadaning respublika bosqichida 1-o'rinni hamda xalqaro olimpiadalarda 1-2-3-o'rinni olgan fan o'qituvchilari;

Milliy o'quv dasturi doirasidagi seminarlarda trener bo'lib, eng faol ishtirok etib, ta'lim islohotlarini amalga oshirishda o'z hissasini qo'shgan pedagoglar.

Appellyatsiya komissiyasi Respublika ta'lim markazining Ilmiy metodik kengashi tarkibiga kirmagan uch nafargacha fan mutahassislaridan iborat tarkibda tuziladi.

Appellyatsiya komissiyasi tomonidan ommalashirishga tavsiya etilgan talabgorning arizalari ommalashtirish natijalari e'lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni davomida qabul qilinadi. Appellyatsiya jarayonida ekspertlar a'zolari, talabgor (onlayn va oflayn) ishtirok etishi mumkin.

Ekspertlar tomonidan baholangan talabgorning ilg'or ish tajribasi baholash mezonlariga mos kelmaslik holatlari aniqlanganda appellyatsiya komissiyasi ekspertlar a'zolarining qarorini bekor qilish yoki ularga o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

Appellyatsiya komissiyasi ekspertlar a'zolariga natijalar bo'yicha izoh berib, ommalashtirish natijalarini o'zgartirishi mumkin va bunda ekspertlar a'zolari qarorlari qayta asdiqlanadi.

Maxsus platformada talabgorning ilg'or ish tajribasi e'lon qilingan kundan boshlab ommalashtirilgan hisoblanadi va kelgusi o'quv yilidan uch o'quv yiliga amal qiladi.

Ish tajribalari ommalashtirilgan eng ilg'or o'qituvchilarni Respublika ta'lim markazining avsiyasiga ko'ra vazirlikning tegishli ishchi guruhi qarori bilan vazir jamg'armasidan moddiy rag'batlantirish mumkin.

Ommalashtirishga tavsiya etilmagan ish tajribalarga Ilmiy-metodik kengashning yakuniy qarorida qayd etilgan izohdan boshqa qo‘shimcha xulosalar berilmaydi.

Talabgor ish tajribalarini o‘rganish va ommalashtirish ishlarida qatnashgan mas’ul xodimlar Markazning budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirilib borilishi mumkin.

7.2. Ilg‘or pedagogikani o‘rganish, sintez qilish va tarqatish.

Ta‘lim tajribasi– o‘qituvchi tomonidan o‘quv ishlari jarayonida olingan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarning yig‘indisi asosida o‘qituvchil ik tajribasi O‘qituvchi pedagogik mahorati shakllanmoqda. Shu bilan birga, bu pedagogika fanining rivojlanish manbai.

Maktab amaliyotida oliy ta‘limni o‘qitish jarayonida olingan bilimlar faqat moslashuvchan va chuqurlashadi va o‘qituvchining pedagogik harakatlarini optimallashtiradi. Jarayonda o‘quv faoliyati tajriba psixologik va pedagogik fanlarga tayanib, yangilanadi. U pedagogik mahoratni rivojlantirish va boshqa odamlarning tajribasini o‘rganishni faollashtiradi, uni o‘ziga xosligi bilan taqqoslaydi.

Ilg‘or pedagogik tajribaning o‘ziga xos xususiyati uning yechimiga e‘tibor berishdir dolzarb masalalar maktabning o‘quv jarayoni.

Uning muhim ko‘rsatkichi barqarorlikdir. Bu shuni anglatadiki, ta‘lim va ta‘lim samaradorligini vaqt sinovidan o‘tkazish kerak. Ilg‘or pedagogik tajribaning istiqboli shuni ko‘rsatadiki, u “ishlaydi” amaliyot boshqa o‘qituvchil ar, uni tarqatish va amalda qo‘llash mumkin.

O‘qituvchining xususiyatlarini hisobga olgan holda, eng yaxshi amaliyotlar innovatsion yoki namunali bo‘lishi mumkin. Innovatsion pedagogik tajriba o‘ziga xoslik, yangilik bilan ajralib turadi. Innovatsion o‘qituvchining tajribasi tajriba deb ataladi va tadqiqot deb ataladi. Agar biz o‘qitish va o‘qitishning shakllari, usullari, vositalarini ulardan ijodiy foydalanish asosida takomillashtirish haqida gapiradigan bo‘lsak, unda bunday tajriba ratsionalizatsiya hisoblanadi. Namunaviy pedagogik tajriba - bu pedagogika fanining yutuqlaridan, olimlar, metodistlarning metodik tavsiyalaridan, boshqa o‘qituvchil arning tajribasidan mohirona foydalanadigan o‘qituvchining ongli faoliyati va shu asosda uning tarbiyaviy ishi boshqalar uchun namuna. Maktab ijodiy ishlaydigan o‘qituvchil arni izlashni rag‘batlantirishi kerak.

Pedagogik tajribani o‘rganish dasturi.

Dastur quyidagi bo‘limlardan iborat:

1. Pedagogik tajribani aniqlash. Pedagogik tajribaning samaradorligini va uni baholash darajasini aniqlash uchun quyidagi mezonlarga ega bo‘lish kerak: ob‘ektning xususiyatlari, ma‘lum bir atributni ma‘lum ob‘ektda aks ettirish darajasini aniqlash uchun o‘lchov va mos yozuvlar nuqtasi (biror narsani o‘lchash uchun sizda shunday bo‘lishi kerak). Ushbu tarkibiy qismlarsiz ishonchli mezon mavjud emas va shuning uchun pedagogik tajribani obyektiv baholash mumkin emas.

Umumlashtirish darajasiga ko‘ra, ikkita guruh mezonini ajratish mumkin: birinchi guruh - bu umumiy pedagogik mezonlarga tegishli mezonlar (masalan, muammoli o‘qitish mezonlari), ikkinchisi - eng yaxshi amaliyotga tegishli bo‘lgan umumiy pedagogik mezonlarning zarralari sifatida (masalan, muammoli o‘qitish mezonlari nisbatan boshqacha). faoliyat turlari).

O‘qitishda ustunlik belgilari quyidagilar:

1. Asosiy parametrlar bo‘yicha o‘quv jarayoni natijalarining yuqori miqdoriy va asosan sifat ko‘rsatkichlari:

-maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligi;

-bolalar ta‘limi (bilimlarning to‘liqligi va mustahkamligi, bilimlar tizimi va ularni umumlashtirish o‘lchovi, bilimlarni yangi vaziyatga o‘tkazish qobiliyati, tegishli ko‘nikmalar mavjudligi);

-bilim faoliyati, qiziquvchanlik, bilimlarni egallashda mustaqillikka intilish; ta‘lim darajasi.

2. Pedagogik tajribaning optimalligi (o‘qituvchil ar va bolalar uchun vaqt va kuchni tejab sarflamagan holda tarbiyaviy ishda eng yaxshi natijalarga erishish va bundan tashqari, ushbu

tajriba boshqa teng darajada muhim o'quv va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda to'siq bo'lmasligi uchun).

3. Tirishqoqlik, tajribaning barqarorligi, uning uzoq muddatli ishlashi. Qisqa vaqt ichida mavjud bo'lgan va vaqt o'tishi bilan takrorlanmagan tarbiyaviy ishdagi o'qituvchining muhim yutuqlari ham eng yaxshi amaliyotga bog'lanish qiyin.

4. Bitta o'qituvchining tajribasini boshqalar tomonidan takrorlash va ijodiy foydalanish imkoniyati, ushbu tajribani ommaviy tajribaga yetkazish.

5. Tajriba istiqboli. Eng yaxshi amaliyotlar har doim kelajakka ega, uni rivojlantirish istiqbollari aniq.

6. Tajribaning ilmiy asosligi. Eng yaxshi amaliyotlar o'qituvchining ijodiy nazariy izlanishlari yoki urinishlar va xatolar jarayonida topishi mumkin. Ammo har holda, bunday tajriba doimo ilmiy asosga ega bo'ladi. Ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirishning vazifalaridan biri unga ilmiy izoh berishdir.

Ushbu belgilar mavjud bo'lganda, bu tajribani eng yaxshi amaliyot deb hisoblash kerak, ammo keyin siz har bir belgi qanday paydo bo'lishini o'lchashingiz kerak.

Ushbu bosqichdagi odatiy xatolar:

1. Ba'zi o'qituvchilar pedagogik muammoni pedagogik vazifadan ajratib turmaydi. Shunday qilib, erishmoqchi bo'lgan o'qituvchiyuqori natijalar o'z ishida qo'shimcha darslar olib boradi, ularning davomiyligini oshiradi. Bu ish bir zumda yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin (ya'ni hozirgi pedagogik vazifa hal qilinadi), ammo eng muhimi o'tkazib yuborilgan. pedagogik muammo: bolalarning ruhiy salomatligi.

2. O'qituvchilarning yangisi - bu mukammallik kafolati emasligi to'g'risida tushunchaning yo'qligi. Ba'zi shakllar, usullar va usullardan ommaviy foydalanish ham mukammallikning ishonchsiz ko'rsatkichidir. Ba'zida sohta innovatsion va soxta pedagogik metodlar eng yaxshi amaliyot sifatida beriladi. Masalan, o'qituvchini texnik vositalar bilan almashtirishga urinish, agar bunday almashtirish asosli bo'lmasa, har qanday holatda ham tarbiyaviy ishda yuqori natijalarga erishishga intilish, bolalarga ta'sir qilishning diktatorlik uslublari, haqiqiy muvaffaqiyat ko'rsatkichlarini qayta baholash va boshqalar. Boshqa o'qituvchi ar qo'shimcha darslar orqali yuqori darajadagi bilimlarga erishmoqdalar. Shu bilan birga, ustozning qadr-qimmatini kabi yaxlitligini ta'kidlab, bu faqat mahoratning asosiy belgisi emasligini va bundan tashqari, ilg'or tajriba emasligini anglash mumkin emas.

2. Pedagogik tajribani o'rganish. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishni boshlagan holda, rahbar birinchi navbatda umumlashtiriladigan tarkibiy qismlarni aniqlashi kerak. Bo'lishi mumkin:

Pedagogik faoliyatning yaxlit tizimi (eng uzoq vaqtni, ehtimol bir yildan ko'proq vaqtni talab qiladi);

Har qanday muammo bo'yicha o'qituvchining ishlash tizimi (yil davomida o'rganilishi mumkin);

Bitta samarali texnikadan foydalanish (o'qish vaqtini o'qituvchi belgilaydi); Yangi yoki o'tmishdan olingan, ammo moslashtirilgan tajribani o'zlashtirish tajribasi zamonaviy sharoitlar texnologiyalar (masalan, dizayn usuli). Shunday qilib, o'qituvchi tomonidan ijobiy natija beradigan va "Hech qanday zarar yetkazmaslik" talabini qondiradigan muayyan tizimda ishlatiladigan har qanday tarkibiy qismlar o'rganilishi mumkin:

usul, texnologiya, alohida texnika, usul, vosita va boshqalar.

Ob'yektni o'rganish rejasiga kiritish uchun asos eng yaxshi amaliyotga bo'lgan talabdir.

Keyin quyidagi formula yordamida tajribani umumlashtirish rejalashtirilgan:

Maqsadni belgilash (*sabab?*).

Tarkibni aniqlash (*nima*).

Usul va vositalarni aniqlash (*qanday?*)

Natijalarni tashxislash (*qaysi biri?*).

Tajribani o'rganish davomiyligi o'rganilayotgan obyekt hajmiga bevosita bog'liq. Ish chorak davomida tavsif bilan yakunlanishi mumkin yoki uni bir yil yoki undan ko'proq vaqtga rejalashtirish mumkin.

3. Pedagogik tajribani umumlashtirish. Uning tavsifi, darajasi (amaliy, ilmiy, uslubiy)

Ta'rif eng ko'p uchraydigan xatolar bo'lgan tajribani umumlashtirishda eng qiyin va vaqt talab etadigan bosqichlardan biridir. O'qituvchining tavsifi yangi emas, shuning uchun uslubiy adabiyotlarda keng namoyish etilgan juda mashhur tajribaning tavsifi. Bunday tajriba ushbu jamoa uchun rivojlangan, ammo uni boshqa shakllarda umumlashtirish maqsadga muvofiqdir. Umumiy xususiyatdagi fikrlar va xulosalar taqdimoti, adabiyotlardagi nazariy hisob-kitoblardan foydalanish. Bunday materialni xabar, metodik adabiyotlar izohi deb atash mumkin va o'qituvchilarning ta'lim ufqlarini kengaytirish uchun foydalanish mumkin. Yetakchi g'oyalar tizimi har doim ham oshkor etilmaydi, metodologiyaning eng muhim tarkibiy qismlari tajriba mantig'ini, unda o'qituvchining harakatlarining ketma-ketligini ochib beradi. Ta'rifdagi yuzakilik, ish tahlilini alohida misollar va rasmlar bilan almashtirish.

Pedagogik tajribani tavsiflashga kirish quyidagi talablarga rioya qilishi kerak:

Maqsadlilik: ushbu tajribani boshqa o'qituvchilarning tomonidan qayta ishlab chiqish qobiliyati.

Aniqlik: tajriba muallifining pedagogik faoliyati namunalari asosida tajriba tarkibiy qismlarini (usul, usul, usul va boshqalar) qisqacha va shu bilan birga qisqacha ochib berish.

Ilmiy: ta'riflangan tarkibiy qismlarning pedagogika nazariyasida ularning ta'riflariga muvofiqligi.

Yaxlitlik, mantiq: tarkibiy qismlarning ketma-ket tavsifi, ularning eng yaxshi amaliyotlar uchun ahamiyati aniq bog'liqligi. Tajribani umumlashtirish uchun hujjat janri va tajribani tarqatish shakli bog'liq **umumlashtirish darajasi** bu sodir bo'ladi **amaliy, uslubiy va ilmiy**.

Amaliy - Umumlashtirish darajasi (eng ko'p ishlatiladigan) o'z ichiga quyidagilarni o'z ichiga oladi: ish uslublari va ish uslublari yoki individual texnik va usullarini tavsiflash va (yoki) namoyish qilish, ish faoliyatini namoyish qilish, mehnat tizimini namoyish qilish.

Uslubiy - (eng samarali!) umumlashtirish darajasi ilmiy va nazariy asoslashdan iborat bo'lib, tajribaning rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tavsiflaydigan, ish samaradorligini tahlil qiladigan, uslubiy ishlanmalar va tavsiyalar tayyorlaydigan tajribaning ilg'or pedagogik g'oyalarini ta'kidlaydi.

Ilmiy - umumlashtirishni o'z-o'zini anglash uchun motivatsiyaga hissa qo'shadigan bo'limlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: ish tajribasini ilmiy va nazariy asoslash; tajribaning amaliy yangiligi; tajribaning murakkabligi; nazariya va amaliyotni rivojlantirish uchun tajribaning ahamiyati. Pedagogik tajribaning tavsifi, ammo modul shaklida tajriba tavsifini taqdim eting.

5. O'qitish tajribasini tarqatish turli darajalarda amalga oshiriladi: Maktab doirasida, shahar, mintaqaviy, va boshqalar.

IV-bosqich: Amaliy mashg'ulot: 5x5x5 metodi.

Tinglovchilarning 5 guruhga bo'linadi. Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi.

1-guruhga: Topshiriq. Davlat va huquq asoslari fani bo'yicha o'qituvchilarning ilg'or tajribalarini tahlil qiling va ahamiyatini yoriting.

2-guruhga: Topshiriq. Davlat va huquq asoslari fani bo'yicha o'qituvchilarning ilg'or tajribalarini aniqlash va o'rganishning qanday ahamiyati mavjud.

3-guruhga: Topshiriq. Davlat va huquq asoslari fani bo'yicha o'qituvchilarning ilg'or tajribalarini ommalashtirishning qanday ahamiyati mavjud.

4-guruhga: Topshiriq. Davlat va huquq asoslari faniga oid zamonaviy texnologiyalari va ularning shakl hamda usullarini yoritish.

5-guruhga: Topshiriq. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda to'plangan qanday tajribalarni bilasiz.

V-bosqich: Guruhlar taqdimoti:

Har bir guruh o‘zlarining mustaqil fikrlari tushirilgan vatman qog‘ozini doskaga mahkamlanadi va tushintirish qiladi. Shundan so‘ng ma‘ruzachi avval tayyorlangan slaydlar yordamida tinglovchilarning fikrlarini tahlil qiladi.

VI-bosqich: Dars yakuni. Tinglovchilarga kartochkalar tarqatiladi. «Men bugun ...larni bilib oldim» degan kartochkalar tarqatiladi.

O‘qituvchi fikrlarini umumlashtirib, darsni yakunlaydi.

IV. KEYSLAR BANKI

1-keys. Davlatning mazmuni, maqsadi, davlat hokimiyatining qaysi ijtimoiy-siyosiy guruhlariga mansubligi va u kimning manfaatlariga xizmat qilishi uning mohiyatini ifodalaydi.

Topshiriq: *Davlatning mohiyatini atroflicha yoritib bering.*

Muammoning turi	Kelib chiqish sabablari	Hal etish yo‘llari

2-keys. Davlat o‘z funksiyalarini amalga oshirishda muayyan shakl va usullardan foydalanadi. Davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllarining huquqiy va huquqiy xarakterga ega bo‘lmagan turlari mavjud.

Topshiriq: *Davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllariga huquqiy baho bering va atroflicha yoritib.*

3-keys. O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng demokratik huquqiy davlat asoslarini barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo‘ydi. Bunda hokimiyatlar bo‘linishi alohida ahamiyat kasb etib, davlat funksiyalarini samarali amalga oshirilishini ta‘minlab beradi, ya‘ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mavjud bo‘lishi shart.

Topshiriq: *O‘zbekiston hokimiyatlar bo‘linishi prinsipining o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanishini misollar yordamida yoritib bering.*

4-keys. O‘zbekiston Respublikasida hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi shunda ko‘rinadiki, mamlakatda qonun chiqaruvchi hokimiyat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

Topshiriq: *Hozirgi kunda qonun chiqaruvchi organlarning davlat mexanizmida tutgan o‘rni ko‘rsating?*

V. GLOSSARIY

Konstitutsiya- (“constitution” lotincha so‘z bo‘lib, “tuzish” degani) “qoida” va “nizom” ma‘nolarini anglatadi. Konstitutsiyada jamoat va davlat tuzilishi, davlat hokimiyati va boshqaruvining asoslari, fuqarolarning asosiy huquq va majburiyatlari aniq belgilab beriladi

Inson huquqi- insonning davlat bilan munosabatdagi huquqiy holatini, uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi imkoniyatlarini tavsiflash tushunchasi

Konstitutsiyaviy huquq- huquqning yetakchi tarmog‘i, shuningdek, huquqiy fanlar va o‘quv-ta‘limi turlaridan biri. Konstitutsiya va konstitutsiyaviy huquqning farqi shundan iboratki, konstitutsiya birgina qonun hisoblansa, konstitutsiyaviy huquq juda ko‘p huquqiy manbalarni, shuningdek, konstitutsiyani o‘z ichiga oluvchi butun bir huquqiy tarmoqni qamrab oladi

Yashash huquqi- fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 24 moddasida mustahkamlab qo‘yilgan asosiy huquqlaridan biri. “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir”

Deklaratsiya (Bayonnoma)- qonundan farqli o‘laroq deklaratsiya huquq va erkinliklarni e‘lon qiladi, konstitutsiya esa fuqarolar uchun ham, shu davlat hududida yashovchi odamlar uchun ham majburiy ravishda amal qilishni o‘rnatadi

Jazo chorasi- jazo jinoyat sodir etishdan aybli ekanligi isbot qilingan shaxsga nisbatan sud hukmi bilan davlat nomidan qo‘llaniladigan majburlov vositasi. Mahkum qonunlarda nazarda tutilgan ravishda muayyan huquqlardan mahrum etilgan, qilgan aybiga qarab, jamiyatdan ajratib, qamab qo‘yiladi. Jazo mahkumni qayta tarbiyalash, jinoiy faoliyatini davom ettirishiga to‘sqinlik qilish, mahkumning qayta jinoyat qilmasligini va boshqa shaxslarning jinoyat qilishdan tiyilishlarini ko‘zda tutuvchi majburlov chorasi

Qonun-Davlat xalq xo`jaligining tegishli sohasiga oid me`yorlarni belgilovchi, Oliy Majlisda qabul qilinadigan, sohaning strategik rivojlanishini ifodalovchi, uzoq muddatga mo`ljallangan, takomillashib boruvchi hujjat.

Farmon-Tegishli soha yoki muhim ob`ektga, voqeylikka nisbatan chiqarilgan O`zbekiston Respublikasi Prezidentimizning topshiriq va ko`rsatmalarini ifodalovchi me`yoriy hujjat.

Farmoyish-ijro etish muddati tezlikni, operativlikni talab etuvchi vakolatli idoralar rahbarlari tomonidan chiqariladigan me`yoriy hujjat. Buyruq sohaga oid vakolatga ega bo`lgan tashkilotlarning turli rahbarlari tomonidan davlat qonuni, PF va Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda yuqori tashkilotlarning turli ko`rsatmalar ijrosini ta`minlash hamda korxonalar, muassasa, tashkilotlar boshqaruvini amalga oshirish uchun chiqarilgan me`yoriy hujjat.

VI FOYDALANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN O'QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017- yil 14-yanvar // Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29- dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (2020-yil 29-dekabr).

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2021.

2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” 2020-yil 23-sentabrda O'RQ-637-son Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 6-noyabrda PF-6108-son Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2020-yil 6-noyabrda PQ-4884-son qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 25-yanvarda PQ-4963-son qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2019-yil 29-aprelda PF-5712-son Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018-yil 5-sentabrda PQ-3931-son qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2022-yil 17-yanvarda 25-son qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

1. Djaylavov A. Ta'lim sohasida interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish texnologiyalari (malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun uslubiy qo'llanma). - A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2016.

2. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M.A., “Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. T.: “Nihol” nashriyoti, 2013.

3. Rustamova N. Mediata'lim va mediamadaniyat: nazariya va amaliyot. –T.: “Muharrir”, 2015.

4. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar – do'stona muhit yaratish omili. -T.: YuNISEF, 2005 y.

IV. Fanga oid adabiyotlar:

1. Amanova O. «Davlat va huquq asoslari kursida ko'rgazmali qurollardan foydalanish», «O'qituvchi», 1999-yil.

2. Jo'raev Y., Topildiev V. va boshq.; Huquqshunoslik. O'quv qo'llanma – T.: VORIS, 2015-yil.

3. Ikramov R.A. Jalilov Sh.I., Ganieva G.Yu., Polvonov I.T. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. O'quv qo'llanma. – T.: O'zMU, 2012-yil.

4. Karimova O., Gulomova Z. «Huquqiy tarbiya va huquqni o'qitish uslubi». T., 1998-yil.

5. Karimova O. «Huquqni o'qitish metodikasi». T., 2003-yil.

6. Karimova O. A. Huquqni o`qitish metodikasi. O`quv qo`llanma. – T. 2010 -yil.
7. Karimova O., G`afforov Z. Davlat va huquq asoslari, “O`qituvchi”. 1995-yil.
8. Muydinova M.T. «Davlat va huquq asoslari» fanidan o`quvchil arni olimpiadaga tayyorlash. Metodik qo`llanma. Toshkent-2015-yil.

V.Elektron ta`lim resurslari:

1. O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi: www.uzedu.uz.
2. Ijtimoiy axborot ta`lim portali: www.ziyonet.uz.
3. <https://www.lex.uz> – O`zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma`lumotlari Milliy bazasi.
4. <http://www.rtm.uz> - Respublika ta`lim markazi sayti.
5. <http://www.dtm.uz> - Respublika test markazi sayti.
6. <http://www.kundalik.com> - “Kundalik” avtomatlashtirilgan ta`lim tizimi sayti.
7. <http://timss2015.org/>; <http://pirls2016.org/> - TIMSS -PIRLS tadqiqotlarining xalqaro muvofiqlashtiruvchi markazi sayti.
8. <http://centeroko.ru> - Ta`lim sifatini baholash markazi (Sentr otsenki kachestva obrazovaniya ISRO RAO) sayti.